O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:908**

***Behzod ABBASOV,***
*Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi,PhD*
*E-mail: bb_abbasov@gmail.com*

*NamMQI dotsenti, t.f.n N.Shaydullayev taqrizi asosida*

## XX ASR O‘RTALARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida maxsus davlat dasturlari asosida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Aholining ichki migratsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yangi aholi turar-joy mavzelari tashkil etilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar mohiyatini anglashda tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, natijalardan samarali foydalanish katta ahamiyatga egadir. Shu jihatdan XX asr o‘rtalarida O‘zbekiston mintaqalari, jumladan, Farg‘ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ichki migratsion jarayonlarning ta’sirini yoritish Vatanimiz tarixshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, migratsiya, qishloq taraqqiyoti, dehqon xo‘jaligi, o‘troqlashish, ko‘chirish, Farg‘ona vodiysi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

## АДАПТАЦИЯ ПЕРЕСЕЛЕНЧЕСКОГО НАСЕЛЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ К НОВЫМ УСЛОВИЯМ В СЕРЕДИНЕ XX ВЕКА

Аннотация

В годы независимости большое внимание уделяется вопросу социально-экономического развития Узбекистана на основе специальных государственных программ. Направляя внутреннюю миграцию населения в социально-экономически правильное русло, создаются новые жилые массивы. Большое значение в понимании сущности этих изменений имеет анализ исторических процессов, эффективное использование результатов. В связи с этим в середине XX века выяснение влияния внутренних миграционных процессов на социально-экономическое развитие регионов Узбекистана, в том числе Ферганской долины, стало одним из актуальных направлений историографии нашей страны.

**Ключевые слова:** Глобализация, миграция, развитие села, крестьянское хозяйство, расселение, переселение, Ферганская долина, социально-экономическая жизнь.

## ADAPTATION OF THE DISPLACED POPULATION OF THE FERGHANA VALLEY TO NEW CONDITIONS IN THE MIDDLE OF THE XX CENTURY

Annotation

During the years of independence, much attention has been paid to the issue of socio-economic development of Uzbekistan on the basis of special state programs. By directing the internal migration of the population in a socially and economically correct direction, new residential areas are being created. Of great importance in the understanding of the essence of these changes is the analysis of historical processes, the effective use of results. In this regard, in the middle of the XX century, the clarification of the impact of internal migration processes on the socio-economic development of the regions of Uzbekistan, including the Fergana Valley, became one of the relevant areas of historiography of our country.

**Key words:** Globalization, migration, rural development, peasant farming, resettlement, resettlement, Fergana Valley, socio-economic life.

**Kirish.** Ko‘chirib keltirilgan xo‘jaliklarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash, ularni oyoqqa turib ketishi uchun imkoniyat yaratish respublika hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qancha ishlar qilingan. Lekin, 1953 yilda O‘zbekiston SSR bo‘yicha ko‘chirilgan kolxozchilarni xo‘jaliklarga joylashtirish masalasida katta qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ushbu sohadagi vazifalar ham bajarilmay qoldi. Masalan, ko‘chirib keltirilgan 2183 ta oiladan faqatgina 900 ta xo‘jalik yoki 31,1 %i sigir va buzoq bilan ta’minlangan edi. 1955 yilda Andijon oblastida ko‘chirilgan barcha 833 ta xo‘jalik uy-joy va tomorqa bilan ta’minlangan, 684 ta oilaga esa oziq-ovqat ssudasi berilgan. Andijon, Baliqchi va Oltinko‘l rayonlarining ayrim kolxozlari muhtoj bo‘lmaganliklari sababli oziq-ovqat ssudasidan voz kechgan. Yangi kolxozlarga ko‘chirilgan 833 ta xo‘jaliklarga ko‘chirish biletlari topshirilgan. Ko‘chirilgan oilalarga hammasi bo‘lib 442,6 ming rubl yordam puli berilgan, lekin 21 ta oila esa kolxozlar tomonidan aholining ko‘chirish rejasida mavjud bo‘lmagan rayonlardan taklif qilinganliklari sababli yordam puli ololmagan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yangi tashkil qilingan sovxozlarda 135 ta xo‘jalikka 71,3 ming rubl yordam puli ajratildi. Shuningdek, sovxozlardagi barcha xo‘jalik kvartira va tomorqa yerlari bilan ta’minlangan hamda ularga oziq-ovqat ssudasi berilgan. Andijon rayonining “Otchopar” massivida tashkil qilingan “Yangihayot” kolxozidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlili quyidagi faktlarni ko‘rsatib berdi: mazkur kolxozga 1954 yilda 456 gektar, 1955 yilda esa 492 gektar yer maydoni ajratildi. 1955 yilda 376 gektar yerga paxta ekilgan va hosildorlik ancha yuqori ya’ni har gektar yerdan 25,7 sentnerni tashkil qilgan. Yangi tashkil qilingan kolxozga ko‘chirilgan oilalar o‘zlarining ko‘chayotgan kolxozidan ijtimoiy yordam sifatida 1954 yilda 19 ta ish hayvoni va 335 485 rubl mablag‘ga ega bo‘lgan edi. “Umuman olganda, Andijon oblastining 1950 yillarning birinchi yarmida Stalin rayonida yangi sug‘orish yerlarida

tashkil qilingan “Xrushchev”, “Malenkov” va “Bulganin” kolxozlari faoliyatida ular yangi o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarining o‘sishi 701 gektarni tashkil qilib, davlatga 33254 sentner paxta topshirilgan. 298 ta namunali uylar hukumat tomonidan, 345 ta uy-joy esa kolxozchilarning o‘zlari tomonidan qurilgan. Shuningdek, 3 ta molxona, 1 ta klub, 6 ta omborxona binolari, 3 ta magazin va 6 ta paxtani quritish binolari qurilib, ishga tushirilgan”[1].

Andijon rayoni “Yangihayot” kolxozidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlili quyidagi ko‘rinish oldi: 1954 yilda 61 ta oila ko‘chib kelgan bo‘lsa, ularning 57 tasi uy bilan ta’minlangan, 52 tasida sigir bo‘lgan. 1955 yilda esa ushbu kolxozga atigi 7 ta oila ko‘chirildi va ularning barchasi uy-joy bilan ta’minlandi.

Yangi sug‘oriladigan yerlarning “O‘rmonbek” massivida 1953 yilda tashkil qilingan Andijon oblastining Izboskan rayonidagi “Stalin yo‘li” nomli kolxozga ko‘chib kelgan aholi uchun 1953 yilda 20 ta uy xo‘jalik usuli asosida (kolxozchilarning o‘zlari tomonidan) qurilgan (ushbu yilda 67 ta oila ko‘chib kelgan), 1954 va 1955 yillarda esa 34 ta va 14 ta namunali uylar ushbu usulda qurilib, aholiga topshirilgan. Shuningdek, ikki yil davomida kolxozchilarning o‘zlari tomonidan 14 ta va 11 ta uy-joy qurilgan. Mazkur yillarda ko‘chib kelganlar oilalar soni jami 53 tani tashkil qilgan.

Lenin (hozirgi Asaka) rayonidagi “Komsomol” kolxozida ko‘chirilgan aholi uchun 1954 yilda shifer bilan yopilgan 29 ta, 1955 yilda esa 28 ta namunali uylar qurilgan. Shuningdek, xo‘jalik usuli bilan ikki yil davomida 40 ta uy qurildi. Ushbu kolxozda ham ko‘chib kelgan aholining bir qismi uy-joy bilan ta’minlanmaganligi sababli yerto‘lalarda yashashga majbur bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, uy-joy qurilishi bilan bog‘liq pul xarajatlarining bir qismi, ya’ni 1 mln. 120 ming rubl avval tashkil qilingan va o‘ziga to‘q kolxozlardan olingan.

**Tahlil va natijalar.** 1949-1955 yillar davomida “O‘rmonbek” massivida 1950 yilda tashkil qilingan “Malenkov” nomidagi xo‘jalik (u 1950 yilda tuzilganiga qaramay, bu yerda uy-joy qurilish ishlari 1949 yilda boshlangan) hammasi bo‘lib 218 ta uy qurilgan, lekin ko‘chib kelgan oilalarning soni esa 286 tani tashkil qilganligi, boshqa ijtimoiy muammolarning yechilmaganligi sababli ularning bir qismi yangi kolxozni tark etgan. Demak, yuqorida zikr qilingan kolxozlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining tahlili misolida ham shu narsa ma’lumki, ijtimoiy muammolar, ya’ni ko‘chirilgan oilalarning uy-joy bilan o‘z vaqtida ta’minlanmaganligi, ijtiomiy ahamiyatga molik ob’ektlar (maktab, klub, ambulatoriya va h.k.) yo‘qligi umumiy hodisa bo‘lib, ko‘chirish siyosati va yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonidagi eng katta muammolardan biri edi. “Bu kabi ma’lumotlarni bugun Andijon viloyatida istiqomat qiladigan respondentlar bilan bo‘lgan suhbatlar ham tasdiqlaydi. Xoldarov Nuriddin Xoldarovich (1932-yil 14-yanvarda Namangan oblasti Uychi rayoni G‘ayrat qishlog‘ida tavvallud topgan)ning ta’kidlashicha, u 1955-yil “Ulug‘nor” qo‘riq yerlaridagi Mizraahmedov sovxoziga ko‘chib kelgan va shu hududda uylangan. Xoldarov Nuriddinning turmush o‘rtog‘i Namangan oblasti Yangiqo‘rg‘on rayoni Zarxan qishlog‘idan ko‘chib kelgan. Traktorchi bo‘lib faoliyat olib borgan va yangi yerlarni o‘zlashtirishda faol ishtirok etgan. Dastlab ko‘chib kelgan paytda bu hududda qamish, yantoqlar o‘sgan, yer maydonlari esa sho‘r bo‘lgan va atigi olti-sakkiz nafar xo‘jalik istiqomat qilgan. Xoldarov Nuriddin oilasi uchun xom g‘ishtdan uy qurgan. Bir ikki yil yil vaqt o‘tib xo‘jaliklar soni ko‘chib kelgan aholi hisobiga ko‘payib, ular o‘ttiz-qirqta xonadonga yetgan. Ko‘chib kelgan oilalar uchun davlat tomonidan uylar qurib berilgan hamda ularga hukumat imtiyoz sifatida 16 sotix tomorqa ajratib bergan va bu yerlarda makkajo‘xori yetishtirishgan”[2].

Keyingi respondentimiz Axmadjonov Turobjon (1946-yil 15-iyulda Andijonning Olimbek qishlog‘ida tug‘ilgan) bo‘lib, u otasi Mamatqulov Axmadjon (1904-1984) bilan taxminan 1956-1958 yillarda Izboskan rayoni Paxtabod xo‘jaligiga ko‘chib kelgan va ikki xonali uyga joylashgan. Taxminan 1952 yillarda tatar millatiga mansub odamlar ko‘chib kelganlar uchun xom g‘ishtdan uylar qurib bergan. Bu yerdagi mahalliy aholi tatarlardan uyni oqlashni, deraza va xonalarga bezak berishni o‘rgangan. G‘ayrat degan kolxoz tashkil etilib Irisov ismli rais bilan birgalikda 30-40 ta xonadon qurilgan va kolxozchilar bilan birga 1962 yilga qadar o‘zlashtirishgan. “Kolxozchilarga uydan tashqari tomorqa xam berilgan. Bu hudud botqoqlik bo‘lib, keng ko‘lamda irrigatsiya va meloratsiya ishlari xam olib borilgan. Bugungi kunda ham G‘ayrat mahallasi saqlanib qolingan. Respondent shuningdek quyidagi faktni ham ta’kidladi. Izboskan rayonida Engels nomli kolxoz xam bo‘lgan va ushbu hududda ko‘chib kelgan aholi uchun dastlab chayla shaklida 30-40 ta uy qurilgan. Aholining katta qismi Namangandan mavsumiy ishchi sifatida kelib paxta yetishtirishgan, keyin esa muqim joylashib qolishgan. 1960-yillarda Engels kolxozida ambulatoriya qurilgan. 1963 O‘rmonbekdan Chinobod yo‘lida joylashgan bo‘lgani uchun bu hududga xam shag‘al yotqizilgan, 1965 yilga kelib esa bu yo‘l asfalt bo‘lgan”[3].

Yana bir respondent Otavaliev Ergashali (1948-yil 5-dekabrda Namangan oblasti Chortoq rayoni Moskva kalxozida tug‘ilgan)ning bergan ma’lumotiga ko‘ra, u 1957-yili “Ulug‘nor” qo‘riq yerlaridagi Mingbuloq sovxozidagi 3-bo‘limga ko‘chib kelgan. Ular bilan birga yangi hududni o‘zlashtirish uchun taxminan 5-10 ta oila ham ko‘chib keldi. Aholi asosan Namangan oblasti Norin rayonining Jiydakapa qishlog‘idan, Yangiqo‘rg‘on rayonining Zarkent va Nanay hududlaridan bu hududni o‘zlashtirish uchun ko‘chirilgan. Otavaliev Ergashali faoliyatlari davomida traktorchi bo‘lib ishlagan.

Ta’kidlash joizki, faqatgina ko‘chirilgan xo‘jaliklardan tashkil qilingan kolxozlarga hukumat tomonidan imtiyozlar berilgan. Bunday imtiyozlardan biri bu – ular davlatga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini uch yil davomida topshirishdan ozod qilingan. Ammo, ba’zi hollarda respublika rahbariyati tomonidan istisno sifatida ayrim kolxozlarga agar ularda ko‘chirilgan xo‘jaliklar mavjud bo‘lsa ham ba’zi imtiyozlar berilgan. Masalan, Stalin rayonidagi “Xrushchev”, “Malenkov” va “Bulganin” kolxozlariga uch yil davomida sutdan tashqari boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini davlatga topshirishdan ham ozod qilingan edi.

“Namangan oblastida aholini yangi o‘zlashtirilgan yerlarda tashkil qilingan xo‘jaliklarga ko‘chirish Farg‘ona vodiysida olib borilgan ko‘chirish kampaniyasining uzviy qismi sifatida vodiy oblastlaridagi kabi umumiy muammolar mavjud edi. Masalan, ko‘chirilgan aholiga ijtimoiy yordam muammosi bilan bog‘liq jarayonni oblast misolida olib qaraydigan bo‘lsak, u quyidagicha xarakterga ega bo‘lgan. Ko‘chib kelgan xo‘jaliklarning 86,2 %i sigir va buzoq bilan ta’minlanmagan, 1953 yilda ko‘chib kelgan bitta ham xo‘jalik bu kabi ijtimoiy yordamni olmagan. Farg‘ona oblastida esa 31,3 % oila sigir va buzoq bilan ta’minlangan bo‘lib, ushbu natija ham respublika rahbariyati tomonidan salbiy fakt sifatida baholangan”[4].

**Muhokama**. Ko‘chirilgan xo‘jaliklarni yangi o‘zlashtirilgan yerlarda muqim yashab qolishi murakkab kechgan. Chunki, Farg‘ona vodiysining barcha oblastlarida sovet tashkilotlari tomonidan avval va’da qilinganidek, ularni uy-joy bilan ta’minlash yoki qurilgan uylarni ta’mirlash, shuningdek, yangi xo‘jaliklarga pul kredit hamda chorva mollari, birinchi navbatda, sigir berish muammolarining hal qilinmaganligi odamlarning yana o‘zlarining eski joylariga ketib qolishi holatlari Namangan oblastida ham kuzatilgan edi.

1955 yilda Namangan oblasti bo‘yicha ko‘chirilgan ho‘jaliklar uchun 274 ta uy qurilgan va 29 ta uy kapital ta’mirdan chiqarilgan. Ta’kidlash joizki, ko‘chirilgan oilalarning ko‘plarida sigir bo‘lgan, lekin ularning bir qismida sigirlari yo‘qligi haqida ma’lumot bo‘lmagan. Lekin, shunga qaramasdan, ko‘plab xo‘jaliklarga kolxozlar tomonidan sigir sotib olishlari uchun moddiy yordam ko‘rsatilgan. Namangan oblastida yangi tashkil qilingan kolxoz va sovxozlardagi xo‘jaliklarga kreditlar berilgan. Masalan, 1955 yilda oblastdagi yangi kolxozlarda uy qurilishi uchun 192 ta, sigir sotib olish uchun 35 ta oilalarga kredit berilgan, sovxozlarda esa kredit faqat uy qurilish uchun berilagan va bunday oilalar soni 2173 ta bo‘lgan. Shuningdek, xo‘jaliklarga qurilish uchun ham kredit berilgan bo‘lib, ularning soni oblastda yangi tashkil qilingan kolxoz va sovxozlar bo‘yicha 2400 tani tashkil qilgan edi.

Lekin, Chortoq, Uychi va Namangan rayonlaridagi ayrim kolxozlar qurilish ishlariga o‘z mablag‘larini yo‘naltirib, Selxozbank tomonidan berilgan kreditdan voz kechgan. Shuningdek, ko‘chib kelgan aholiga mahalliy qishloq xo‘jalik organlari va MTS (mashina-traktor parki)lar tomonidan ularni joylashtirish, ishni tashkillash masalalarida kerakli yordam ko‘rsatilmagan.

Namangan oblastida olib borilgan ko‘chirish jarayonidagi katta kamchiliklardan biri bu ko‘chirilgan aholiga madaniy tadbirlar, sanitar xizmat va h.k. uchun ajratilagan mablag‘ning byurokratik to‘siqlar va Oblselxozupravlenie (Oblast qishloq xo‘jaligi boshqarmasi) tashkilotining aybi natijasida to‘liq o‘zlashtirilmaganligi bo‘ldi.

SSSR hukumatining qarori asosida 1954–1958 yillarda O‘zbekiston SSR bo‘yicha 600 ming gektar yangi yerlar, ulardan 350 ming gektar yangi yerlarni kolxoz xo‘jaliklarini yangi sug‘oriladigan qo‘riq yerlarga ko‘chirish asosida o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Ushbu dasturni bajarish maqsadida butun respublika bo‘yicha 1954 yilda yangi ko‘chirilgan xo‘jaliklar uchun 8500 ta uy-joy qurilishi kerak edi. Mazkur vazifani bajarishga Toshkent shahrida “Uzpereselenstroy” trestining qurilish detallari ishlab chiqaradigan zavodi yo‘naltirilgan. Lekin, ushbu rejani bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilib, 1954 yilning 1-iyuliga qadar rejadagi 8500 ta uy o‘rniga atigi 1155 ta uy yangi ko‘chirilgan kolxozchilar uchun tayyor qilingan va ularning aksariyati 1953 yilda tugallanmagan qurilish hisobiga bo‘lgan edi. Buning asosiy sabablari sifatida qurilish materiallarining yetishmasligi emas, balki “Uzpereselenstroy” trestining tashkiliy masalalardagi xatosi va ayrim qurilish tashkilotlarining faoliyatsizligi natijasida ro‘y bergan.

**Xulosa.** O‘zbekiston SSR, shu jumladan, Farg‘ona vodiysida ko‘chirilgan aholini uy-joy bilan ta’minlashdagi sustkashlik va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun mamlakat hamda respublika hukumati tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, uy-joy qurilish ishlarini jadallashtirish maqsadida “Uzpereselenstroy” tresti va ko‘chirish boshqarmasining bir nechta rahbar xodimlari yangi tashkil qilingan kolxozlarga safarga jo‘natilgan. Shuningdek, O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministri o‘rinbosari imzosi bilan qurilishni jadallashtirish va planni bajarish uchun zarur bo‘lgan tadbirlarni tezda amalga oshirishni talab qilingan xat oblast qishloq xo‘jaligi boshqarmalariga jo‘natildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 1954 yilning noyabr oyiga kelib 2019 ta uy qurib topshirilgan va 1682 ta uy qurilish jarayonida bo‘lgan.

**ADABIYOTLAR**


1. Максакова Л. П. Миграция населения Республика Узбекистан. –Ташкент: Эльдинур, 2000. – 106 с.
2. Ҳусанов Н. Ўзбекистон комсомоли янги ерларни ўзлаштириш ҳаракати ташаббускори. – Тошкент: Ёш гвардиячи, 1989. – 50 б.
3. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 194-варақ.
4. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Улуғнор тумани (Мирзаахмедов) Ўзбекистон МФЙ. 2021 йил 18-июлъ.
5. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Олимбек қишлоғи Файзобод МФЙ. 2021 йил17-июлъ.
6. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 24-варақ.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**УДК: 93/94**

***Гульназ АКИМНИЯЗОВА***,
*(PhD),Старший преподаватель исторического факультета Нукусского государственного désinstitута имени Ажинияза*
*E-mail:g_akimniyazova@mail.ru*

*По отзыву доцента Г. Сейдаметова(PhD)*

## REFLECTION OF TRADE PRACTICES AND MERCHANTS IN KARAKALPAK FOLKLORE

Annotation
This article is devoted to the reflection of issues of trade and merchants in the folklore of the Karakalpaks. The author examines how these important aspects of the economic life of a people penetrate into their folk tales, legends and songs, forming a special world of symbols and images. The article analyzes the images of traders that are found in Karakalpak folklore, as well as their role and significance in the context of the cultural values of this people. Particular attention is paid to the motives of trade, which permeate the plots of fairy tales, proverbs and sayings, reflecting not only economic aspects, but also the spiritual aspirations and worldview of the Karakalpaks. Through the study of Karakalpak folklore, the author seeks to reveal the deep roots of trade and merchants in the culture of the people, to show their influence on the formation of consciousness and the transfer of values from generation to generation.
**Key words:** oral folk art, trade relations, Karakalpak bazaar, merchant.

## ОТРАЖЕНИЕ ТОРГОВЫХ ПРАКТИК И КУПЕЧЕСТВА В КАРАКАЛПАКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Аннотация
Данная статья посвящена отражению вопросов торговли и купечества в фольклоре каракалпаков. Автор рассматривает, как эти важные аспекты экономической жизни народа проникают в его народные сказания, легенды и песни, формируя особый мир символов и образов. В статье анализируются образы торговцев, которые встречаются в каракалпакском фольклоре, а также их роль и значение в контексте культурных ценностей этого народа. Особое внимание уделяется мотивам торговли, которые пронизывают сюжеты сказок, пословиц и поговорок, отражая не только экономические аспекты, но и духовные устремления и мировоззрение каракалпаков. Через изучение фольклора каракалпаков автор стремится раскрыть глубинные корни торговли и купечества в культуре народа, показать их влияние на формирование сознания и передачу ценностей из поколения в поколение.
**Ключевые слова:** устное народное творчество, торговые отношения, каракалпакский базар, купец.

## SAVDO AMALIYOTI VA SAVDOGARLARNING QORAQALPOQ FOLKLORIDA AKS ETISHI

Annotatsiya
Ushbu maqola qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida savdo va savdogarlar masalalarini aks ettirishga bag‘ishlangan. Muallif xalq xo‘jalik hayotining bu muhim qirralari uning xalq ertaklari, rivoyat va qo‘shiqlariga qanday kirib borishini, o‘ziga xos timsol va obrazlar olamini tashkil etishini tadqiq etadi. Maqolada qoraqalpoq folklorida uchraydigan savdogarlar obrazlari hamda ularning bu xalqning madaniy qadriyatlari kontekstidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ertak, maqol va matallar syujetlariga singib ketgan, nafaqat iqtisodiy jihatlar, balki qoraqalpoqlarning ma’naviy intilishlari, dunyoqarashini ham aks ettiruvchi savdo motivlariga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodini o‘rganish orqali xalq madaniyatidagi savdo va savdogarlarning chuqur ildizlarini ochib berishga, ularning ongini shakllantirish va qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishiga ta’sirini ko‘rsatishga intiladi.
**Kalit so‘zlar:** og‘zaki xalq ijodiyoti, savdo aloqalari, qoraqalpoq bozori, savdogar.

Торговля, как один из важнейших аспектов экономической жизни, всегда играла значительную роль в культуре и обычаях различных народов. В контексте каракалпакского фольклора торговля не только является способом обмена материальными ценностями, но и отражает глубокие аспекты жизни и мировоззрения народа.

Базар, как многогранное явление, нашел отражение в огромном пласте каракалпакского устного народного творчества. В сказках, былинах, эпических произведениях, пословицах и поговорках, со свойственным каракалпакскому эпическому жанру колоритом описаны торговые места, торговая деятельность, купцы.

В каракалпакском фольклоре (преданиях, легендах, сказках, пословицах и поговорках и пр.), возникшем в глубокой древности, помимо характерных персонажей и образов – правителей, бедняков, богатырей, мудрых женщин, представлена социальная группа общества, связанная с торговыми делами – купечество *саўдагер.* Особенно ярко иллюстрируется деятельность разного рода купцов, понятия, связанные с торговлей, в пословицах и поговорках каракалпаков.

В устном народном творчестве бытовали различные представления о торговцах, но наиболее распространенным в анализируемых нами произведениях, является сложившийся негативный образ. В произведениях фольклора, *саўдагер* выведен как обманщик и плут, алчный и корыстный человек. Купец, как положительный герой встречается, но значительно реже. Произведения, в которых торговцы выступают в отрицательном образе, это сказки, пословицы, поговорки, эпические произведения,

положительно же *саўдагер* может характеризоваться в легендах, исторических рассказах.

В сказке «*Тасбақаға айланған саўдагер*» (Купец, превратившийся в черепаху) нашли отражение такие черты торговца, как жадность, мошенничество. В сказке повествуется о скупом торговце, который невзирая на то, что он был состоятелен, для приумножения своего богатства прибегал к обману и жульничеству. Обыденным делом для него был обвес покупателей. Люди, уставшие от обмана со стороны торговца, обратились с жалобой к *казий. Казий* решил сначала сам во всем удостовериться. Переодевшись в одежду нищего, он оправляется в лавку торговца, где покупает немного соли. Затем он отправляется в другую лавку, чтобы проверить, не обвесил ли его *саўдагер*. Оказалось, что вместо ста мискалей соли, торговец отвесил ему 80, обвесив на 20 мискалей. Разозленный казий возвращается в лавку торговца и проклинает его словами «тастың астында қалғыр» (букв. пусть тебя придавит камнем). Под камнем в данном случае подразумеваются весовые гири. Проклятие *казий* возымело действие и *саўдагер* превращается в черепаху[1]. Здесь панцирь черепахи образно представляется камнем.

Подобные характеристики встречаются в подавляющем большинстве фольклорных образов купечества. В дидактической сказке «*Пысық саўдагер*» (Ловкий купец) *саўдагер* предстает настолько алчным и жадным, что прячет свое состояние даже от своих родных. Однажды он спрятал свои богатства среди вороха мусора, который его дочь во время уборки помещений сжигает, не догадываясь о его содержимом[2]. Таким образом, купца настигла расплата за его алчность, он лишился всех своих богатств.

Хитрость и жадность купца в каракалпакском фольклоре, желание как можно выгоднее продать товар, обмануть других мы можем видеть в сказке «*Алданып қалған төрт саўдагер*»[3] (Четверо обманутых купцов). Суть ее заключается в следующем. Четверо торговцев, перехитрившие молодого человека, в итоге оказались обманутыми сами отцом этого юноши. Старик перехитрил их, продав им за баснословную цену обычного осла, выдаваемого за волшебного, извлекающего золотые монеты.

Готовность купца продать любой ценой товар, его алчность нашли отражение в эпосе «Жаханша»:

| | |
|---|---|
| Саўдагерден шықпас ҳасла қәсийет,<br>Халықты алдаўың бурыннан қалған[4] | У торговца совершенно нет совести,<br>Обманывать народ привык издавна. |

Меркантильность торговцев нашла отражение и в народных пословицах и поговорках:

*«Саўдагер арын, отирикши жанын сатар»[5]* («Купец совесть продаст, лгун душу продаст»); «*Саўдагер алдамаса, сата алмайды»[5]* («Если купец не обманет – не продаст»); «*Алақанға түкирген атпай қоймас* («Тот, кто приготовился к драке, обязательно ввяжется в нее»); *«Саўдагер сатпай қоймас[5]* ( «Желающий продать товар купец, не отпустит, пока не добьется своего»); «*Саўдагер есапқа байыйды»* («Купец считая, богатеет»)[5].

Как мы уже упоминали в начале параграфа, не всегда купец изображен в негативном свете. В приведенных ниже примерах из устного народного творчества, *саўдагер* представлен положительными качествами, такими как находчивость, трудолюбие, верность. Положительно характеризуется персонаж сказки «*Опа саўдагер*»[14] («Удачливый купец»). Главный герой предстает удачливым человеком, которому часто везет. Положительные черты в сказке усилены тем, что торговец показан к тому же верным мужем и хорошим отцом.

Образ купца встречается в отдельных легендах каракалпаков. Одной из них является легенда о Джумарт Кассабе. Речь в ней идет о благочестивом купце, который имел много скота, и раздавал бесплатно мясо беднякам. Исследователь Ю.В. Кнорозов, анализируя культ святых в Каракалпакстане, подробно останавливается на таких персонажах как Шамун Наби и Джумарт Кассаб. Джумарт-Кассаб – почитаемый объект комплекса Миздахкан, представляющий собой бугор. Ю.В. Кнорозов считает, что прежде бугор использовали для предотвращения падежа скота, вокруг него прогоняли скот. В одной из своих последних работ Ю.В. Кнорозов дает подробное описание зикра, связанного с культовым сооружением Мазлумхан-Сулу, расположенным недалеко от Джумарт-Кассаб[6].

В качестве примера положительного образа купца можно назвать пословицу «*Саўдагер бажыдан қашпас*»[5] («Купец не боится пошлин»), что характеризует *саўдагер* как человека порядочного, исполнительного.

В народных произведениях отразился не только образ купца, но и торговля, торговые отношения у каракалпаков. Значительный пласт составляют произведения, где иллюстрируются торговля, торговые отношения, специализация базаров, специализация торговцев.

В предании «*Патша ҳәм нанбай*» [1], речь идет о торговце хлебом, который, увидев хана со свитой, завидуя ему, подумал: «Был бы я на месте хана, не нужно было бы заботиться о том, где взять денег на еду и одежду. Все, что пожелает душа, под рукой; все бы беспрекословно подчинялись моим приказам». В то же время, патша, повстречавший на дороге продавца хлеба, мысленно сказал: «Хорошо бы оказаться на месте этого продавца хлеба. Груз ответственности пал бы с плеч, весь свой заработок делил бы со своей семьей, жил бы спокойной жизнью». Мораль притчи заключается в том, что, несмотря на то, что продавец хлеба беден, ему завидует правитель, так как тот занят только непосредственно своим делом, не несет груза ответственности за весь народ.

Отразился в пословицах такой персонаж каракалпакского базара, как *дәлдалшы*:

| | |
|---|---|
| «Тышқақ ылақ паданы бүлдирер»<br>«Дәлдалшы көбейсе, қаланы бүлдирер [2]» | («Больная овца все стадо запачкает»); («Дәлдалшы станет много, город испортят). |

Еще одна из народных пословиц несет такую же нагрузку: «*Қассап танысына сүйек берер [3]»* («Продавец мяса знакомым кости кладет»).

| | |
|---|---|
| *«Байға шабарман болма»,*<br>*«Бaққалға сатарман болма [4]».* | («Не следуй за богачом, все равно не будешь ему ровней»);<br>«Избегай баккал, непременно обведет вокруг пальца») |

Существует выражение: «*Көзиңе Гүрленниң базарын көрсетейин бе?*» («Тебе что, показать гурленский базар?») Это выражение появилось в связи со следующим событием. Когда Хивинский хан в XIX веке подчинил себе Жанадарьинских каракалпаков, тем из них, кто без сопротивления признал власть хивинского хана, было обещано освобождение от налогов на пять лет. Однако через два года, хан нарушает свое обещание и отправляет своих сборщиков налогов к тем каракалпакам, которые расположились в местности *Майлы шеңгел*, находящейся близ Гурлена. Каракалпаки, возмущенные произволом хана, нарушением данного им слова, оказали сопротивление ханскому войску, направленному для сбора налогов. Войско хана, оказавшееся в численном

меньшинстве, было разгромлено каракалпаками и бежало в Гурлен, где рассредоточилось по базару. Столкновение произошло в базарный день. Ханские воины, бежавшие на базар, прятались среди торговцев. Преследовавшие их каракалпаки двинулись на базар. В результате все на базаре было разгромлено. Это событие надолго осталось в памяти жителей Гурлена. С тех пор, получило распространение это историческое выражение «Көзиңе Гүрленниң базарын көрсетейин бе?» [5], которое произносят в тех случаях, когда хотят проучить зазнавшегося человека.

Отношение каракалпаков к базару, торговле мы видим в ряде пословиц и поговорок: «*Әкең бермегенди базар берер[6]»* (То, что не найдешь у отца, есть на базаре); «*Пулсыз базарға барған, кепинсиз мазарға барғанға тең [7]»* («Без денег пойти на базар, все равно, что быть захороненным без савана); «*Саўдада дослық болмас»* ( «В торговле нет друзей»); «*Базар – бардики»* («Базар для тех, у кого есть деньги)); «*Базар – барға татыў, жоққа ашыў [8]»* («Базар любит имущих, не любит бедных»); «*Базарға барсаң, байсаң, пул санағанда гедейсен[9]* («Идешь на базар – богачом, возвращаешься нищим»), «*Базарға мал сататуғын болсаң, ҳәрлениң уясын тутетесең, сонда қарыйдар ҳәррредей быжынайды[9]*. В последнем случае примета, которая переводится: «Перед тем, как отправиться на базар, нужно подпалить осиное гнездо, тогда от покупателей не будет отбоя».

В эпических произведениях фигурируют наименования специализированных базаров, особенности организации торговли. В эпосе «Едиге» имеются строки, где говорится о базаре у ногайцев:

| | |
|---|---|
| Ҳәр шәршемби күнинде,<br>Ноғайдың болар базары[10] | Каждую среду<br>У ногайцев бывает базар |
| Или еще: | |
| Шәршемби күн қызғанда,<br>Ноғайдың уллы базары[10] | В разгар среды,<br>У ногайцев большой базар |

Упоминания этнонима «Ноғай» в каракалпакском эпосе неслучайно. В конце XIV – начале XV веков на основе распавшейся Золотой Орды образовывается насколько государств, в том числе Ногайское (Мангитское) ханство во главе с Едиге. Его владения охватывают пространство от Волги до Камы и берега Урала (Яика). Со второй половины XV и до второй половины XVI веков каракалпаки находились в составе Ногайского ханства. Этот пласт нашел отражение в каракалпакских дастанах.

В эпосе «Шарияр» фигурируют наименования специализированных базаров – «шар базар», а также «қул базар» – невольничий рынок:

| | |
|---|---|
| Шар базарға апарып,<br>Бир ҳайўанға сат деймен[11] | Отвези на шар базар,<br>Обменяй на какую-нибудь скотину |
| Билесеңбе туўысқаным ағажан,<br>Қул базар оң жеңимди буўғайсаң | Знаешь ли ты, братец мой родной,<br>На невольничьем рынке |

Невольничий рынок в Хивинском ханстве существовал вплоть до завоевания его Российской империей в 1873 году. Доставлялись рабы на невольничьи базары Хивы туркменами чрез Мерв, а также через Гургень. (Аулы, населенные племенем иомудов, отделения Карачука, выбравшие себе для зимовок, главным образом, местность, находящуюся между текущей по персидской территории рекою Гурген и пограничной рекою Атреком – Г.А.). Помимо базаров Хивы, Куня-Ургенча, Ханки, рабов продавали на базарах каракалпакских городов – Кунграде, Чимбае, Ходжейли, Шурахане, Шейхаббаз вали. По сведениям Хорошхина, «в один базар пригоняли за раз по 200 и более рабов. Продажа при этом шла как в одиночку, так и партиями»[12].

Процесс отправки караванов с товаром, красочно описан в эпическом произведении «Қоблан»:

| | |
|---|---|
| Жаўдырласып карўанлар,<br>Ақшаханның елинен,<br>Жүк толтырып түйеге,<br>Шығып карўанлар жөнеди,<br>Жүрер жолын биледи,<br>Саўдагер болған карўанлар[16] | Идут караваны,<br>В страну, где правит Акшахан,<br>Навьючив товаром верблюдов,<br>Отправился караван,<br>По знакомому пути,<br>Купеческие караваны |

Эти материалы наиболее полно отражают представления, бытовавшие в фольклоре каракалпаков, о купцах, торговле в целом, местах торговли.

В заключении можно отметить, что торговля и купечество играют значительную роль в каракалпакском фольклоре, отражая не только экономические аспекты, но и глубокие ценности и обычаи этого народа. Через образы торговцев, барышников и ремесленников передается не только история торговли, но и мудрость, духовность и коллективное сознание каракалпаков.

Таким образом, изучение торговли и купечества в каракалпакском фольклоре не только раскрывает уникальные аспекты этой культуры, но и помогает нам увидеть глубинные связи между экономикой, духовностью и традициями этого народа.

**ЛИТЕРАТУРА**


1. Рәўийятлар // Қарақалпақ фольклоры. Т. 81. Нөкис, 2014. – С. 267.
2. Нақыл-мақаллар // Қарақалпақ фольклоры. 88-т. – Нөкис, 2015. – С. 162.
3. Там же. – С. 179.
4. Там же. – С. 179.
5. Аңызлар // Қарақалпақ фольклоры. 79-т. – Нөкис, 2014. – С. 130.
6. Мифлер ҳәм мифлескен әпсаналар // Қарақалпақ фольклоры. 77-т. – Нөкис, 2014. – С. 32.
7. Дидактикалық ертеклер // Қарақалпақ фольклоры. 71-т. – Нөкис, 2014. – С. 389-390.
8. Тымсал ертеклер // Қарақалпақ фольклоры. 75-т. – Нөкис, 2014. – С. 458.
9. Жаханша // Қарақалпақ фольклоры. 43-т. – Нөкис, 2012. – С. 63.
10. Нақыл-мақаллар // Қарақалпақ фольклоры. 88-т. – Нөкис, 2015. – С. 180.
11. Кнорозов Ю.В. Мазар Шамун наби (некоторые пережитки домусульманских верований у народов Хорезмского оазиса) // СЭ. 1949. №2. – С.88.
12. Абдиев А. Қарақалпақ ырымлары. – Нөкис, 2014. – С. 25.
13. Едиге // Қарақалпақ фольклоры. 12-т. – Тошкент, 2009. – С. 321
14. Шарияр // Қарақалпақ фольклоры. 11-т. – Тошкент, 2009. – С. 251.
15. Хорошхин А.П. Рабы-персияне в Хивинском ханстве // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П. Хорошхина. – СПб., 1876. – С. 488.
16. Қоблан // Қарақалпақ фольклоры. 13-т. – Тошкент, 2009. – С. 462.
17. Турмыслық ертеклер // Қарақалпақ фольклоры. 70-т. – Нөкис, 2014. – С. 304-310.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 94(575.171):001

***Nazokat AHMEDOVA,***
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*
*E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru*

*UrDU dotsenti, M.Matyaqubova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF MUHAMMAD YUSUF BAYANI IN KHIVA LITERARY ENVIRONMENT

Annotation

The literary environment created during the Khiva Khanate brought great talents to maturity. Muhammad Yusuf Bayani, a poet, historian, scientist and translator in the khan's court, is a manifestation of the literary environment created under the leadership of Muhammad Rahimkhan Soni. One devan written by the poet and two works on the history of Khorezm and his translations are considered as one of the sources that illuminate the literary environment of Khiva. Muhammad Yusuf Bayani collected the works of historian Shermuhammad Munis and Muhammad Reza Ogahi in one volume, shortened them and rewrote them in simple language. The work "Shajarai Khorezmshahi" written by the author is not only a historical but also a work rich in literary scenes. Through this work you can learn about the customs and ceremonies of the people of Khorezm. This article compares the importance of Bayani's work and his work "Shajarai Khorazmshahi".

**Key words:** Muhammad Yusuf Bayani, literary environment, Shajarai Khorezmshahi, Khanate of Khiva.

## РОЛЬ МУХАММАДА ЮСУФА БАЯНИ В ХИВИНСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

Литературная среда, созданная во времена Хивинского ханства, способствовала зрелости великих талантов. Мухаммад Юсуф Баяни – поэт, историк, учёный и переводчик при ханском дворе – является проявлением литературной среды, созданной под руководством Мухаммада Рахимхана Сони. Один деван, написанный поэтом, и два произведения по истории Хорезма и его переводы рассматриваются как один из источников, освещающих литературную среду Хивы. Мухаммад Юсуф Баяни собрал труды историка Шермухаммада Муниса и Мухаммада Резы Огахи в один том, сократил их и переписал простым языком. Написанное автором произведение «Шаджарай Хорезмшахи» является не только историческим, но и богатым литературными сюжетами произведением. Благодаря этому произведению можно узнать об обычаях и обрядах народа Хорезма. В данной статье сравнивается творчество Баяни и значение его произведения «Шаджарай Хорезмшахи».

**Ключевые слова:** Мухаммад Юсуф Баяни, литературная среда, Шаджарай Хорезмшахи, Хивинское ханство.

## MUHAMMAD YUSUF BAYONIYNING XIVA ADABIY MUHITIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit ulkan iste’dod sohiblarini kamolga yetkazdi. Muhammad Rahimxon Soniy rahnamoligida yuzaga kelgan adabiy muhitning namoyondasi, xon saroyidagi shoir, tarixnavis olim va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoniy hisoblanadi. Shoir yozgan bir devon va Xorazm tarixiga oid ikki asar va uning tarjimalari Xiva adabiy muhitini yorituvchi manbalardan biri sanaladi. Muhammad Yusuf Bayoniy tarixchi Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy asarlarini bir jildga to‘plab, qisqartirib, sodda til bilan qayta yozib chiqqan. Muallif yozgan “Shajarai Xorazmshohiy” asari nafaqat tarixiy balki, adabiy lavhalarga boy asardir.Ushbu asar orqali Xorazm xalqining urf-odat va marosimlarini bilib olish mumkin. Bu maqolada Bayoniy ijodi va uning “Shajarai Xorazmshohiy” asari ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Muhammad Yusuf Bayoniy, adabiy muhit, Shajarai Xorazmshohiy, Xiva xonligi.

**Kirish.** Xiva xonligida yuzaga kelgan XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi adabiy muhit ko‘pgina olimlarni o‘z atrofida birlashtirdi. Muhammad Rahimxon Soniy rahnamoligida yuzaga kelgan adabiy muhitning yirik vakillaridan biri, xon saroyidagi shoir hamda tarixnavis olim Muhammad Yusuf Bayoniydir. Bayoniy o‘z davrining buyuk shoiri, musiqashunosi, xattot va tarjimoni, mohir tarixchisi bo‘lib, shoirning kelib chiqishi asli Xiva Qo‘ng‘irotlar sulolasining yirik vakili bo‘lgan Eltuzarxon avlodiga borib taqaladi. Uning bir devoni, Xorazm tarixiga oid ikki asari va tarjimalari bugunga qadar saqlangan. U shoir sifatida mumtoz she’riyatning deyarli hamma janrlarida ijod qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, Navoiy, Munis, Ogahiy ijod an’analarini davom ettirgan, hamda Avaz O‘tar bilan ijodiy hamkorlikda ham bo‘lgan. Bayoniy Xiva adabiy muhitining yirik vakillaridan biri hisoblanadi, shoirning – adabiy taxallusi “Bayoniy” bo‘lib, bu haqida xon saroyi shoirlari nazoratchisi bo‘lgan Bobojon Tarroh-Xodim o‘zining estaliklarida shunday yozadi: “uning adabiy nomi Bayoniy edi. Bu nomni o‘zi tanlab, Muhammad Rahimxon ikkinchiga taqdim qilg‘on vaqtinda, xon buni qabul qilg‘on. Muhammad Yusufbek Xeva qal’asining orqa tarafidagi Qiyot qishlog‘inda tug‘ilg‘on. Uning ota-bobolari Xorazmda podsho bo‘lg‘onlari uchun ham uni podshozodalardan oilasidan chiqqan deyish mumkin” [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** XIX asr II yarmi va XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan zamonasining zabardast tarixnavis olimi, ajoyib shoiri va mohir tarjimoni bo‘lgan, Bayoniyning ijodiy faoliyati haqida, hamda XIX asrning II yarmi – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti, uning namoyandalarining ijodi haqida shu davrda yaratilgan deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda hamda, Xorazm tarixini yorituvchi tarixiy-ilmiy asarlarda shoirning hayoti va ijodi bilan bog‘liq fikr va mulohazalar, qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Jumladan 1962-yilda esa S.G‘aniyeva va H.Muxtorova Bayoniy ijodini ommalashtirish ishlarini yo‘lga

qo‘yadilar va shoirning she’rlarini bir yerga jamlab “G‘azallar” nomi bilan e’lon qiladilar, 1967-yilda Y.Yusupovning “Xorazm shoirlari” haqida kitobi, 1976-yilda adabiyotshunos J.Jumaboyevaning “Bayoniy ijodining ayrim xususiyatlari” nomli maqolasidan ham Bayoniy haqidagi ma’lumotlarni bilib olish mumkin. Shoir ijodini o‘rganish 90-yillardan boshlanadi. Jumladan adabiyotshunos Iqboloy Adizova Bayoniy hayoti va ijodi haqida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Iqboloy Adizova say-harakatlari bilan “Shajarai Xorazmshohiyning” qisqartirilgan nashri e’lon qilindi. Mustaqillik yillarida shoir ijodini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tariladi. Ushbu maqolada Bayoniy va uning “Shajarai Xorazmshohiy” asarining Xiva adabiy muhitidagi o‘rni qiyosiy tahlil qilindi va umumiy xulosalar berildi.

**Tahlil va natijalar.** Bayoniy tarixnavis olim sifatida “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli tarixiy asarlarini yozgan, tarjimon sifatida esa qator tarixiy asarlarni arabcha va forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilgan, shoir sifatida esa mukammal devon ham tuzgan. Bundan ko‘rinadiki, Bayoniy serqirra ijodkor, olim hisoblangan. U faqat tarixiy asarlar yozish bilan cheklanib qolmay, u zamonasining ko‘zga ko‘ringan shoirlaridan biri sifatida devon ham tuzgan. Munis va Ogahiy an’anasini davom ettirib, anchagina asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Bayoniy Darvesh Ahmadning “Sahoyib ul ax-bor”, Ali ibn Muhammad al-Xivariyning “Shayboniynoma”, Abu Ja’far ibn Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarlarini tarjima qilgan [7].

Shoir va tarixchi olim, tarjimon va xattot, tibbiyot ilmining bilimdoni, qomusiy bilim egasi bo‘lgan Muhammad Yusuf Bayoniy XIX asrning II yarmida Xorazm adabiy, ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan va kamol topgan siymo sifatida qaralgan, uning ijodini o‘rganishda asosiy birlamchi manbalar eng avvalo uning asarlari hisoblanadi, shu bilan bir qatorda bir she’riy devoni, hamda “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” tarixiy kitoblari shular jumlasidandir. Ijod namunalari kitobat qilingan bayoz-majmualarda, 1905-1923-yillardagi ijodiy namunalari esa o‘sha davr vaqtli matbuotlarida ham uchraydi. Shuningdek, shoir haqidagi to‘liq ma’lumotlar Xiva adabiy muhitiga oid birlamchi manbalar - Muhammmmad Rizo Ogahiyning “Shohid-ul iqbol”, Ahmad Tabibiyning “Majmuat-ush shuaro Feruzshohiy”, Hasanmurod Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai holi” kabi asarlarida ham u haqida ma’lumotlar uchraydi. Ogahiy, Tabibiy va Laffasiylar shoir haqida ma’lumotlar berar ekan, uni nihoyatda ulug‘lab, shaxs va shoir sifatida yuksak baholaydilar.

“Yusufbek Bayoniy ilmi g‘oyat yuksak edi. Eski maktabni bitirgach, shu ilmdan ham ancha tabiblik ilmiga xavaskor bo‘lib, shu ilmdan ham xabardor bo‘lg‘on, keyin Xorazm olimlari bilan aloqa qila boshlab, madrasa ta’limini olib ilmi oshib ketgan. Shu qadar ilmli ediki, xonga bu gap ma’lum bo‘lib, forsiy kitoblarni turkiyga tarjima qildirdi. Shu ilmi orqasidan shoir bo‘ldi, shoir bo‘lganda ham birinchi surat shoir bo‘ldi” [1]. 1940-yillarda Xiva muzeyida xizmat qilgan Hasanmurod qori Laffasiy o‘z davrida Xiva xoni saroyida ijod qilgan shoirlar haqida ma’lumotlarni to‘plagan va o‘zining “Tazkirai shuaro” asarida Bayoniy haqida shunday degan: -“xonning farmoni ila u forsiydan ko‘plab kitobalarni turkiyga o‘girdi, Bayoniy tanbur, g‘ijjakka ham ma’rifatlig‘ bo‘lib, shaxmatda ham juda tez fahmlig‘ usto bo‘ladur. Ammo Bayoniy xushxatlig‘ ilmida ham juda ma’rifatlig‘ bo‘lganidek, xatti kufiy, xatti suls, xatti shikast, xatti rayhoniy, xatti injil, xatti hindiyga ham ancha ma’lumotli bo‘lib, o‘qib yoza bilur erdi. Bayoniy ajab xushsuxan, to‘ti gufron bo‘lib, g‘arib dilnovoz bo‘lib do‘stlariga hama vaqtlar bemalollig‘ bilan jigarlariga mahram qilib, o‘ziga vobastaiy shaydo qilur erdi” [3]. Xon saroyidagi shoirlardan biri bo‘lgan Bobojon Tarroh - Xodim o‘zining “Xorazm navozandalari” asarida Bayoniy to‘g‘risida shunday fikrlarni bildiradi: “Yusufbek mansabdor bo‘lg‘on emas, qo‘lining kuchi bilan kun kechirgan, xolos. U 40 yoshlaridan boshlab shoirlik bilan shug‘ullana boshlagan bo‘lsa, ehtimol. Ilmli odam bo‘lgani uchun ham Muhammad Rahimxon II she’riga havaskor bo‘lishi bilan birga Ogahiy, Komil Xorazmiyning she’riy kitoblarini o‘qib ko‘rib, shulardan qofiya, uzunlarni olib, ustodsiz shoir bo‘lgvon. Bayoniy olti yarim maqom sozni to‘liq bilar edi. Xeva olimlari, Yusufbekning joyiga borib soz qildirib kelamiz deb, uning uyiga kelib, ziyofat eb, soz qilib ketar edilar. Tanbur, g‘ijjak, daryo (doira), bulomon, dutor kabi soz asboblari to‘liq bor edi. O‘zi cherta olar, lekin ayta bilmas edi. U ko‘rinishidan uzun bo‘yli, xushbichim, sariq soqol, kambag‘al odam edi. Shunday bo‘lsa ham har bir kuni mehmonsiz o‘tmas edi. Kiyimlarini ozoda tutar, so‘zlagan vaqtinda ovozi goh yo‘g‘on, goh ingichka tortar edi. Xalq orasida, ovozingiz Yusufbeknikiga o‘xshar ekan, degan gap yurar edi. O‘zi o‘ta ketgan saxiy, suhbati ma’noli odam bo‘lib, so‘zlashib o‘tirganda yonidan ketmasam, derding kishi. Odatlari ham yaxshi, shirinso‘z kishi edi” [1].

Bayoniy “sohir” ijodkor sifatida ta’riflanadi, u shu qobiliyati sababli xalqning, ijodkor zamondoshlarining, hatto Xiva xonining e’tiboriga tushgan shaxs. Shoh va shoir Feruzning istagi va taklifi bilan Bayoniy umrining katta qismi xonning saroyda, o‘z hayotini ijodga bag‘ishlab o‘tkazgan. Ammo saroyda u biror yuqori lavozimda bo‘lmagan ekanligi shu davrga oid manbalardan ma’lum. Lekin, akademik M.Yo‘ldoshev uni “Xeva xoni saroyida devon bo‘lib ishlagan” ligini e’tirof etadi. U Xorazm shajaraviy tarixnavisligi davomchisi, yanada aniqrog‘i, Xorazm tarixi va adabiyotchiligiga oid voqealiklarning xotiranavisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bizga ma’lumki, Xiva xonligi adabiy muhiti ma’rifatparvar xon Muhammad Rahimxon II davrida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz (1884-1910) xizmatlari bilan saroyda adabiy muhit maydonga keltirildi, salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon, uni yaqindan bilgan ko‘pchilik tadqiqotchilar fikricha, O‘rta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi bo‘lgan. Shoir va tarixchi Bayoniy asarlaridan shu adabiy muhit haqida hamda shu adabiy muhitning asoschisi shoh va shoir Feruz haqida kengroq va ko‘proq ma’lumot olamiz. Bayoniy Feruzning she'riyatga bo‘lgan muhabbatini “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida shunday tasvirlaydi: “Xon hazratlari she'rga ko‘p zavq paydo qilib erdilar. O‘zlari ham burundin “Feruz” taxallusi bilan mutaxallis bo‘lub, she'r aytur erdilar. So‘ngroq she'rga ko‘proq haris bo‘ldilar. Har kishining she'r aytmoqqa sahl qobiliyati bo‘lsa, nav'i she'rlarini aytib dargohi oliyga olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam-besh qirqqa yovuq bordi” [4].

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida yana shuni qayd qilib o‘tganki: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog‘kim, Yusufxoji ohund va Ismoilxo‘ja ohund va Xudoybergan ohund va olimu ulum ma’qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig‘a haftada ikki martaba hozir bo‘lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur erdi va sipohiylar va to‘ralarni ham kitobxonliq etarga targ‘ib erdilar. Bas, hamma kitobxon bo‘ldilar” [4].

Muallif o‘zining “Shajarai Xorazmshohiy” tarixiy-memuar asari bilan Munis va Ogahiy boshlagan ishni davom ettirgan. Munis va Ogahiyning asarlari hashamdor, qiyin til bilan yozilgan bo‘lib, ularda arabcha va forscha so‘zlar va og‘ir iboralar ko‘p uchraydi. Bayoniy esa ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida Munis va Ogahiy asarlarini bir jildga to‘plab, qisqartirib, sodda til bilan qayta

yozib chiqishni maqsad qilgan edi. Bu haqida Yahyo G'ulomov "Asfandiyor Bayoniyga Munis va Ogahiy asarlarining tilini soddalashtirishni, ularni xalq tushuna oladigan qilishni topshirgan[5]. Muallif esa bu vazifani katta mahorat bilan bajargan va asarlarning mazmuniga xilof yetkazmay turib, ularni soddalashtirgan va maqsadiga erishgan."Shajarai Xorazmshohiy" asarida Yofasdan Qo'ng'irot urug'igacha, Abulg'oziy Bahodirxondan Asfandiyorxongacha o'tgan xonlar hukmronligi davri tarixi yoritilgan. Asarning yozilish tarixi va mazmuni haqida Yahyo G'ulomov quyidagicha yozgan: "Xonlikning 1846-yildan to 1912-yilgacha tarixini Bayoniy shaxsan o'zi to'plagan materiallar asosida yozgan. General Kaufmanning 1873-yilda Xivadagi ichki ixtiloflarini 1912-1913 yillargacha bo'lgan, keyingi Rossiya - Xiva munosabatlarini Bayoniy to'la - to'kis va sodda qilib bayon etadi. Bayoniy o'z asarini 1911-yilda boshlab, 1914-yilda tamomladi va uni "Shajarai Xorazmshohiy" deb atadi" "Shajarai Xorazmshohiy" dagi voqealar haqiqatlar asnosida bo'lib, unda keltirilgan har bir ma'lumot avvalo ishonchli faktlarga asoslanib yozilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, tariximiz 5 tadqiqiga bag'ishlangan asarlarda, ko'pincha, "Shajarayi Xorazmshohiy"ga murojaat etiladi.

Bayoniy asarlaridagi ma'lumotlar ishonchli ekaniga hatto muallifning o'z kafolati bor: "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi"[6]. Bu so'zlar Bayoniyning tarixnavislikdagi haqiqatga sadoqat mezoniga rioya etganini isboti sanaladi. Uning asarlari shu jihati bilan ham qimmatbahodir. "Xorazm tarixi" asari "Shajarai Xorazmshohiy" dagi voqealarni to'ldirgan. Asarning avvalgi boblari ma'no jihatdan "Shajarai Xorazmshohiy"ga o'xshab ketadi. Lekin yozilish uslubi bilangina undan farq qiladi. Shuni aytish mumkinki, Bayoniy xonlar tarixini bitgan. Uning asari faqat tarixiy jihatdan emas, balki badiiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki asar juda sodda, xalqona tilda bitilgan, yozishda muallif tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlardan qochgan. Yana shuni aytib o'tish lozimki, "Shajarayi Xorazmshohiy" XIX asr Xorazm adabiy muhitini aks ettiruvchi asosiy manbalar sirasidandir. Uning tazkira tipidagi adabiy manbalardan farqi va afzalligi shundaki, u adabiy muhit manzaralari, jarayonlarini, mafkuraviy hayotni tirikligicha, harakatda, ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan munosabatda tasvirlaydi. Solnoma sahifalarida shu paytgacha feodal – saroy adabiyoti deb bir chetga surib qo'yilganligini, shu bilan bir qatorda Xiva xonliklari tevaragida shakllangan adabiy muhitning haqqoniy qiyofasi, ijobiy va salbiy xususiyatlarini kuzatish mumkin. Ushbu tarixnomada Xorazm adabiyoti ahlining, xususan, Bayoniy davridagi kechmishlari batafsil aks ettirilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki muhit markazida turgan, rasmiy devon ishlarida faol qatnashgan Muhammad Yusuf bayoniy o'z ko'zi bilan ko'rgan – kechirganlarini qog'ozga muhrlagan."Shajarayi Xorazmshohiy" Xorazm xalqining urf-udumlari, marosim-ma'rakalari, til xususiyatlarini o'rganishda ham muhim manbalardan qatorida turadi. Bu asar tarix fanlari nomzodi Q. Munirovning "Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari" nomli risolasida ancha keng tahlil etilgan. Uning O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati ma'lum darajada yoritilgan. Shuningdek, akademik M.I.Yo'ldoshev shunday yozadi: "Bayoniyning asari faktik materiallarning ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilishi jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir" [2].

"Shajarayi Xorazmshohiy" dan ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida va tarixiy asarlar yozishda birinchi tarixiy manba sifatida foydalanishgan jumladan quyidagi tarixchi olimlar S. P. Tolstov, Ya.G'. G'ulomov, M. I. Yo'ldoshev, T.Ne'matov, Q. Munirovlar o'zlarining asarlarida bu asarning ilmiy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilishgan. Professor Ya.G'ulomov xonlik tarixini yozgan tarixchilardan Ogahiy yozgan tarixning Bayoniy tomonidan qayta yozilgan qismi haqida gapirib, quyidagilarni yozadi: "SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadigan Ogahiy asarlaridagi ma'lumotlarni Bayoniy ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rgayda katta tafovut yo'q, ammo Bayoniyda uchraydigan va diqqatga sazovor ba'zi bir ma'lumotlar to'liqroq bo'lib, Ogahiy asarlarida mukammal emas" [5].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "Shajarayi Xorazmshohiy" asari nafaqat tarixiy balki, XIX asr o'zbek nasri namunasi sifatida ham qadrli sanaladi. Ushbu asar til va uslubining soddaligi, xushbayonligi, badiiy usullar hamda adabiy lavhalar bilan omuhtaligi, geografiya, etnografiya kabi turli sohaga oid ma'lumotlarni qomusiy xarakter kasb etgani bilan o'zbek nasri tarixida muhim o'rin tutuvchi asarlardan hisoblanadi. Asar o'zbek adabiy va badiiy tili boyliklari, ifoda usullarini qamrashi jihatidan ona tilimiz tarixining alohida bir davri ko'zgusidir. "Shajarayi Xorazmshohiy" Bayoniy davri Xorazm abadiy muhiti haqida ham yaxlit tasavvur hosil qilishga ham imkon beradi. Asarda Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Xusraviy, Komron, Murodiy kabi shoirlarning hayoti va ijodi haqida yangi ma'lumotlar mavjud. Adabiy manbalarda uchramaydigan ba'zi nazmiy asar va parchalar turli munosabat bilan keltirilgan. Solnoma Bayoniy hayoti va ijodining bizga noma'lum tomonlarini oydinlashtiradi, shoir faoliyati haqida ilmda mavjud kemtiklarni to'ldiradi. Asarni o'qir ekanmiz, tarixiy sharoit, muhit hamda shoirning ko'ngliga yaqin, hamfikr do'stlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz[8]. Shunday qilib, Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining she'rlari va tarixiy asarlari bilan o'zbek adabiyotshunosligi va o'zbek tarixshunosligiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan xon saroyi shoirlaridan biri bo'lib, XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiyotining va tarixnavisligining yetuk namoyondasi sifatida tarixda o'ziga xos munosib iz qoldirgan.

## ADABIYOTLAR


1. Бобожон Таррох-Ходим. Хоразм навозандалари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. Б-40.
2. Йўлдошев.М.Й. ХИХ аср Хива давлат хужжатлари.Тошкент, "Фан", 1960, 24-бет.
3. Лаффасий Ҳасанқори ўғли.Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи П.Бобожонов.Урганч,"Хоразм",1992,120б
4. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. Мерос. – Т.: Камалак. 1991. – Б. 255.
5. Ғуломов. Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.Тошкент.: 1959,14-бет.
6. Матниёзов. М.Хоразм тарихи.I-жилд.Урганч.:1997,5-бет.
7. Муниров. Қ.Хоразмда тарихнавислик( XVII-XIX ва XX аср бошлари). Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.Т.2002, 6-бет.
8. Iqboloy Adizova. Qo'lyozma manbalar asosida nashrga tayyorlovchi, lug'at va izohlar muallifi. Muhammad Yusuf Bayoniy. "Shajarai Xorazmshohiy". 1994.
9. Ziyouz.com.
10. armat.urdu.uz.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:930**

***Sanjarbek DJUMANOV,***
*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi, PhD*
*E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru*

*O'zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida*

## MUSTAQILLIK YILLARIDA IMOM MOTURIDIY MEROSINING O'RGANILISHI VA UNING DINIY QADRIYATLARIMIZNI TIKLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya
Mustaqillik yillarida Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari amalga oshirildi. 2016 yildan e'tiboran ushbu tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganishga mo'ljallangan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil qilindi, alloma asarlari tarjimasi amalga oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur maqola mustaqillik yillarida Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish ishlari tarixiga bag'ishlangan.
**Kalit so'zlar:** Imom Moturidiy, ilmiy meros, asarlar, xalqaro konferensiya, tarjimalar.

## THE STUDY OF IMAM MOTURIDI'S HERITAGE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS ROLE IN THE RESTORATION OF OUR RELIGIOUS VALUES

Annotation
In the years of independence, research and wide promotion of the scientific heritage of Imam Moturidi was carried out. Since 2016, these events have reached a new level. In particular, the Imam Moturidi international research center was established to study the scientific heritage of Imam Moturidi, and the works of the scholar were translated. This, in turn, became important in the restoration of our religious values. This article is devoted to the history of studies of the scientific heritage of Imam Moturidi during the years of independence.
**Key words**: Alloma, scientific heritage, works, international conference, Maturid school of the word, moderate teaching, Imam Moturidi, scientific heritage, works, international conference, translations.

## ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ИМАМА МОТУРИДИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО РОЛИ В ВОССТАНОВЛЕНИИ НАШИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация
В годы независимости проводились исследования и широкая пропаганда научного наследия Имама Мотуриди. С 2016 года эти мероприятия вышли на новый уровень. В частности, для изучения научного наследия Имама Мотуриди был создан международный исследовательский центр Имама Мотуриди, переведены труды учёного. Это, в свою очередь, сыграло важную роль в восстановлении наших религиозных ценностей. Данная статья посвящена истории изучения научного наследия Имама Мотуриди в годы независимости.
**Ключевые слова:** Имам Мотуриди, научное наследие, труды, международная конференция, переводы.

**Kirish.** Ma'lumki, O'rta asrlarda yurtimizdan yetishib chiqqan ko'plab ulug' allomalar o'z kashfiyoti va ta'limoti bilan jahonda mashhur bo'ldi. Shunday allomalardan biri Abu Mansur Moturidiy bo'lib, u zot kalom ilmi asoschilaridan edi. Imom Moturidiy hayoti va ilmiy merosi haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr mualliflari Xatib Bag'dodiy, Abdukarim Sam'oniy, Abul Fido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug'a, Muhitdin Qurashiy, Kafaviy, Abul Mu'iyn Nasafiy, Toshko'priyuzoda va Hoji Xalifa asarlarida keltirilgan. Imom Moturidiyning kalom va fiqh ilmlari sohasidagi qarashlari uning "Kitob at – Tavhid" va "Kitob ta'vilot ahl as-sunna" nomli asarlarida bayon qilingan. Bu haqdagi ma'lumotlar alloma vafotidan so'ng moturidiya ta'limotiga bag'ishlangan qator asarlarda ham o'z aksini topgan [8].

Asrlar davomida alloma asarlarini o'rganish va unga sharh yozish ishlari amalga oshirilgan. Ammo yurtimiz avval Rossiya imperiyasi, so'ngra sovet tuzumi tomonidan mustamlakaga aylantirilgach, bunday ishlarni amalga oshirishga taqiq qo'yildi. Ayniqsa, yurtimizda sovet tuzumi davrida yuritilgan ateistik siyosat bunday ishlarga barham berishga qaratilgan edi. Ittifoq xalqlari e'tiqod qiluvchi turli dinlarga, xususan, islom diniga qarshi kurash ushbu siyosat asosini tashkil qilar edi. Shu sababdan yurtimizdan yetishib chiqqan va islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar ilmiy merosini o'rganish olib borilmadi. Ularning asarlari taqiqlandi va xalqimizga yetkazilmadi. Bu, o'z navbatida, yoshlar ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik yillarida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qatori Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari boshlandi. Xususan, 1999 yil 3 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda alloma tavalludini keng nishonlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'rsatib berildi. Xususan, Samarqand shahrining Registonga tutash Chokardiza qabristonidagi Imom Moturidiy maqbarasini rekonstruksiya qilish, mamlakat hududidagi alloma nomi bilan bog'liq qadamjo va obidalar ro'yxatini shakllantirish, ularni ta'mirlash, konservatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash va boshqa vazifalar belgilab berildi [9].

Ushbu qarorda nazarda tutilgan vazifalar ijrosi doirasida 2000 yil 17 noyabr kuni allomaning 1130 yillik tavallud sanasi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Samarqandda alloma xotirasiga atab tiklangan yodgorlik

majmusi ochildi [2:1]. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta’limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Ushbu konferensiyalarda Imom Moturidiy va uning ilmiy merosiga bag‘ishlangan mavzularda ma’ruza qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillik yillarida Imom Moturidiy merosining o‘rganilishi va uning diniy qadriyatlarimizni tiklashdagi o‘rni mavzusini o‘rganish jarayonida bu davrda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari tahlil qilindi. Maqolani tayyorlashda umumqabul qilingan tarixiy metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotning ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasi, tegishli adabiyotlar va rasmiy internet saytlar ma’lumotlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**. Mustaqillik yillarida alloma ilmiy merosini tadqiq etish va shu asosda qo‘llanmalar chop etish ishlari amalga oshirildi. Xususan, “Al-Moturidiy ta’limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o‘rni” nomli ma’ruzalar to‘plami, (2000), “Imom al-Moturidiy va uning ta’limoti” (U.Uvatov, 2000), “Imom al-Moturidiy va Chokardiza” (K.Kattayev, 2000), “Al-Moturidiy ta’limoti” (Abdulaziz Mansur, 2003), “Al-Moturidiy hayoti va merosi” (SH.Ziyodov, 2000) kabi kitoblar nashr qilindi. Bu borada xorijlik olimlar bilan ham hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Xususan, 2001 yilda Germaniyalik professor Ulrix Rudolf qalamiga mansub “Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti” asari o‘zbek tilida nashr etildi. 2002 yilda mazkur kitobning keng ommaga, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining talabalari va o‘rta maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan nashri amalga oshirildi [13].

Bundan tashqari, moturidiya ta’limotidagi mashhur ulamolar asarlarini ham nashr ishlari amalga oshirildi. Sirojiddin O‘shiy qalamiga mansub “Bad’ul a’moliy” (Qalbdan yozishlar muqaddimasi) asari shular jumlasidandir. Ushbu asar matni Shayx Abdulaziz Mansurning “Aqoid matnlari” kitobida so‘zma-so‘z tarjima qilindi va 2006 yilda nashr etildi. 2008 yilda esa Shayx Nazrullohxon eshon G‘aribiy tomonidan she’riy tarzda sharhlangan “Bad’ul amoliy” matni “Qasidai Amoliy sharhi va tavhid manzumasi” nomi bilan chop etildi [14].

Keyingi yillarda ham alloma ilmiy merosini o‘rganish davom etdi. Xususan, Sh.Ziyodovning “Abu Mansur al-Moturidiy yozma merosi va uning Kitob at-Ta’vilot asari” nomli dissertatsiyasi bu borada amalga oshirilgan yirik tadqiqotlardan sanaladi. Dissertatsiyada Moturidiy hayotining bosqichlari, ilmiy ijodiga ta’sir ko‘rsatgan muayyan tarixiy va diniy sharoit, Movarounnahrda, xususan, Samarqanddagi diniy, ijtimoiy-siyosiy holat o‘rganildi. Shuningdek, allomaning X asr birinchi yarmida Movarounnahr, xususan, Samarqand shahri ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan o‘rni tahlil qilindi.

S.Oqilovning “Abul Muin an-Nasafiy va uning moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi” mavzusidagi tadqiqotda ham moturidiya ta’limoti yoritildi. Unda Movarounnahrda kalom ilmining rivojlanishi va unda Imom Moturidiy ilmiy merosning tutgan o‘rni o‘rganildi. Shuningdek olimning kalom ilmiga bag‘ishlangan “Tabsiratul adilla” asari tahlil qilindi. A.Alloqulov tomonidan amalga oshirilgan “Abu Hafs Nasafiyning “Aqoid” asari va uning sharhlari tahlili” mavzusidagi dissertatsiya [1] esa Abu Hafs Nasafiyning hayoti, ilmiy merosi, uning qo‘lyozma nusxalari, tarjimalari, zamonaviy sharhlari haqida fikr yuritildi. Shuningdek, olimning tafsir, hadis, fiqh va aqida sohalari rivojiga qo‘shgan hissasi ochib berildi.

Bundan tashqari, “Abu-l-Muin Nasafiy ilmiy merosining Movarounnahr kalom ta’limoti rivojidagi ahamiyati” (E.Daminov) [3], “Sa’duddin Taftazoniyning temuriylar davri moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi” (O.Polvonov) [6], “Abu Ja’far Tahoviyning “Aqida” asari va uning sharhlari – hanafiylik ta’limotiga oid manba” (H.Sagdiyev) [5] va boshqa tadqiqotlarda moturidiylik ta’limotining turli jihatlari yoritildi.

2016 yildan e’tiboran bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, 2020 yil 11 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Ushbu hujjat asosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” tashkil etildi. Imom Moturidiy va uning izdoshlari faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini tadqiq etish va boshqalar markazning asosiy maqsadi sifatida belgilandi [10].

Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida markaz tomonidan turli tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020 yilning 3-5 mart kunlari Samarqand shahrida “Imom Abu Mansur Moturidiy va moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil etildi. Anjumanda 15 ta mamlakatdan 70 ga yaqin ulamo, islomshunos olimlar, nufuzli ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari rahbarlari ishtirok etdi. Ikki kun davom etgan konferensiyada qirqdan ortiq ma’ruza tinglandi. Ma’ruzalardan Imom Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiya kalom maktabiga oid yangi manbalar, mazkur ta’limotning bugungi kundagi ahamiyati haqida yangi ilmiy ma’lumotlar berildi [12]. Konferensiya moturidiylik ta’limotini ilmiy asosda o‘rganish va uning globallashuv jarayonida mo‘tadil ta’limotni targ‘ib qilishdagi o‘rnini asoslab berishga xizmat qildi.

Moturidiya ta’limotini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va Markaz faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida uning qoshida Misr, Turkiya, Iordaniya, Albaniya, Germaniya, Rossiya, Malayziya, Afg‘oniston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonlik 22 nafar a’zodan iborat Xalqaro Ilmiy Hay’at tuzildi. Shuningdek, 2021 yil avgus oyigacha bo‘lgan davrda Markaz tomonidan Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom olami tashkiloti (ICESCO), Turkiyaning Anqara va Saljuq universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi [4].

Imom Moturidiy faoliyatini o‘rganish va uni jahonga targ‘ib qilish bo‘yicha xalqaro onlayn uchrashuvlar ham tashkil etildi. Jumladan, 2020 yil 17 dekabrda “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi: istiqboldagi rejalar” nomli xalqaro onlayn matbuot anjumani o‘tkazildi. Konferensiyada jahonning 20 ga yaqin mamlakatidan 40 dan ziyod islomshunos olim va mutaxassislar, xalqaro tashkilot va ilmiy muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Bundan tashqari, 2021 yilda Singapurning Nanyang texnologiyalar universiteti huzuridagi Rajaratnam xalqaro tadqiqotlar maktabi bilan davra suhbati va “Moturidiylik ta’limoti va hozirgi zamon” mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy simpoziumi o‘tkazildi [11]. Bunday tadbirlarning o‘tkazilishi Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish va uni targ‘ib qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Imom Moturidiy asarlarini tarjima qilishga ham katta e’tibor berildi. Jumladan, 2022 yilda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi olimlari tomonidan Moturidiylik ta’limoti asosi bo‘lgan “Ta’vilot al-Qur’on” asarining dastlabki 30-juzi o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi [15]. Tarjimada Imom Moturidiy qarashlarini imkon qadar yengil, tushunish oson bo‘lgan uslubda xalqimizga yetkazishga harakat qilindi. Qur’oni karim oyatlari tarjimasini keltirishda Shayx Abdulaziz Mansur qalamiga mansub “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” asaridan keng foydalanildi [7].

Ushbu asarning keyingi juzlari tarjimasi ham amalga oshirildi. Jumladan, 2022 yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimlari tomonidan “Ta’vilot al-Qur’on” asarining 27, 28 va 29- juzlari, 2023 yilda esa 25-26 juzlari tarjima qilindi. Ushbu asarning tarjima qilinishi xalqimiz orasida islom ma’rifatini yoyish, moturidiya ta’limotining o‘rnini yanada mustahkamlash, yosh avlodni botil g‘oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Imom Moturidiy tomonidan o‘z davrida aytilgan fikrlar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, bu, o‘z navbatida, inson aql-zakovati va tafakkuri imkoniyatlari cheksiz ekanini bildiradi. Alloma faoliyatida islom dinining mohiyatini to‘g‘ri talqin qilish, turli bid’at va xurofotlarga qarshi kurash alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan ham Imom Moturidiy ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham katta amaliy ahamiyatga egadir. Allomaning asosiy asari qo‘lyozmalari va ularga yozilgan sharhlar nafaqat Misr, Turkiya, Hindiston, Angliya kabi mamlakatlarda, balki Respublikamiz qo‘lyozmalar fondlarida ham mavjuddir [8].

**Xulosa va takliflar**. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlari ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bunda 1999 yilda Hukumat tomonidan Alloma yubileyini nishonlash to‘g‘risidagi qaror muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hujjatda Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish va uni targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu reja asosida Imom Moturidiy maqbarasi reknstruksiya qilindi, alloma nomi bilan bog‘liq qadamjo va obidalar ro‘yxati shakllantirildi, bir qancha tadqiqotlar nashr qilindi va hok. 2016 yildan e’tiboran, Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining farmoni bilan 2020 yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu markaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi Alloma ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR


1. Аллокулов А. Абу Ҳафс Насафийнинг “Ақоид” асари ва унинг шарҳлари таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.Тошкент. 2018.
2. Бўрибоев И. Президент Ислом Каримовнинг Бурҳониддин Марғиноний таваллудининг 910 йиллигига бағишланган тантанали марсимда сўзлаган нутқи. Маърифат газетаси, 2000 йил 18 ноябр. – Б.1.
3. Даминов Э. Абу-л-Муин Насафий илмий меросининг Мовароуннаҳр калом таълимоти ривожидаги аҳамияти, Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. Тошкент. 2019.
4. Махсудов Д. Имом Мотуридий ва унинг издошларига кўрсатилаётган юксак эътибор. Янги Ўзбекистон газетаси, 2020 йил март ойи.
5. Сагдиев Ҳ. Абу Жаъфар Таҳовийнинг “Ақида” асари ва унинг шарҳлари – ҳанафийлик таълимотига оид манба. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент. 2017.
6. http://www.t-science.org/arxivDOI/2019/06-74/06-74-37.html.
7. https://hilolnashr.uz/tavilot-al-quron-30
8. https://kukaldosh.uz/28/02/2018/600
9. https://lex.uz/docs/1592041#1592084
10. https://lex.uz/docs/4945427
11. https://moturidiy.uz/uz/news/290
12. https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=1008
13. https://sammuslim.uz/articles/eductaion/imom-al-moturidiy-hidoyat-imomi
14. https://tuhfa.uz/article/833
15. https://zarnews.uz/post/tavilot-al-quron-quroni-karim-tafsiriga-bagishlangan-motabar-manba

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 902. 6(575.151)**

***Doston JALILOV,***
*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*
*E-mail: dostonjalilovmuhiddinogli@gmail.com*

*Termiz davlat universiteti dotsenti t.f.b.f.d.(PhD) O.Xamidov taqrizi asosida*

# CULTURAL INFLUENCE OF THE STEPPE TRIBES ON THE CULTURE OF SAPALLI: ISSUES OF HISTORIOGRAPHY (ON THE EXAMPLE OF SCIENTIFIC WORKS OF 1970-1999 YEARS)

Annotation
The Sapalli culture of the Bronze Age (2200-1300 BC), identified and studied in Northern Bactria since the 60s of the twentieth century, is divided into five stages - Sapalli, Zharkuton, Kuzali, Molali and Bustan. Currently, 47 monuments related to this culture have been identified in the Surkhandarya region. One of the pressing problems of the Sapalli culture is its interaction with the steppe tribes; a number of researchers have expressed their opinions on this. This article, from the point of view of historiography, analyzes the issues of the cultural influence of the nomadic steppe population on the Sapalli culture, data published as a result of archaeological research carried out in the monuments.
**Key words:** Sapalli culture, Sapallitepa, Jarkutan, Kuzalli, Molalli, Buston VI-VII, Andronovo culture, steppe people, steppe tradition, innovation, cultural influence, historiography issues.

# ВЛИЯНИЕ СТЕПНОГО НАСЕЛЕНИЯ НА САПАЛЛИНСКУЮ КУЛЬТУРУ: ВОПРОСЫ ИСТОРИОГРАФИИ (НА ПРИМЕРЕ НАУЧНЫХ РАБОТ 1970-1999 ГГ.)

Аннотация
Культура Сапалли бронзового века (2200-1300 гг. до н.э.), выявленная и изучаемая в Северной Бактрии с 60-х годов XX века, делится на пять этапов - Сапалли, Жаркутон, Кузали, Молали и Бустан. В настоящее время в Сурхандарьинской области выявлено 47 памятников, относящихся к этой культуре. Одной из актуальных проблем сапаллинской культуры является ее взаимодействие с степными племенами, по поводу этого высказали свое мнение ряд исследователей. В данной статье с точки зрения историографии анализируется вопросы культурного влияния кочевого степного населения на культуру Сапалли, данные, опубликованные в результате археологических исследований, проведенных в памятниках.
**Ключевые слова:** Сапаллинская культура, Сапаллитепа, Джаркутан, Кузали, Молали, Бустан VI-VII, Андроновская культура, степное население, степные традиции, инновации, культурное влияние, вопросы историографии.

# SOPOLLI MADANIYATIGA DASHT AHOLISI MADANIY TA’SIRI: TARIXSHUNOSLIK MASALALARI (1970-1999-YILLAR ILMIY ISHLARI MISOLIDA)

Annotatsiya
Shimoliy Baqtriya hududida XX asrning 60-yillaridan aniqlangan va o‘rganilayotgan bronza davri Sopolli madaniyati (mil. avv. 2200-1300-yy.) besh - Sopolli, Jarqo‘ton, Ko‘zali, Molali va Bo‘ston boshqichlariga bo‘linadi. Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida ushbu madaniyatga oid 47 ta yodgorlik aniqlangan. Sopolli madaniyatining dolzarb muammolaridan biri uning dasht qabilalari bilan o‘zaro munosabatlari bo‘lib, bu bo‘yicha bir qator tadqiqotchilar o‘z fikrini bildirishgan. Ushbu maqolada ko‘chmanchi dasht aholisining Sopolli madaniyatiga madaniy ta’siri masalasi, yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida nashr etilgan ma’lumotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.
**Kalit so‘zlar:** Sopolli madaniyati, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Ko‘zali, Molali, Bo‘ston VI-VII, Andronovo madaniyati, dasht aholisi, dasht an’anasi, innovatsiya, madaniy ta’sir, tarixshunoslik masalalari.

**Kirish.** Oks sivilizatsiyasi qadimgi Sharq dunyosining yangi o‘chog‘i bo‘lib, janubiy O‘zbekiston, janubiy Turkmaniston, shimoliy Afg‘oniston va janubiy-g‘arbiy Tojikiston hududlarida mavjud bo‘lib, arxeologiya fanida “Oks sivilizatsiyasi”[6], “Turon sivilizatsiyasi” [3,6,15] yoki “Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik kompleksi”(BMAK) [1,7,11], so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda “Oks-Amu sivilizatsiyasi” [10] kabi umumiy nomlar bilan atalmoqda.

Namozgoh VI majmuasining janubiy O‘zbekiston mahalliy shakli - Sopolli madaniyati Oks sivilizatsiyasining tarkibiy qismi hisoblangan bo‘lib, qadimgi Sharq tipidagi arxeologik madaniyat hisoblanadi. Janubiy O‘zbekiston, xususan, Surxondaryo viloyati arxeologik adabiyotlarda Shimoliy Baqtriya deb nomlanib, 1960-yillardan bu yerda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qariyb 60 yildan oshiq vaqt davomida tadqiq etilayotgan mazkur madaniyat tadqiqotchilar tomonidan beshta: Sopolli, Jarqo‘ton, Ko‘zali, Molali va Bo‘ston bosqichilariga bo‘lingan.

Sopolli madaniyatida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan: aholini ideologik jihatidan birlashtirgan yagona diniy markaz, yagona mudofaa rejasiga ega bo‘lgan ilk shahar, moddiy buyumlardagi o‘ziga xos (sopol ishlab chiqarish, taqinchoqlar va b.) yangiliklar bilan birga, ko‘chmanchi dasht aholisiga xos bo‘lgan moddiy buyumlar (sopol, taqinchoq, qurol va b.), ideologik belgilar (qabrlarda dasht aholisiga xos bo‘lgan dafn an’analari, krematsiya va b.) dasht aholisining madaniy ta’sirining belgisidir[13]. Bu kabi xususiyatlarning mavjudligi Oks sivilizatsiyasiga tarkibiy qismi hisoblangan Sopolli madaniyatining qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir bo‘lagi ekanligini bilidiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Sopolli madaniyatiga tegishli yodgorliklarda 60 yildan oshiq vaqt davomida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur madaniyatga tegishli ilk yodgorlik Sopollitepa (N 37°27'1.92", E 66°50'42.76") manzilgohi bo‘lib, 1968-yilda L.I.Albaum

manzilgohning shimoliy va sharqiy qismlarida qazishma ishlarini olib bordi[4]. Sopollitepadagi keng ko‘lamli tadqiqotlar O‘zSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti arxeologik ekspeditsiyasining 1969- va 1971-yillardagi tadqiqotlarida aholi punktining markaziy qismining g‘arbiy yarmini ochish, manzilgohning shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy burchaklarida qisman qazishmalar va bir necha nuqtalarda stratigrafik chuqurlarni yotqizishga qaratilgan edi[4]. Ushbu qazishma ishlari A.Asqarov boshchiligidagi keng qamrovli arxeologik qazishmalar 1969-yilda va 1971-yilda 4 dala mavsumi davomida o‘rganildi[4]. Qazishmalar davomida Sopollitepadan uch yarim ming yildan ko‘proq vaqt oldin tashlab ketilgan, deyarli buzilmagan qadimiy binolarni, marhumlarning qabrlarini va uning qadimgi aholisining hayoti va madaniyatini har tomonlama tavsiflovchi bir qator ajoyib topilmalar topildi. A.Asqarov Sopollitepadan topilgan katta hajmdagi materiallarini 1973-yilda “Сополлитепа” monografiyasida nashr etdi[4].

A.Asqarov 1977-yilda Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarini o‘zida mavjud moddiy manbalar asosida qayta yoritgan “Janubiy O‘zbekiston qadimgi dehqonchilik madaniyati” (“Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана”)[2] monografiyasi nashrda chiqdi. Bu monografiya “Сополлитепа” monografiyasidagi ma’lumotlarni takrorlaydi.

Sopolli madaniyatiga tegishli yana bir yodgorlik 1973-yilning bahorida Sh.Pidayev va V.Pilipko tomonidan Sherobod tumani markazidan uncha uzoq bo‘lmagan Guliston sovxozi hududidan, Sherobod daryoning qadimiy kanali Bo‘stonsoy bo‘yida Jarqo‘ton (N 37°37'52.79", E 66°57'38.65) manzilgohini topdilar. O‘sha yilning kuzida A.Asqarov tomonidan manzilgohdagi qazishma ishlari davomida ikkita yer osti qabri topildi[5]. Keyingi qazishmalar davomida Jarqo‘tonda olib borilgan qazishmalar natijasi A.Asqarov va B.Abdullayevning “Jarqo‘ton” (“Джаркутан”) monografiyasida e’lon qilindi[5].

Sopolli madaniyatiga tegishli sopol buyumlarga bag‘ishlangan tadqiqot ishi U.Rahmonovning 1987-yildagi “Janubiy O‘zbekiston bronza davri kulolchiligi” (“Керамической производства эпохи бронзы южного Узбекистана”) mavzusida A. Asqarov rahbarligida tayyorlangan nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi.

T.Shirinovning 1993-yilda nashr etilgan “Janubiy O‘zbekiston bronza davri ilk shahar madaniyati” (“Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана”) nomli monorafiyasida ilk bor Sopolli madaniyati urbanizatsiya jarayonlari misolida tadqiq qilindi.

1994-2003-yillarda O‘zbek-nemis qo‘shma ekspeditsiyasi Jarqo‘tonda dala tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Bu tadqiqot ishlari natijasida ilmiy ommaga maqola shaklida e’lon qilib borildi. Shunday maqolalardan biri 1999-yil “O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi” jurnalining 30-sonida 19-26-sahifalarda D.Huff va Sh.Shaydullayev muallifliklarida “O‘zbek-olmon ekspeditsiyasining Jarqo‘tonda olib borilgan tadqiqotlarining ba’zi bir natijalari” (“Некоторые резултаты работ Узбекско-Германской экспедиции на городище Джаркутан”) maqolasida e’lon qilindi.

1999-yilda “Stratum plus” jurnalining 2-soni 265-285-betlarda V.M.Massonning janub dehqon sivilizatsiyasi va dasht qabilalariga arxeologik jihatdan bag‘ishlangan “Arxeologik ma’lumotlar asosida Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari va dasht qabilalari” (“Древние цивилизации востока и степные племена в свете данных археологии”) [8] nomli maqolasi nashr etildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi bo‘lmish fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar**. Sopolli madaniyatining asosiy kashfiyotchisi A.Asqarov Sopollitepaga bag‘ishlangan monografiyasida yodgorlikning tabiiy geografik landshafti haqida ma’lumotlar ketirilgan[4]. Aholi punktining qazilgan qismida, turar-joy binolari pollarida, tashlandiq binolar vayronalari, hovlilar va ko‘chalar, alohida xonalarning devorlari va aylanma yo‘laklarda aholi punkti materiallariga o‘xshash boy qabr buyumlari bilan dafn etilgan. A.Asqarov Sopollitepa aholisini bronza davri shimoliy Baqtriyaning ilk dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi sifatida keltiradi[4]. Bunga sabab yodgorlikdan dehqonchilikdagi quritilgan boshoqli ekinlar, bug‘doy, arpa va tariq topilganligi asos bo‘ldi[4]. Sopollitepa aholisi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug‘ullangan[4]. Manzilgohdan dasht va chala cho‘l sharoitiga moslashgan mayda o‘txo‘r hayvonlar, xususan qo‘ylarning suyak qoldiqlari topilgan[4]. Qazishmalar davomida qabrlardan bronza ignalar topilgan. Bunday turdagi buyumlar dasht mintaqalarida ham dehqonchilik mintaqalari yodgorliklarida ham uchraydi. Bu ikki mintaqa aholisi o‘rtasida doimiy madaniy aloqalar bo‘lib turganlgidan dalolat bersada, bu doimiy shunday xarakterga ega bo‘lmay, balki, o‘zaro to‘qnashuvlar ham sodir bo‘lganligini A.Asqarov o‘z monografiyasida qayd etgan[4]. A.Asqarov Sopolli madaniyatining tanazzullga uchrashining asosiy sabablaridan biri sifatida, molali bosqichida, ya’ni, mil. avv. II ming yillik uchinchi chorak oxirida shimoliy dasht qabilalarining o‘troq dehqonlarning gullab-yashnagan janubiy hududlariga bostirib kirishi tufayli sodir bo‘lgan deb hisoblaydi[4].

A.Asqarov tomonidan 1977-yilda “Janubiy O‘zbekiston qadimgi dehqonchilik madaniyati” monografiyasida Sopollitepa qazishmalaridan olingan ma’lumotlar va Jarqo‘ton yodgorligidan olingan dastlabki natijalar umumlashtirilgan. Umumlashtirish natijasida: “shimoliy dasht qabilalari orasida chorvachilik mahsuldor xo‘jalik sifatida jadal rivojlanib, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator o‘zgarishlar ro‘y berganligi qayd etilgan[2]. Janub dehqonlarining iqtisodiy yutuqlari shimoliy hududlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, buning natijasida dasht va qadimgi dehqonchilik qabilalari bilan aloqa zonasida noyob yaylov-dehqonchilik Zamonbobo madaniyati rivojlandi. Ayni paytda Qozog‘iston dashtlari (Andronovo qabilalari) va Qadimgi Xorazmning shimoliy-g‘arbiy qismidan chorvador qabilalar (srubnaya qabilalari) O‘rta Osiyoga ko‘chib kela boshladi. Ular, Qadimgi Xorazm hududlaridagi cho‘l chorvadorlarining birinchi muhim to‘lqini kabi, ko‘plab mutaxassislar tomonidan Andronovo jamoasining bir varianti sifatida ko‘rib chiqiladigan Tozabog‘yob madaniyatini shakllantirgan” [2]. Monografiyada dasht aholisining dehqonchilik mintaqalariga ta’sir yoritilishi bilan birga janub aholisining shimoliy mintaqalarga ta’siri haqida ham gapirilib, bunday ta’sir natijasida aloqa zonalari haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[2].

A.Asqarov va B.Abdullayev Jarqo‘ton yodgorligidagi qazishma ishlariga bag‘ishlangan “Jarqo‘ton” [5] monografiyasida yodgorlikdan topilgan dehqon jamoalari va dasht jamoalari aholisining moddiy buymlari haqida so‘z boradi. Yodgorligidan qazilgan qabrlardan boy moddiy artefaktlar topilgan bo‘lib, bu artefaktlar orasida dasht aholisi an’anasidagi bezatilgan kulolchilik buyumlari, ikki konusli va silindrsimon shakldagi munchoqlar[5], bronza taqinchoqlar ham uchraydi. Bundan tashqari monografiyada dasht an’anasining madaniy ta’siri bo‘lgan jasadni kuydirish shakli Jarqo‘ton va Bo‘ston-3 bosqichlarida uchrashi ham keltiriladi.

Monografiya o‘z davri uchun Jarqo‘ton yodgorligining umumiy xarakteristikasini ochib bergan.

U.Rahmonov "Janubiy O‘zbekiston bronza davri kulolchiligi" dissertatsiyasida Sopolli madaniyatiga tegishli yodgorliklarning sopol buyumlarini tahlil qiladi va O‘zbekistonning bronza davri qadimgi dehqonlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotini ko‘p jihatdan yoritgan[9]. Tadqiqotda A.Asqarov tomonidan davrlashtirilgan Sopolli madaniyati B.Abdullayev tomonidan taklif etilgan Ko‘zali bosqichi bilan to‘ldirilganligi qayd etilgan[9]. U.Rahmonov Sopolli madaniyatining barcha bosqich sopollarini ma’lum bir tiplarga[9]: ijtimoiy hayot, ibodatxona va boshqalarga ajratib chiqadi. Sopollarni tiplarga bo‘lishda idishlardagi bezaklarga to‘xtalgan.

T.Shirinov "Janubiy O‘zbekiston bronza davri ilk shahar madaniyati" monografiyasida janubiy O‘zbekiston bronza davrida, Jarqo‘ton yodgorligining tarxi, topografiyasi, arxitekturasi, mudofaa sohasi, sinfiy masalalari urbanistik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek monografiyada janubiy O‘zbekistonning bronza davri o‘simlik dunyosi ham tahlil qilingan[14]. Bundan tashqari BMAK (boshqa o‘rnlarda Oks sivilizatsiyasi)ning shakllanishida "cho‘l-dasht madaniyatining tashuvchisi bo‘lmish Tozabog‘yob, Andronovo va Srubnaya qabilalarining katta ta’sirini ham e’tirof etgan. Mil. avv. XIV-XIII asrlarda Srubnaya madaniyati aholisining alohida guruhlari o‘zlarining sof ko‘rinishida O‘rta Osiyoning janubiga siljigan. Lekin ular, asosan, andronovoliklar kabi, Tozabog‘yob qabilalari tomonidan assimilyatsiya qilingan va shundan keyingina janubda paydo bo‘lgan. Bir muncha vaqt ikki turdagi madaniyat tashuvchilari - dasht va o‘troq dehqonchilik - tom ma’noda yonma-yon yashagan. Biroq, ular juda tez assimilyatsiya qilishgan. Yagona, texnik jihatdan qoloq qabilalar o‘z turmush tarzidan butunlay voz kechib, dehqonlarning ilg‘or texnologiyasini o‘zlashtirdilar. Biroq o‘troq dehqonlarning kulolchiligida Tozabog‘yob madaniyati bezaklarining ko‘plab elementlari – uchburchak shtamplar, siniq va to‘lqinsimon chiziqlar uchraydi. Dafn marosimlarida metall buyumlar - bilaguzuklar, ma’bad uzuklari va ilgari janubga xos bo‘lmagan boshqa narsalar kuchli o‘rin egallaydi. Bir so‘z bilan aytganda, BMAK ikki madaniyatning sintezi edi. Faqat Baqtriyaning sharqiy qismida, Bishkent vodiysida, Vaxsh va Qizilsuvda dasht madaniyatlarining o‘ziga xos ko‘rinishi saqlanib qolgan", - deb keltirgan[14]. T.Shirinovning monografiyasida Sopolli madaniyatiga dasht ta’siri bevosita emas balki bilvosita Tozabog‘yob, Andronovo va Srubnaya oraqali bo‘lganligini keltiradi. Dasht ta’siridagi kulolchilikda Tozabog‘yob elementlari orqali kirganligini e’tirof etgan.

D.Huff va Sh.Shaydullayev birgalikda "O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi" jurnalining 1999-yil 30-sonidagi "O‘zbek-olmon ekspeditsiyasining Jarqo‘tonda olib borilgan tadqiqotlarining ba’zi bir natijalari" maqolasida Jarqo‘ton qal’asining umumiy ko‘rinishi, kamin-o‘choq qazishmasi, bronza va tosh topilmalar, bundan tashqari sopol parchalari va kamon uchlari topilgan[12]. Maqolada otni jilovlashda foydalangan ot suvlig‘i topilganligi keltirilgan[12]. Ot suvlig‘i dasht aholisiga tegishli bo‘lgan otni jilovlashdagi vosita bo‘lib, Jarqo‘ton ot suvlig‘i Yevroosiyoning dasht chorvadorlariga nisbatan eng chekka janubida topilganligi bilan xarakterlidir. Albatta bu dasht aholisining janubga, xususan Sopolli madaniyatiga ham madaniy ta’sir o‘tkazganligining kichik bir dalilidir. Albatta bu kichik bir dalil Sopolli madaniyatining Jarqo‘ton bosqichida to‘laqonli dasht aholisining ta’siri ekanligini isbotlamaydi.

1999-yil V.M.Massonning "Stratum plus" jurnalining 2-sonida "Arxeologik ma’lumotlar asosida Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari va dasht qabilalari" maqolasida Oks sivilizatsiyasi hududida joylashgan janubiy Turkmanistondagi Nomozgoh, shimoliy Afg‘onistondagi Dashtli, janubiy Tojikistondagi Bishkent-Vaxsh va, shuningdek janubiy O‘zbekistondagi Sopolli madaniyatiga dasht qabilalari ta’siri keltirib o‘tilgan. Maqolada dasht aholisining migratsiyasi natijasida janubiy Turkmaniston (Nomozgoh, Marv vohasi) va Amudaryoning o‘rta oqimiga (Sopolli, Dashtli) ta’siri bevosita va bilvosita sodir bo‘lgan. Bevosita ta’sir bu dasht aholisi buyumlarining aynan uchrashi bo‘lsa, bilvosita ta’sir dasht aholisi ta’sirida yuzaga kelgan Begazi-Dandiboy, Tozabog‘yob va boshqa shunga o‘xshash madaniyatlar orqali yetib kelgan ta’sirdir. Sopolli madaniyatidagi dafn marosimlarida ilgari uchramagan holat jasadni kuydirish (krematsiya) [8] ning uchrashi va qabrlarda dasht aholisi moddiy an’anasini takrorlashi bevosita ta’siri bo‘lsa[8], dasht aholisining moddiyatdagi ta’siri bronza buyumlar va gil idishlarda ham qayd etilgan. Shuningdek maqolada dasht aholisining arxitektura jihatidan madaniy ta’sirini ham keltirib bunga misol sifatida Arkaim va Dashtli manzilgohining qurulish o‘xshashligini misol keltiradi. Lekin bizningcha bu madaniy ta’sir emas, balki qurulish arxitekturasidagi o‘zaro o‘xshashlikdan boshqa narsa emas. Maqolada V.M.Masson Sopolli madaniyatining ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy hayotiga ko‘chmanchi dasht aholisining madaniy ta’siri shu davr fan yutuqlari darajasida yoritilgan.

**Xulosa va takliflar**. Oks sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan Sopolli madaniyati bo‘yicha 1970-1999-yillarda mahalliy olimlardan A.Asqarov, B.Abdullayev, U.Rahmonov, T.Shirinov, Sh.Shaydullayev, xorijiy olimlardan nemis olimi D.Huff, V.M.Masson, qo‘shma ekspeditsiyalardan o‘zbek-nemis ekspeditsiyalari tadqiqot ishlarini olib bordilar. A.Asqarov va uning shogirdlari B.Abdullayev, U.Rahmonov, T.Shirinov, Sh.Shaydullayevlar Sopolli madaniyatining xronologiyasi, moddiy buyumlari (sopol, taqinchoqlar, qurollar, bronza, tosh artefaktlar), ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (sinfiy munosabatlar, dehqonchilik, chorvachilik), fortifikatsiya (Sopollitepa, Jarqo‘ton), urbanizatsiya (Jarqo‘ton) kabi yo‘nalishlarda asosiy natijalarini e’lon qilgan bo‘lsa, D.Huff va o‘zbek-nemis ekspeditsiyasi Jarqo‘ton yodgorligini qal’ada olib borilgan tadqiqot natijalarini, V.M.Masson janub sivilizatsiyalari, xususan Sopolli madaniyatiga ko‘chmanchi dasht aholisi ta’siri qisman keltirilgan. Hozirgi kunda Sopolli madaniyatiga dasht aholisi madaniy ta’siri tarixshunosligining yoritilishi natijasida ushbu madaniyatning Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi-dagi o‘rni yaqqol aniqlanadi. Shu tufayli mahalliy va xorijiy olimlar asarlarining tahlili amalga oshirilib, rivojlanish tendensiyasi aniqlanishi lozim.

## ADABIYOTLAR


1. Аванесова Н.А. Новые материалы эпохи бронзы Зарафшанской долины // Археологические исследования в Узбекистане 2001 год. Самарканд, 2002.
2. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент: «Фан», 1977.
3. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Юга Средней Азии. Самарканд, 1993.
4. Асқаров А. Сапаллитепа. «Фан» УзССР, 1973.
5. Асқаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. «Фан» Узбекской ССР, 1983.
6. Бокиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. "Окс цивилизацияси". Т. Янги нашр. 2015.
7. Кузмина Е.Е. Откуда пришли Индоарии? Москва, 1994.

8. Массон В.М. Древние цивилизации востока и степные племена в свете данных археологии // Stratum plus. 1999. № 2.
9. Рахмонов У. Керамическое производство эпохи бронзы южного Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд, 1987.
10. Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Монография. -Т.: “Университет”, 2020.
11. Сарианиди В.И. Некрополь Гонура и иранское язычество. Москва, 2001.
12. Хуфф Д., Шайдуллаев Ш. Некоторые результаты работ узбекско-германской экспедиции на городище Джаркутан. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи // 30 – нашр.
13. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2009.
14. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Самарканд. 1993.
15. Lamberg-Karlovsky C.C. The Bronze Age khanates of Central Asia. Antiquity 68, 1994.
16. Lamberg-Karlovsky C.C. The Oxus Civilization La Civilización del Oxus. ISSN 0211-1608 CuPAUAM 39, 2013.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:930

***Najmiddin QODIROV,***
*Xalqaro Nordik universiteti dotsenti, Yoshlar masalalari va talabalarga xizmat ko‘rsatish departamenti boshlig‘i*
*E-mail: n.qodirov@nordicuniversity.org*

*O‘zMU O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, t.f.d A.Xoliqulov taqrizi asosida*

## SIYOSIY PARTIYALAR “YOSHLAR QANOTLARI”NING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya
Ushbu maqolada mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini barpo etish barobarida yangi ijtimoiy-siyosiy tizimning muhim omili bo‘lgan siyosiy partiyalar va ularning demografik, ijtimoiy nuqtai-nazardan jamiyat rivojining kelajakdagi kafolati bo‘lgan yosh avlodni shakllanishidagi rolini namoyon etuvchi ilmiy tahlillar amalga oshirilgan.
**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, ijtimoiy faollik, siyosiy partiya, “yoshlar qanoti”, ijtimoiy institutlar, demografik holat, ijtimoiy qadriyat.

## THE INFLUENCE OF THE "YOUTH WINGS" OF POLITICAL PARTIES ON THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE

Annotation
This article presents a scientific analysis demonstrating the role of political parties and their importance in the formation of the younger generation, which from a demographic and social point of view is a future guarantee of the development of society, which is an important factor in the new socio-political system during the period of independent development.
**Key words:** Youth, social activity, political parties, "youth wing", social institutions, demographic status, social value.

## ВЛИЯНИЕ «МОЛОДЁЖНЫХ КРЫЛЬЕВ» ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ НА СОЦИАЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ

Аннотация
В данной статье проведен научный анализ, демонстрирующий роль политических партий и их роль в формировании молодого поколения, которое с демографической, социальной точки зрения является будущей гарантией развития общества, что является важным фактором новой социально-политической системы в период независимого развития.
**Ключевые слова:** Молодежь, социальная активность, политическая партия, "молодежное крыло", социальные институты, демографический статус, социальная ценность.

**Kirish.** Insoniyat o‘z rivoji davomida izchil ravishda eng maqbul ijtimoiy-siyosiy tizimni yaratish yuzasidan sa'i-harakatlari ham taraqqiy etib bordi. Ya'ni, insoniyat uchun eng munosib shart-sharoitlarni yaratish va bunda inson manfaatlarini eng ko‘p kafolatlovchi jamiyat usqurtmasini yaratish ustidan tinimsiz o‘zgaishlar amalga oshirgan va amalga oshirmoqda.

Demokratik institutlar faoliyatini takomillashtirish, davr va zamon talablari asosida isloh etib borish aksariyat jamiyatlarda eng ustuvor vazifalar qatorida baholanmoqda. Aynan, shu jarayonlarda siyosiy partiyalarning maqomi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, siyosiy partiyalar davlat va fuqarolar o‘rtasida nafaqat bog‘lovchi, balki o‘z faoliyatining eng samarali natijasi sifatida mustahkam fuqarolik va insoniylik pozitsiyasiga ega bo‘lgan va muayyan – tegishli ijtimoiy tuzum rivojiga xizmat qiluvchi shaxslarni shakllanishida ekanligini amalda isbotladi.

Bir so‘z bilan aytganda, siyosiy partiya “fuqarolik maktabi” rolini ham o‘ynaydi. Bu yerda fuqarolar va ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etish tajribasini to‘plashlari, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishlari, jamoada ishlashni o‘rganishlari va birgalikda qaror qabul qilishlari mumkin. Bu fuqarolarga siyosiy hayotning ongli ishtirokchilari bo‘lishga va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuni tadqiq etganda, adabiyotlar tasnifida, eng avvalo tayanch manba sifatida respublika rahbariyati tomonidan qabul qilingan va islohotlarning mazmun va mohiyatini belgilab bergan qonun, qonunosti xujjatlarga[1, 2, 3, 4] eng katta e'tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki mazkur muammo uzoq yillar davomida nafaqat g‘arb olimlari, hatto xalqaro tashkilotlarining doimiy diqqat markazida bo‘lgan ilmiy muammo[13, 12, 22, 9] hisoblanib bu borada yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan[27]. Ushbu tadqiqotlar natijasi sifatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligida ko‘rsatgichlarni belgilash, unga qarshi usul va vositalarni joriy etuvchi maxsus aqliy markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilganligini diqqatga sazovordir. Mazkur tadqiqotlarda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish ilg‘or mexanizmlarini doimiy ravishda rivojlantirib borish zaruriyligi o‘qtiriladi[16, 21].

Istiqlolning dastlabki yillarida ushbu tadqiqotlarda yoshlar ijtimoiy faolligi va unda fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, siyosiy partiyalar ishtirokining ilmiy va nazariy jihatlari[37], mazkur holatlarning yetakchi tajribalar bilan taqqoslamalari va ularning ilmiy tasnifi[34, 17] hamda ilmiy tavsiyalar taqdim etish bilan xarakterlangan. Taraqqiyotning keyingi, modernizatsiya davri[30] dagi tadqiqotlarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarda vujudga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari[40] muhokama qilingan. Yangi O‘zbekistonda, izchil islohotlar davrida mazkur muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlarda yaratilgan tizimning samarasiz ishlayotgan jihatlarini aniqlash, uning o‘rniga yangi tizimlarni joriy etish[31], ayrim ijtimoiy-siyosiy institular tizimlarini takomillashtirish[35] masalalari muhokama qilinmoqda. Undan tashqari, dunyoda kechayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tendentsiyalar[38] yosh avlod, shu jumladan, O‘zbekiston yoshlari dunyoqarashiga ta'siri[40],

ularda yangi ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimlarini shakllanishiga[32] sabab bo‘layotganligi oqibatida ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi mavjud tizimlarning samarasizligi[33], ushbu tizimlarning davr voqeligi nuqtai-nazaridan takomillashtirilishi va faoliyat mexanizmlarini yangilab borishlik zarurligi asoslanadi[36].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Istiqlol yillarida fuqarolik jamiyatini barpo etish, jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar umumjaxon miqyosida rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda kechayotganligi e'tiborga loyiq omildir[19].

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda O‘zbekistonda beshta siyosiy partiyalar faoliyat yuritib, ularning barchasining faoliyat dasturlarida yoshlar siyosatini ijrosini faol amalga oshirishda ishtirok etish, yosh avlodni yetuk va barkamol bo‘lib voyaga yetishishi uchun shart-sharoitlarni yaratish masalalari aks ettirilgan.

Yoshlarning siyosat haqidagi tasavvurlari va ishtirok shakllari o‘zgarib bormoqda. Siyosiy ishtirok tobora ko‘proq individual harakatlar doirasi prizmasi orqali ko‘rib chiqilmoqda. Buning natijasida “rasmiy tashkilotlar shaxslar ustidan o‘z ta'sirini yo‘qotmoqda va uning o‘rnini guruh aloqalari, keng ko‘lamli mobil ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda”[10] Ushbu tarmoqlar siyosiy ishtirokning muqobil shakllarining asosini shakllantiradi. Yosh fuqarolar orasida gorizontal ishtirok etish shakllari afzalliklari jozibali deb baholanmoqda[20].

Ana shunday sharoitda, ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy hayotdagi so‘nggi o‘zgarishlar va yangilanishlarni[20], vujudga kelayotgan yangicha qadriyatlarni[11] inobatga olgan holda sohada islohotlarni amalga oshirish davr talabi bo‘lmoqda.

2017-2021 yillar davomida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizda 2020 yil dekabrь oyida tashkil etilgan O‘zbekiston yoshlari forumida[6] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish[5] bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo‘llab-quvvatlamoqda[4].

O‘zbekistondagi siyosiy partiyalarning yoshlar qatlami bilan ish olib borishi, yosh avlod vakillari bilan muloqotining o‘ziga xos tadrijiy rivojlanish tajribasi mavjud.

1998 yildan boshlab siyosiy partiyalar tizimida ham yoshlar bilan ishlash strukturalari yaratila boshlandi. 1999 yil "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi mustaqillik yillari tarixida birinchi bor siyosiy partiyaning "Yoshlar qanoti"ga asos soldi. Mustaqil o‘zbekiston tarixida ilk tashkil etilgan (1991 yil 1 noyabrь) siyosiy partiya - O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi tarkibida "Yosh rahbarlar klubi" o‘z faoliyatini boshladi. Endilikda mamlakatda mavjud siyosiy partiyalarning har biri tarkibidagi ana shunday yoshlar qanotlari yoshlarni siyosiy jarayonlarga tayyorlash va tarbiyalash ishlari bilan shug‘ullanmoqda[14].

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (1995 yil 3 iyunda tashkil topgan) 2010 yil holatiga ko‘ra 108390 nafar a'zoga ega bo‘lib, undan 50052, ya'ni 40%ini yoshlar tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yil 1 oktyabrь holatiga ko‘ra 208038 ta a'zoga ega bo‘lib, undan 53,5%ini, ya'ni 111300 nafarini yoshlar tashkil etgan. Bu partiyaning "Yoshlar qanoti" safiga (2009 yilda tashkil topgan) 2018 yilga qadar 61248 nafar yoshlarni jalb etilganini ko‘rsatadi[26].

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasida ham "Yoshlar qanoti" 2004 yilda tashkil topgan. Partiya a'zolari soni 2010 yil holatiga ko‘ra 170609 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yil 1 noyabrь holatiga ko‘ra 544654 taga yetdi, ulardan 192000 tasi, ya'ni 35%ini yoshlar tashkil etadi[42].

2016 yildan boshlab O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy-huquqiy mavqeini belgilashda birmuncha ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Ulardan asosiysi yoshlarga doir davlat siyosati hisoblanadi, chunki aynan shu siyosat asosida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va muammolari masalalari kompleks ravishda o‘z yechimini topadi.

O‘zbekiston aholisining deyarli chorak qismi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlardir. Siyosiy partiyalar, aynan, yoshlarning ushbu qatlami bilan maqsadli ishlashni tashkil etmoqdalar. Xususan, 2021 yilda O‘zLiDeP partiya safida milliondan ortiq a'zo bo‘lib, ularning 502 ming nafari 18 yoshdan 35 yoshgacha yoshlar bo‘lgan.

Boshqa siyosiy partiyalar qatorida “Adolat” sotsial demokratik partiyasi saflarida ham ko‘p sonli yoshlar faoliyat yuritib, ular jamiyatdagi islohotlar jarayonlarida ishtirok etmoqdalar. Hozirgi vaqtda “Adolat” SDP 500 mingdan ortiq a'zolarining 187 mingga yaqini (37 %) 18 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ularning deyarli yarmi qizlar. 2019-2021 yillar oralig‘ida partiyaning yosh a'zolari soni 26 mingga ko‘paydi[7].

2021 yil holatiga ko‘ra Xalq demokratik partiyasida 2021 yil holatiga 500 mingdan ortiq a'zolari bo‘lib, ularning 247 mingdan ortig‘i 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etgan.

2019-2021 yillarda Xalq demokratik partiyasi “Deputat va yoshlar” loyihasi doirasida 202 ta tumanda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining uchrashuvlari va ko‘chma qabullari tashkil etilgan.

Nisbatan yosh bo‘lgan Ekologik partiyada ham yoshlar bilan ishlash tizimli rivojlanmoqda. Partiyaning “Yoshlar qanoti” mamlakatning ekologik jihatdan noqulay hududlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida yashovchi nogiron yoshlarga yordam berish uchun ijtimoiy platforma yaratilgan.

2021 yilda partiya safida 450 mingdan ortiq a'zolar bo‘lib, ularning 220 ming nafari yoshlardan iborat bo‘lgan. 28 kishi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzuridagi yoshlar parlamentiga jalb qilingan[7].

Keltirilgan qator omillar qatorida yosh avlodni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligi ayniqsa, mintaqaviy va global muammolarni sabablarini aniqlash, oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha faoliyatda ko‘zatilmoqda[17]. Bunda aynan, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarni qo‘llab-quvvat-lashga moyillik holatlari ko‘proq ko‘zatilmoqda[22]. Shu jihat, aholining mazkur qatlami bilan ish olib borishda ushbu qadriyatlarga urg‘u berishni samaradorligini namoyon etmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Siyosiy partiyalar yosh saylov-chilarni jalb qilish uchun ularga zamonaviy aloqa kanallari kerakligi davr talabiga aylandi. Ular asta-sekin ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirokini ko‘chaytirishmoqda, lekin saylovchi-larning siyosiy resurslarga jalb etilishi hali ham yetarli darajada emas.

Siyosiy partiyalar hozirgi kunga kelib jamiyatda yoshlar elektoral madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish borasida samarali ishlar olib bormoqda. Bu ishlarning samarasi, albatta, ularning bo‘lajak saylovlarda o‘z tarafdorlarining sonini oshishi istiqbolini ham belgilab beradi. o‘z navbatida, yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida o‘z

manfaatlarini siyosiy partiyalar doirasida ifoda etib, o‘z kelajaklarini o‘zlarining qo‘llari bilan barpo etadilar. Bu o‘zida siyosiy hamda elektoral jarayonlarda yoshlar madaniyatining takomillashuvi darajasini namoyon etadi.

Bugungi kunda, dunyo hamjamiyati o‘ziga xos taraqqiyot bosqichini boshdan kechirayotgan bir davrda yosh avlodning o‘z siyosiy huquqlaridan keksa avlod vakillariga qaraganda kamroq foydalanishi fuqarolik va siyosiy ishtiroki inqirozi sifatida baholanmoqda. Bu holatlar so‘nggi o‘n yilliklarda aksariyat holatlarda kuzatilmoqda. Ayrim tadqiqotchilar buning natijasida demokratiyaning kelajagi tahdid ostidaligini ham ta'kidlamoqdalar. Biroq, ushbu holatlar yosh avlodning ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lgan holat ekanligini ta'kidlaganlar ham bor[20,29].

Undan tashqari, bu yoshlarning siyosiy jarayonlardagi so‘stligi ko‘proq g‘arb jamiyatlari uchun xos deb baholaydilar. Zero, g‘arb jamiyatlarida demografik vaziyat shuni taqozo etsa, sharq va boshqa mintaqalarda demografik vaziyat o‘zgachadir[8].

Global jarayonlar yoshlarning fuqarolik va ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlarif faoliyatida keskin o‘zgarish-larga duch kelmoqda. Garchi milliy tajribalarda global tendentsiyalarga muttasil moslashuvchanlik holatlari ko‘zatilmasada, olib borilgan tadqiqotlar natijalari ushbu o‘zgarishlarning ijobiy oqibatlari ko‘proq ekanligiga asos beradi.

## ADABIYOTLAR


1. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида” ги қонуни. 1996 йил 26 декабрь, 337-I-сон.
2. ЎРҚ-406-сон 14.09.2016. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида (lex.uz);
3. 207-сон 31.05.1996. Ўзбекистон Республикаси ёшларининг «Камолот» жамғармасини қўллаб-қувватлаш тўғрисида (lex.uz);
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 23-сонли қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (president.uz).
6. Мирзиёев Ш. Ёшлар – бебаҳо хазинамиз, куч-қудратимиз ва буюк келажагимиз тимсоли // Янги Ўзбекистон. - № 252 (252), 2020 йил 26 декабрь, шанба. a9ed8427429fd7b85200e72ea19bc056.pdf (yuz.uz).
7. “Ёшлар қанотлари” сайлов пайтида партияларга ёрдам берадими? (plov.press). (мурожаат қилинган сана – 27.03.2024).
8. Barrett, M., & Pachi, D. (2019). Youth Civic and Political Engagement (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429025570. (мурожаат қилинган сана – 23.03.2024).
9. Bean, C., & Papadakis, E. (1994). Polarized priorities or flexible alternatives? Dimensionality in Inglehart’s materialism–postmaterialism scale. International Journal of Public Opinion Research, 6(3), 264–288;
10. Bennett W. L., Segerberg A. The logic of connective action: Digital media and the personalization of contentious politics //Information, communication & society. – 2012. – Т. 15. – №. 5. – С. 739-768 (748).
11. Council of Europe, Competences for Democratic Culture: Living Together as Equals in Culturally Diverse Democratic Societies (Strasbourg, Council of Europe Publishing, 2016). http://www.coe.int/en/web/education/competences-for-democratic-culture. (мурожаат қилинган сана – 23.03.2024).
12. Giddens, A. (1991). Modernity and self-identity: Self and society in the late modern age. Stanford: Stanford university press; Beck, U. (1992). From industrial society to the risk society: Questions of survival, social structure and ecological enlightenment. Theory, culture & society, 9(1), 97–123;
13. Inglehart, R. (1971). The silent revolution in Europe: Intergenerational change in post-industrial societies. American Political Science Review, 65(4), 991–1017;
14. Jiyanmuratova Gulnoz. Dynamics of socio-political activity of youth in Uzbekistan under conditions of civil society. International Journal of Social Studies. 2020, vol. 3, issue 1, pp. 15-25.
15. Karimov I. A. Free and prosperous homeland, a free and prosperous life is our ultimate goal. Tashkent, “Uzbekistan”, 2000. Volume 8.
16. Karimov Islam A (1993) Building the future; Uzbekistan - its own Model for Transition to Market Economy. Tashkent: Government Printing Office Tashkent.
17. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), Global Competency for an Inclusive World (Paris, 2016). https://www.oecd.org/education/Global-competency-for-an-inclusive-world.pdf. (мурожаат қилинган сана – 27.03.2024).
18. Philosophy: an encyclopedic dictionary. Tashkent, 2004
19. Rayimov A.A., Karimova G.Y. Social aspects of the formation of social activity in youth / Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (2), pp.29-32, 30 Aug, 2021 http://www.supportscience.uz/index.php/ojss/
20. Sloam, J., Henn, M. (2019). Rejuvenating Politics: Young Political Participation in a Changing World. In: Youthquake 2017. Palgrave Studies in Young People and Politics. Palgrave Studies in Young People and Politics. – Palgrave Macmillan, 2018. – pp. 17-42(24-25).
21. Verba, S., Schlozman, K. L., & Brady, H. E. (1995). Voice and equality: Civic voluntarism in American politics. Cambridge, MA: Harvard University Press;
22. Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО), Воспитание глобальной гражданственности: темы и цели обучения (Париж, 2015). http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002329/232993r.pdf. (мурожаат қилинган сана – 27.03.2024).
23. Всемирная программа действий для молодёжи до 2000 года и на последующий период. A_RES_50_81-RU.pdf;
24. Данные получены в ходе масштабных сравнительных исследований в рамках международных проектов CIVED и ICCS, проведенных Международной Ассоциацией по оценке учебных достижений (IEA). http://www.terpconnect.umd.edu/~jtpurta/ and http://www.iea.nl/iccs (на англ. яз.).
25. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций — Декларации — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы (un.org).

26. Жиянмуратова Г.Ш. Ўзбекистонда фуқарллик жамияти шароитида ёшлар ижтимоий –сиёсий фаоллиги динакмикаси. / Ижтимоий тадқиқотлар журнали. 3-жилд, 1-сон. 2020 йил. – Тошкент. – 18-28 бетлар.
27. Коммюнике Европейской комиссии к Совету, Европейскому парламенту, Европейскому комитету по экономической и социальной политике и Комитету регионов «Поддержка полноценного участия молодых людей в сфере образования занятости и обществе». Брюссель. 2007. 5 сент. COM (2007) 498. Цит. по: Сборник документов европейской молодежной политики / под ред. А.В. Соколова. М., 2007.
28. Кризис в сфере занятости молодёжи: Время действовать. Международное бюро труда. Женева, 2012. Электронный доступ ILC101-TRAITEXT-2012-11-0176-Ru (ilo.org); A/RES/50/81 13 March 1996.
29. Политическая партия как составная часть гражданского общества. https://nikavtocentr.ru/politiceskaya-partiya-kak-sostavnaya-cast-grazdanskogo-obshhestva.
30. Сабиров Н. Сиёсий модернизация жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг роли / Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 2 № 3 (2021) – 147-152 бетлар.
31. Саидов С. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар - UzAnalytics.
32. Салихов Э. Этапы становления и развития институтов гражданского общества в Узбекистане. Этапы становления и развития институтов гражданского общества в Узбекистане — Turkish Forum (turkishnews.com). (мурожаат қилинган сана – 22.09.2023).
33. Саъдуллаев А. Ёшлар билан ишлашнинг янги механизмлари / “Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Maqolalar to‘plami. – Toshkent – 2023. – 15-20 betlar.
34. Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 17 б
35. Убайдуллаева Б. Ўзбекларнинг ёш авлод тарбияси борасидаги аньаналари ва замонавийлик. – Тошкент, 2010; Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги жорий архиви. So‘rovnomalar - Yoshlar ishlari agentligi (gov.uz).
36. Ўзбекистон “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV курултойи (president.uz);
37. Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг устави. Устав | Ўзбекистон Халқ демократик партияси (xdp.uz);
38. Ўзбекистон электрон ОАВларидаги мақолаларнинг “Ёшлар интернет-макон кўзгусида” мавзусидаги контент таҳлили. Ёшлар интернет-макон кўзгусида - IF (ijtimoiyfikr.uz);
39. Умарова Н. Ёшлар сиёсатини амалга оширишдаги асосий муаммолар. Эксперт фикри. 16 ноябрь, 2016 йил. https://www.uzanalytics.com/jamiyat/8433/
40. Холмирзаев Н.Н. Ижтимоий фаоллик ва унинг даражалари / Scientific progress, Volume 2 | Issue 1 | 2021. – 1545-1548 бетлар;
41. Янгиликлар | O‘zLiDeP (uzlidep.uz).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 291.37(584.4)

***Bekjon QURBONOV,***
*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti O‘quv-uslubiy bo‘lim uslubchisi*
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*
*ORCID: 0000-0003-4555-6937*
*E-mail:bekjon@oliymahad.uz*

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD O.Tangirov taqrizi asosida*

## O‘ZBEKISTONDA HAJ ZIYORATINING QAYTA TIKLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Annotatsiya
Bosqinchi sovet davrida boshqa musulmon o‘lkalari kabi O‘zbekistondan ham islom dini arkonlariga ko‘plab taqiqlar qo‘yildi, jumladan Haj masalasida ham shunday bo‘ldi. Ushbu maqolada bu ulug‘ ibodatni tiklanishi va yo‘lga tushib ketishi qisqacha yoritildi.
**Kalit so‘zlar:** Ziyoratchi, haj, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining diniy boshqarmasi, Eshon Boboxon, Murodxo‘ja Solihiy.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ПАЛОМНИЧЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация
В советское время в Узбекистане, как и в других мусульманских странах, было введено множество запретов на исламские принципы, в том числе на вопрос о хадже. В этой статье кратко описывается восстановление и путь этой великой молитвы.
**Ключевые слова:** Паломник, Хадж, Духовное управление мусульман Средней Азии и Казахстана, Эшан Бабахан, Муродходжа Салихи.

## HISTORICAL STAGES OF THE RESTORATION OF THE PILGRIMAGE IN UZBEKISTAN

Annotation
During the Soviet era, Uzbekistan, like other Muslim countries, imposed many bans on Islamic principles, including the issue of Hajj. This article briefly outlines the restoration and path of this great prayer.
**Keywords:** Pilgrim, Hajj, Religious Board of Muslims of Central Asia and Kazakhstan, Eshan Babakhan, Murodkhoja Salihi

**Kirish.** O‘tgan asr 30-yillari o‘rtalarida Sovet hukumati Saudiya Arabistonidagi elchisini chaqirib olib, diplomatik aloqani bir tomonlama uzganidan beri dunyo musulmonlarining muqaddas joylariga yo‘l butkul yopildi. Shu tariqa Sovet Ittifoqidagi barcha musulmonlar bilan bir qatorda, O‘zbekiston musulmonlarining ham muqaddas shaharlar bo‘lmish Makka va Madinaga qiladigan ziyoratlari butunlay taqiqlangan.

Hajga borishga munosib ko‘rilgan nomzodlar ming chig‘iriqdan o‘tkazilar, sovet tuzumiga «sadoqat»lariga qoniqish hosil qilinganidan keyingina muborak safarga ruxsat etilar edi. Shunda ham O‘zbekiston musulmonlariga 5-6 tagina o‘rin ajratilardi. U zamonlarda Umra to‘g‘risida og‘iz ochish ham mumkin bo‘lmagan. Hajga borganlar istasalar umrani hajga qo‘shib birga ado etar edilar. Hojilar Saudiya Arabistonida bo‘lgan vaqtlarida nafaqat yerli arablar yoki boshqa xorijiy mamlakatlarning vakillari bilan aloqa qilish, balki vatandoshlar bilan ham diydor ko‘rishish taqiqlangan edi. O‘z navbatida, Saudiya Arabistoni ma’muriyati ham sovet xojilariga hadiksirab qarar, vatandoshlarning ular bilan ko‘rishishlariga yo‘l qo‘ymas edi. Shu bois ular sovet mamlakatidan kelgan hojilarni mehmonxonalariga emas, Zayni Ko‘shak ismli mutavaffif (Ka’batullohni tavof qildiruvchi)ning shaxsiy xonadoniga joylashtirishar edi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sovet hokimiyatining O‘rta Osiyoda o‘rnatilishi keyingi o‘n yillik davrda ko‘plab masjid va barcha madrasalarning yopilishiga olib keldi. Stalin davlatning islom dini bilan bo‘ladigan munosabatlarining asosiy yo‘nalishida siyosatni qat’iylashtirdi, sovet hokimiyatini kuchaytirishga e’tiborini qaratdi. Natijada, 1929 yilga kelib O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimi batamom to‘xtatildi. Makkaga sovet musulmonlarining oqimi asta-sekin kamaydi Sovet Ittifoqi, xususan, O‘zbekiston SSRdan XX asr 20-yillarining oxirlaridan e’tiboran keskin kamaygan haj safarlari 1930 yillarning boshida to‘xtadi[2].

Tarix fanlari doktori, professor V.V.Naumkinning ta’kidlashicha, 1932 yilda sovet musulmonlaridan hajga boruvchilar yo‘qligi uchun Riyoz jiddiy tashvishga tushgan. Biroq Moskva o‘z hamkorlarini bu ish hajga boruvchilarning o‘zlariga bog‘liq masala deb Sovet hukumatining bu ishga hech qanday aloqasi yo‘qligini ishontirishga harakat qilgan va bir guruh fransuzlar va inglizlar hojilarning Bosfor hamda Dardanel bo‘g‘ozlaridan o‘tishlariga ruxsat bermayotganlarini tushuntirishga harakat qilgan[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oradan qariyb 15 yil o‘tib Sovet davlati II Jahon urushiga kirgandan keyin ittifoq hududida dinga va dindorlarga munosabat o‘zgardi, xususan, musulmonlarga munosabat yangicha tus oldi.. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida Sovet Ittifoqining dinga qarshi siyosati qanchalar puch ekanligi namoyon bo‘la boshladi.

Masjidlarning yopilishi va din peshvolariga qilingan tahdidlarga qaramay, aholi diniy qadriyatlaridan voz kechmadi. Mamlakat bo‘ylab vujudga kelgan xavf rahbariyat olib borayotgan din siyosatining turli jabhalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Urush boshlarida Qizil armiyaning yengilishi fashizm ustidan g‘alaba qozonish uchun aholiga ruhiy madad berish kerakligini ko‘rsatdi. Davlatning yaxlitligiga tahdid bo‘lgach, Stalin ba’zi prinsiplaridan voz kechib, g‘alabaga erishish uchun yangi siyosat yuritishga majbur bo‘ldi.

Musulmonlarga masjidlarga borish va ba’zi diniy marosimlarni bajarish ruxsat etildi. Shahar va qishloqlar aholisi dinga qarshi siyosat davrida yopilgan masjidlarni ochilishini so‘rab arizalar bera boshladi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston aholisi bu borada nisbatan faol bo‘lgan. Bu hududlar aholisi urush qiyinchiliklarini boshidan o‘tkazayotgandi. Erkaklar soni kamaygan va ijtimoiy ahvol og‘irlashib qolgan edi. Urush davrida din peshvolarining aksariyati bosqinchilarga qarshi olib borilayotgan siyosatni qo‘llab quvvatlagan.

1943 yil Toshkent shahrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining diniy boshqarmasi (SADUM) tashkil etildi[4]. Mazkur diniy boshqarma tashkil topgach shahar va qishloqlarda diniy xayot jonlandi. Masjidlar ochila boshladi va diniy birlashmalar tashkil etildi. Masjidlarda namozlar ochiq ado etilar va g‘alaba so‘rab duoga qo‘l ochilardi. Juma namozlari so‘nggida ko‘pincha imom Sovet ittifoqiga Allohdan madad so‘rardi. Masjidlarga odamlar qatnovi ko‘payishi bilan birga mahalliy muqaddas qadamjolar ziyorati ham jonlanadi. Chunki, muqaddas qadamjolar ham aholi hayotida alohida o‘rin tutardi.

**Tahlil va natijalar.** Umuman olganda, din Sovet davlatiga bostirib kirgan fashist Germaniyasi uchun ham, o‘z yeri mudofaasiga shaylangan Sovet hukumati uchun ham g‘oyaviy-mafkuraviy qurolga aylandi. Zero, fashistlar bu urushda qurol-yarog‘ning o‘zi yetarli bo‘lmasligini yaxshi tushunganlari uchun kommunistik tuzum gegemonligi va ateistik siyosatini qoralash orqali ittifoq tarkibidagi turli millat va din vakillari orasida siyosiy tarqoqlikni yuzaga keltirishni ko‘zladilar. Sovet hukumati esa aksincha yo‘l tutdi: dinga qarshi tazyiq o‘tkazishni vaqtincha to‘xtatish yoki yengillashtirish orqali turli millat va turli e’tiqoddagi xalqlarni fashist qo‘shinlariga qarshi kurashishga jalb qilish muhimligini tezda tushunib yetdi. Shuningdek, dunyoda o‘zini demokratiya uchun kurashuvchi davlat qilib ko‘rsatadigan ittifoqchi AQSH va Angliya kabi davlatlarning ham undovi, qolaversa, aholini frontga keng ko‘lamli jalb qilish maqsadida diniy siyosatni keskin yumshatishga majbur bo‘ldi[5].

Ikkinchi jahon urushi ayni qizigan pallada sovet hukumati ittifoqchi mamlakatlarning ikkinchi frontni ochishiga muhtoj bo‘ldi. Ammo G‘arb davlatlari buning uchun bir nechta shart qo‘yishgan edi. Shulardan biri - xalqqa diniy erkinlik berish edi. Sovet davlati rahbari I.V.Stalin britaniyalik mashhur din va jamoat arbobi, Jahon Tinchlik Kengashi a’zosi Xyulet Jonson bilan Moskvadagi uchrashuvlarida uning taklif va tavsiyalarini hisobga olib, fashizmga qarshi kurashda dindor kishilarning xalq orasidagi ta’sir kuchidan ham foydalanish maqsadida bu sohadagi ayovsizlik bilan amalga oshirilayotgan “diniy arboblarni qirib tashlash” siyosatini to‘xatishdan boshqa yo‘li qolmadi[6].

Markaziy Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining raisi Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon hazratlari 1944 yilning 25 avgust kuni hajga yuborish haqida Sobiq Ittifoq Din ishlari bo‘yicha kengash raisi I.V.Polyanskiy nomiga talabnoma yozdi. I.V. Polyanskiy talabnomani o‘rganib, V.M.Molotovga murojaat qildi. Xususan, 1944 yildan boshlab sovet hukumati muqaddas haj ziyoratini ado etishga ruxsat beradi. Shu yilning o‘zida O‘zbekistondan, Tojikistondan va Qozog‘istondan jami 6 nafar kishi Sovet Ittifoqi davrida ilk bor haj safariga otlanadi[7].

Ilk bor haj ziyoratiga borgan 6 nafar kishi: Murodxo‘ja Solihiy (Solihov Murodxo‘ja Solihovich) (1873-1953), Toshkent shahrida, Shayhontoxur dahasi, Tarnovboshi mahallasida tug‘ilgan. 1903 yilga qadar Toshkentda, keyinchalik Buxoro madrasasida tahsil olgan. 1903-1943 yillarda Toshkentda mudarris imom bo‘lgan. 1943 yilning kuzida Murodxo‘ja Solihov O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Musulmonlar diniy boshqarmasi raisi o‘rinbosari etib saylangan.

Ismoil Qori (1893-1976), Yangiqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan (hozirgi Namangan viloyatida). U 13 yoshida Qur’onni to‘la yod oladi, keyinchalik Mulla Qirg‘iz madrasasida tafsir, hadis va fiqh ilmi bo‘yicha tahsil olgan.

Yangiboy Abdulxayr (Abdulxayrov Jonboy Abdulxayrovich), 1885 yilda Qoraqalpoq ASSR, Shabaz rayonida tug‘ilgan.

Musin Muxametgali (Musinov Muxamed Gali), 1887 yilda Qozog‘istonni Qarag‘anda viloyatining Qarqalin tumanida tug‘ilgan.

Abdulmajid qori Yusufzoda (Yusupov Abdulmajid Yusupovich), 1899 yilda Xo‘jandda (Tojikiston) tug‘ilgan, 1924 yilga qadar diniy maktabda tahsil olgan.

Abdulbariy Afandi (Sobirov Abdulbari Abdulloivich), 1879 yilda tug‘ilgan. Qozog‘istonning Ko‘stanay viloyatida yashagan.

Mana shu tarzda yillar davomidagi ta’qiqlardan so‘ng 1944 yildan boshlab, haj kabi muhim voqea Sobiq Ittifoqdagi musulmonlar hayotida haqiqatga aylandi, ammo har yili kam sonli shaxslargina borardi. Faqatgina 1990 yilga kelib, Ittifoqdan taxminan 1500 nafar ziyoratchi, 1991 yilda taxminan 2500 nafar ziyoratchi hajga borgan. Bu esa 1945 yildan to 1989 yilgacha bo‘lgan davrda hajga borgan ziyoratchilar sonidan ko‘pdir[8].

O‘lkamiz musulmonlari hayotidagi eng qorong‘u sahifalaridan biri Sobiq Ittifoq davrida yurtdoshlarimizning hajga borishdan to‘silganlari hisoblanib, bu to‘siqni olinishi Sovet Ittifoqining musulmon davlatlari bilan uzilgan aloqalarini tiklash maqsadida amalga oshirilgan edi aslida. Buni arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan din ishlari bo‘yicha kengashga berilgan hisobotdan ham payqash mumkin: “1944 yil 7 noyabr sanasida Toshkentdan Makka va Madinaga ketgan 6 nafar ziyoratchi 1945 yil 15 fevral kuni qaytdi. Ular Erondagi Tehron, Mashhad shaharlari hamda Iroqdagi Bog‘dod, Misrdagi Qohira, Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shaharlarini ziyorat qildilar. Butun yo‘lni ular mashinada va qisman samolyotda bosib o‘tdilar. Barcha mamlakatlarda ular Sovet Ittifoqining konsullik idoralariga murojaat etishdi va uning yordamiga tayanishdi. Iroqda ular Angliya konsulligining yordami bilan Qohira orqali Jiddagacha samolyotda yetib olishdi. Ziyoratchilar deyarli barcha shaharlarda rasmiylar bilan uchrashgan. Saudiya Arabistonida ular Makka va Madina voliylari va Saudiya Arabistoni podshosi A.Feysal qabulida bo‘ladilar. Shuningdek, ular sharafiga tashkillashtirilgan marosimlarda qatnashgan. Eron, Bog‘dod, Misr va Madinada ziyoratchilar SSSRdan ko‘chib, qochib ketgan bir qancha o‘zbeklarni uchratadilar. Ularning ayrimlari xonadonida mehmonda bo‘ldilar”. Safar chog‘ida Shayx Murodxo‘ja Solihiy o‘lkamizda islom an’analarining tiklanishi va rivoj topishi haqida fors va arab tillarida ajoyib ma’ruzalar qiladi. Haj safari amalga oshirilganligi haqidagi axborot va rasmlar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Diniy nazorati jurnalining 1946 yil 3-4-sonlarida keng jamoatchilikka ma’lum qilinadi[9].

1945 yil Sovet Ittifoqidan Eshon Boboxonov rahbarligidagi jami 22 kishiga haj ibodatini ado etishlari uchun hukumat tomonidan ruxsat berilgan[10:]. Ular orasida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasidan Eshon Boboxonov boshchiligida yetti kishi borgan[11]. Bu adad qanchalik kam ekanligini bilish uchun o‘sha yili ya’ni 1945 yilgi haj mavsumida butun dunyodan 200000 ga yaqin musulmon haj ibodatini ado etish uchun Makkaga tashrif buyurgan[11].

**Xulosa.** Sovet hukumati ilk yillarda haj safarlariga qarshi munosabatini ochiq namoyon qilmagan bo‘lsa-da, matbuot orqali mahalliy aholini haj safarlaridan sovitish,

qaytarishga doir turli maqolalar e'lon qilib borgan hamda bu borada, mahalliy va xorijiy dindorlardan ham foydalanilgan. Xususiy mulkning yo'q qilinishi, kolxozlashtirish siyosati XX asrning 20-yillaridan boshlab, O'rta Osiyo musulmonlarining haj safarlarining o'z-o'zidan keskin kamayishiga sabab bo'lgan. Sovet hukumati barcha diniy marosimlar bilan bir qatorda, haj safarlariga ham sun'iy to'siqlar qo'ya boshlagan va XX asrning 30-yillaridan boshlab, O'rta Osiyo musulmonlarining haj safarlari butunlay cheklangan.

XX asrning 1944-80-yillarida Sovet hukumati haj safarlari orqali musulmon olamida SSSRga nisbatan salbiy munosabatni o'zgartirishda va Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosatida hojilardan foydalanishga harakat qilgan. O'rta Osiyo va Qozog'iston Musulmonlari diniy boshqarmasining xalqaro aloqalari, ayniqsa, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ilmiy va madaniy aloqalarida haj safarlari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, haj safarlari asnosida, diniy ta'lim sohasi bo'yicha Misrning «Al-Azhar» va Madina islom universitetlari bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Sovet Ittifoqi va Saudiya Arabistoni podshohligi o'rtasida hech qanday diplomatik aloqalar yo'qligiga qaramay, O'rta Osiyo va Qozog'iston Musulmonlari diniy boshqarmasi rahbariyatining sa'y-harakatlari bilan haj safarlari amalga oshirilgan.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarni o'rganib, hozirgi kunimizga solishtiradigan bo'lsak nihoyatda katta tafovutni ko'ramiz. Istiqlol xalqimiz uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Uning xalqimizga bergan baxt-saodatining had-hududi yo'q. Mustaqillik tufayli dinimiz va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Yurtdoshlarimiz ibodatlarini emin-erkin ado etish hamda yaratilgan qulay sharoitlarda va bevosita davlat ko'magi ostida Muborak Haj va Umra ziyoratlarini ham bajarish baxtiga muyassar bo'ldilar.

**ADABIYOTLAR**


1. Шоший А. Идора тарихига бир назар. – Ҳидоят 9-сон, 2003.
2. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Т. Tafakkur. 2015.
3. Ат-Турки М. Саудовско-российские отношения в глобальных и региональных процессах (1926–2004 гг.) //М.: Прогресс., 2005.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1999.
5. Maria Elisabeth Louw. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. - New York: Routledge. 2007.
6. Саидқосимов С. Улуғ инсонлар маънавияти: Шамсиддинхон Зиёвуддинхон ўғли Бобохонов – жамоат арбоби, муфтий, дипломат, исломшунос ва арабшунос олим (1937-2003). – Тошкент: Бактриа пресс, 2017.
7. Ахмадуллин В.А. Деятельность советского государства по организации хаджа советских мусульман в 1944 г //Власть. – 2013. – №. 6.
8. Шоший А. Ҳажнома. – Тошкент, 1991.
9. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. №13414 рақамли қўлёзма.
10. Асадуллин Ф. А. Москва мусульманская: история и современность //Очерки. – М.: Умма. – 2004.
11. ЎзМА. 2456-фонд, 1-рўйхат, 60-йиғмажилд

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:908

*Oydinoy OCHILOVA,*
*Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD*
*E-mail:o_ochilova@mail.ru*

*QarDU dotsenti v.b., PhD B.Mamatqulov taqrizi asosida*

## O‘RTA OSIYO XONLIKLARIDAGI MASHHUR TABIBLAR FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada so‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo xonliklari aholi turmushida an’anaviy tibbiyot muhim o‘rin tutgan, tabiblarning davolash usullari hamda vositalari asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib, boyib borgani haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Tibbiyot sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar karvon yo‘llarida tibbiy xizmat ko‘rsatish rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘rta asrlar davriga kelib bu sohada ma’lum yutuqlar qo‘lga kiritildi. Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko‘rsatish sirlari odatda avloddan-avlodga meros sifatida o‘tib, ko‘plab tabiblar sulolalari paydo bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar:** Tibbiyot, tabobat, tabib, shifoxona, O‘rta Osiyo, tabiblar sulolasi, dorishunoslik, shifobaxsh o‘simliklar, shifobaxsh o‘simliklar, shifo beruvchi manzil, dori-darmonlar, tib ilmi.

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИЗВЕСТНЫХ ЦЕЛИТЕЛЕЙ В СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВАХ

Аннотация

В данной статье изложены сведения о том, что традиционная медицина играла важную роль в жизни народов среднеазиатских ханств позднего средневековья, а методы и инструменты врачевания передавались из поколения в поколение, совершенствовались и обогащались на протяжении веков века. Достижения в области медицины положительно повлияли на развитие медицинского обслуживания на караванных путях. К Средним векам в этой области были достигнуты определенные успехи. Медицинские знания и секреты врачебной помощи обычно передавались из поколения в поколение, в результате чего возникло множество династий врачей.

**Ключевые слова:** Медицина, медицина, целительница, больница, Средняя Азия, династия целителей, фармакология, лекарственные растения, лекарственные растения, Лечебный адрес, Лекарства, медицинская наука.

## ACTIVITIES OF FAMOUS HEALERS IN THE KHANATES OF CENTRAL ASIA

Annotation

This article provides information that traditional medicine played an important role in the life of the peoples of the Central Asian khanates of the late Middle Ages, and healing methods and tools were passed down from generation to generation, improved and enriched over the centuries. Advances in the field of medicine have had a positive impact on the development of medical services along the caravan routes. By the Middle Ages, certain successes were achieved in this area. Medical knowledge and the secrets of healing were usually passed down from generation to generation, resulting in many dynasties of doctors.

**Keywords:** Medicine, hospital, Central Asia, doctors, pharmacology, medicinal plants, medicinal plants, Medical address, Medicines, medical science.

**Kirish.** XVIII asr o‘rtalarida hozirgi O‘zbekiston hududi va qo‘shni Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston yerlarining katta qismi Qo‘qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligi o‘rtasida bo‘lindi. Xonliklar mustahkam birlashmalar emas edi. O‘z navbatida ushbu omil odamlarning turmush darajasi pasayishiga va turli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘lgan. Ayrim xonlar mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarishga, hokimiyatni mustahkamlashga va qandaydir tarzda aholi hayotini osonlashtirishga harakat qilishdi. Ammo shunday bo‘lsada tibbiyot sohasini taraqqiy etishiga hissa qo‘shuvchi olimlarimiz ham ilmiy ishlar bilan shug‘ullanib tabobat ilmiga katta hissa qo‘shishgan.

Shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi jamiyatning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida tibbiyot fanining shakllanishi va rivojlanishi tarixini bilmasdan mumkin emas. Tibbiy bilimlarni davolash va o‘zlashtirishning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish ma'lum tarixiy davrlar tarixi, falsafasi, tabiiy tarixi va madaniyatini o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir.

Tibbiyot tarixi ko‘pincha o‘tmishdagi shifokorlarning ulug‘vor hayotini qayta tiklaydi, ularning xalq oldidagi xizmatlarini ochib beradi, ularning yutuqlarini yoritadi va baholaydi.

Antik davrning buyuk tabiblarining yutuqlari ko‘p asrlar davomida zamondoshlariga ham, keyingi avlod shifokorlariga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatdi. O‘z davridan oldinda bo‘lgan bu odamlarning hayoti davomida ularning kashfiyotlari va yangiliklarining aksariyati turli sabablarga ko‘ra amalga oshirilmadi, ammo keyinchalik ular qadrlandi.

Ushbu tadqiqot ishida asosan O‘rta Osiyo xonliklari-dagi mashhur tabiblar faoliyati yoritilgan.

**Materiallar va metodlar.** Xalq tabobati juda qadimdanoq dunyoning barcha joylarida ma’lum va mashhur bo‘lgan. Tabiblarning davolash usullari hamda vositalari asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib, boyib borgan. Tabiblar, avvalo, o‘zlaridan oldin o‘tgan hakimlarning davolash usullari va tajribalariga suyanishgan[1].

O‘zbekistonda xalq tabobati tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadim zamonlardan boshlab tabiblar inson salomatligini tiklashda asosiy o‘rin tutganlar. Ular nafaqat oddiy xalq orasida, balki yuqori tabaqa vakillari, aslzodalar o‘rtasida ham obro‘-e’tibor va ishonch qozonganlar. Ular aholining turmush sharoiti, urf-odati va ruhiyatdan kelib chiqib bemorlarni muolaja qilganlar.

Shayboniylar davrida O‘zbekiston hududida yashagan yirik tabiblardan bizga Muhammad Husayn al-Miroqiy as-

Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kaxxol, Sulton Ali Xurosoniy, toshkentlik Mullo Muhammad Yusuf tabib, Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxol, Mir Muhammad husayn al Oqiliylar ma’lum. Muhammad husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy 1545 yilda dorishunoslikga oid bir asar yozib, unda har xil shifobaxsh o‘simliklarning xossalari, ularni izlab topish, dori tayyorlash va ishlatish usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o‘simliklarning rangli rasmlari berilgan, dorixonada ishlatiladigan asbob-uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning rasmlari ham keltirilgan.

Muhammad Husayn Miroqiyning bu kitobi dorixona xodimlari uchun dastur rolini bajargan. Undan tabiblar ham foydalanganlar, chunki ular bemorlarga dorini o‘zlari tayyorlab berganlar. Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kaxxol asli toshkentlik bo‘lib, kaxxol ya’ni ko‘z tabibi edi. Bu sohada u eng ko‘zga ko‘ringan mutaxassis hisoblanardi.

Ashtarxoniylar hukmronlik qilgan davrda Movorounnahrda iqtisodiy va madaniy hayot sohasida unchalik siljish ko‘zga ko‘rinmadi. Bundan tibbiyot istisno edi. Bu sohaga zarurat bo‘lganligi uchun ba’zi bir siljish alomatlari ko‘rindi. Ayrim shaharlarda kasalxonalar barpo etildi. Ularda bemorlarni davolash bilan birga talabalar ham o‘qitilar edi.

Bu vaqtdagi ko‘zga ko‘ringan tabiblardan biri – Subxonqulixon (Sayid Muhammad Subxonqulixon ibn Saydiod Muhammadxon)dir[2]. Subxonqulixon Buxoro amiri edi. U har xil fanlar bilan qiziqqan, ayniqsa, tibbiyot bilan ko‘proq shug‘ullangan. Subxonqulixon saroyda tabiblarni yig‘ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar o‘tkazib turar edi. Subxoniqulixonning amaliy tibbiyot bilan shug‘ullangani ma’lum emas, ammo tibga oid ikkita asari borligi ma’lum. Bular “Subxon tibbiyoti” va “Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti” dir.

O‘zbekistonning har bir viloyati, shahri va tumanlarida o‘zlarining mashhur siniqchi-tabiblari dardmandlarini tuzata bilganlar. Siniqchilarning davolash usullari zamonaviy tibbiyot usullaridan farq qilgan. Chunonchi, singan yoki chiqqan suyaklarni qisqa muddatda o‘zlari tayyorlagan dori-dormonlar bilan asl holiga keltira bilishgan. Shu bosidan ularni xalq ehtirom ila “Usta” deb atagan.

O‘zbek xonliklarida XVIII – XIX asrlarda tibbiyotni rivojlanishi va tabiblarning faoliyati haqida ma’lumotlar kamligiga qaraganda, ular unchalik ko‘p bo‘lmagan. Quyida ayrim tabiblar va ularning faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Solih ibn Muhammad Qandahoriy – o‘zbek xonliklaridagi ko‘zga ko‘ringan tabiblardan biri bo‘lgan. U Hirotda tug‘ilgan va amir Shohmurod (1785 – 1800) davrida Buxoroda tabiblik bilan shug‘ullangan. Solih ibn Muhammad ko‘proq bolalar kasalliklari bilan shug‘ullangan va uni ishlarining asosiy qismi pediatriyaga bag‘ishlangan. Uning asarlaridan biri “Tuhfat al-shoista” (“Arzigulik sovg‘a”) asari hisoblanadi[3].

Ushbu davrda mashhur “Tuxfai ahli Buxoro” (1912 y.) asarining muallifi Mirzo Sirojiddin Xakim Buxoriy (1877-1914 yillar) tabib sifatida faoliyat yuritgan. Mirzo Sirojiddin ovrupacha ilmiy tibbiyotni birinchilar qatorida o‘rganib, (u Tehronda Amerika tibbiy kollejini bitirib, shaxodatnoma olgan va muayyan vaqt amerikalik tabiblar bilan xamkorlikda Tehron kasalxonasida ishlagan) uni o‘z vatanida targ‘ib va joriy qilgan hakimlardandir. U Buxoro aholisini soxta tabiblardan ehtiyot bo‘lishga davat etgan va sharni zamonaviy usulda davolash maqsadida ko‘p ishlar qilgan. Uning “Tuxfai axli Buxoro” asari Yaqin Sharq va Ovro‘po mamlakatlaridagi tibbiyot taraqqiyotidan xabar beruvchi, aholiga tibbiyotga nisbatan rag‘bat uyg‘otuvchi manbadir. U musulmon mamlakatlari nufuzi kamayib borishining asosiy sababini xifz-us-sixat (sog‘likni saqlash) qoidalariga rioya qilmaslik va aholi darajasining pastligida, tajribali tabiblar va kasalxonalarning kamligida deb biladi[4].

**Tahlil va natijalar.** Shahrisabz O‘zbekistonning qadimiy go‘shalaridan biridir. Shahrisabz shahrining Qozi guzarida Mamatmurod (1882-1920 yillar) degan tabib o‘tgan. U kishi nihoyatda bilimdon bo‘lgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Xiva shaharlariga safar qilib, ko‘plab bemorlarni davolagan. Tabib farzandi Eshonqulni ham 20 yoshigacha elga taniqli tabib qilib tarbiyalagan. Shuningdek, xalq tabobati sohasidagi mahoratlarini boshqa tabiblarga ham o‘rgatgan.

Boshqa bir tabib Xoliqdahvoshi Nurjon, u kishining rafiqasi Xoliqova Sofiya, nabirasi Ahmad hoji tabib Ravot qishlog‘ida yashagan Tursun Ortiqov, ayni paytda Miroqi qo‘rg‘onchasida istiqomat qilayotgan uning o‘g‘li Abdusamad Tursunov, Shahrisabz shahrida yashagan Yusuf Boqi, Halim, Ahmadjon, Lutfullo Ubaydullayev kabi tabiblar tabobat bilan shug‘ullanib, ko‘plab kishilarning dardlariga davo topganlar[5].

XIV-XV asrlarda ham tabobat ilmi o‘zining yirik namoyandalariga ega edi. Xususan, Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burxoniddin Nafis ibn Evaz xakim al-Kirmoniy, Sulton Ali tabib Xurosoniy, tabib Xusayn Jarrox, shular jumlasidandir.

XVI asrga oid ma’lumotlarda Samarqandda tabiblar, ko‘z tabiblari, shikastabandlarning muolaja ishlari bilan shug‘ullanganlari xaqida ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, ko‘z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon o‘sha davrda Navro‘z Axmadxon xuzurida ishlagan. Ko‘chkunchixon zamonida Samarqandda “xurosonlik tabib” Sulton Ali faoliyat olib borgan. U kasalliklar haqida umumiy ma’lumot beruvchi “Tabiblik dasturilamali”ni yozgan.

Barcha xonliklarda asosan konfessional maktablar bo‘lgan. Madrasalardagi ta’limni mazmunini eski kitoblardagi bahslar, musulmoncha qarashlar va ta’limotlar edi. O‘rta Osiyoga Yevropa va Rossiyadagi o‘sha davrda rivojlangan fani va texnikasini kam kirib keldi. Saviyasi baland kishilar kuzatuv ostida bo‘lgan. Faqatgina bir-ikkita hukamatga yaqin shoir va olimlargina ma’lum darajada erkinroq ishlash va asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lganlar.

Masalan Xiva xoni Muhammad Rahim II buyrugiga binoan, shoir va tabib Ahmad Tabibiy Xiva antologiyasi haqida she’r yozgan. Ahmad Tabibiy Xiva xoni Muhammad Rahim II ni tabibi bo‘lgan. Qo‘qon xonligida xuddi shunga o‘xshash antalogiyani shoir Fazli yozgan.

O‘zbekistanda XVIII – XIX asrlarda tibbiyotni rivojlanishi va tabiblarning faoliyati haqida ma’lumotlar kamligiga qaraganda, ular unchalik ko‘p bo‘lmagan.

XIX asrning oxirlaridagi Xorazm tabiblaridan biri Jafar Xoja Xazoraspiy (Jafar Xoja ibn Nasriddin Xoja al-Xusayn Karvakiy Xazoraspiy) hisoblanadi. Uning asarlari sharqning asosiy yo‘nalishi mijoz haqida bo‘lgan. Xazoraspiy kasallik rivojlanganda organizmni suyuk qismida o‘zgarishlar yuzaga keladi deb hisoblagan. Shu sababli bemorlarga dori vositalari berishdan avval qon chiqarish kerak deb hisoblagan. Xazoraspiyning «Tibbiyot ilmining yig‘indisi» nomli asari mashhurdir[6].

Manbalardan bizga ma’lumki qadimgi davrdan to xozirgi kungacha xalq tabobatida tabiblar alohida o‘rin tutgan. Tabiblar turli xil dorivor giyohlar yordamida kasallar dardiga davo izlashgan. Aynan, XVII asr oxiridan to XX asr boshlarigacha tibbiyotga oid maxsus asarlar bo‘lmasada, "Devoni Bayoniy", "Shajarayi Xorazmshohiy" ("Xorazmshohlar shajarasi"), "Xorazm tarixi" nomli she’riy va nasriy asarlarida xalq tabobatiga oid ayrim fikrlarni uchratamiz[7].

**Muhokama.** Markaziy Osiyo xalq tabobati tabiblarining fikricha, suv koinotning eng muhim

elementlaridan biridir. Havo, yer bilan birga va olov (quyosh) suv muqaddas saqlanishi kerak. Suvni ifloslantirish katta gunoh sanaladi. Aholi suv manbalari va ariqlarning sanitariya holatini qattiq nazoratga olinishi lozim.

Tabiblar orasida oziq-ovqat gigiyenasi masalalari alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, kasallarni davolashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek ular, dietaga katta ahamiyat berishgan. Tabiblar birinchi navbatda bemorning tabiatini aniqladilar va shunga mos ravishda tegishli tavsiyalar berishgan.

Umuman olganda, qadimgi Sharq tibbiyotining jahon tibbiyotining rivojlanishiga ta’siri juda katta. Bu ko‘plab ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirildi va uning tarixining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi.

O‘rta Osiyo buyuk tabiblari yuqori bilimga, juda keng bilim va qiziqishlarga, g‘ayrioddiy mehnatsevarlikka, ko‘p qirrali iste'dodlarga va falsafiy tafakkurga ega edilar. Ular insonparvarlik va insoniylikning yuqori vazifasini bajardilar, tibbiyot, ta'lim va ilm-fan rivojiga katta ta'sir ko‘rsatdilar, bu esa jamiyatning umumiy taraqqiyotini tezlashtirdi.

Ilm-fan sohasi sifatida tibbiyot tarixi dunyoning turli mamlakatlarida qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha davolanish va tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishining global - tarixiy jarayonining umumiy qonuniyatlarini, insoniyatning rivojlanishi sharoitida tibbiyot sohasidagi taniqli sivilizatsiyalar va har bir davrning yutuqlarini va tibbiyot tarixidagi qiziqarli voqealar, buyuk olimlarning hayoti-shifokorlar, tibbiy amaliyotning mukammalligi tadqiq qilinadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ko‘p asrlar davomida O‘rta Osiyo tabiblari geografik, tabiiy va iqlim sharoitlarini o‘rganib, tabobat ilmiga katta hissa qo‘shishgan, ma’lum bir tibbiy qoidalarni ishlab chiqdilar.

Ushbu davrda an’anaviy tibbiyot shifokorlari yetarli edi, diagnostika, dori vositalarining farmakoterapevtik va toksikologik xususiyatlari, bemor psixologiyasi bo‘yicha o‘z davri uchun yaxshi bilimga ega bo‘lishgan. Ularning bilim, empirizmdan tashqari, o‘rta asr tibbiyot klassiklari Ibn Sino, Ar-Roziy va boshqalarning ta'limotiga asoslanadi va ular orqali qadimgi yunon va qadimgi rim ta'limotlari haqida ma’lumot olish mumkin.

Umuman olganda ushbu davrda tibbiyot sohasida ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanib muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritishgan deyish mumkin. Bu esa o‘z navbatida mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qilgan.

**ADABIYOTLAR**

1. Шодиев Т. Шаҳрисабзда тиббиёт тараққиётининг нурли йўли. Халқ табобати тарихи // Қарши “насаф” нашриёти 2004, 13-бет.
2. Akbar Zamonov. Ashtarxoniy hukmdorlari. – Toshkent, Bayoz nashriyoti, 2021.
3. Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova SH. A. Tibbiyot tarixi. – T., 2014. – 207 b.
4. Rajabova S. Unutilgan tabib. Fan va turmush.- Tashkent, 1997. -;№1.-B..32
5. Шодиев Т. Шаҳрисабзда тиббиёт тараққиётининг нурли йўли. Халқ табобати тарихи. / Қарши “насаф” нашриёти 2004, 13-бет.
6. Rustamova X.YE., Stojarova N.K. Tibbiyot tarixi. – T., 2004. 132-133-betlar.
7. Абдуллаев О.Б. Хоразмлик тарихчи олимлар. – Урганч: УрДУ, 2007. – Б 49

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 377.8**

***Korinna SABITOVA,***
*EMU Universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: scully2608@gmail.com*

*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc, S.Gabrielyan sharh asosida*

## O‘ZBEKISTONDA 1932-1936 YILLARDA PEDAGOGIK TEXNIKALARNING QONIQARARSIZ TAYYORLANISH MUAMMOSI VA UNI YECHISH YO‘LLARI

Annotatsiya
Muallif ushbu maqolada 1932-1936 yillarda O‘zbekiston pedagogika texnikumlarida o‘qituvchi kadrlar yetishmasligi sabablarini tahlil qilib, respublika rahbariyati tomonidan kadrlar va ilmiy yetishmovchilikni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarni bayon etadi. xodimlar.
**Kalit so‘zlar:** Pedagogik kadrlar, O‘zbekiston, pedagogika texnikumlari, umumta’lim maktablari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagog kadrlar yetishmasligi, o‘qituvchilarning ish haqi, 1930-yillar.

## THE PROBLEM OF UNSATISFACTORY PREPARATION OF PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN UZBEKISTAN IN THE PERIOD 1932-1936 AND WAYS TO SOLUTION IT

Annotatsiya
In this article, the author analyzes the reasons for the personnel shortage of teaching staff in pedagogical technical schools of Uzbekistan in the period from 1932 to 1936 and describes the measures taken by the leadership of the republic to solve the personnel and scientific shortage of personnel.
**Key words:** Teaching staff, Uzbekistan, pedagogical technical schools, universal education, primary school teachers, shortage of teaching staff, teachers' salaries, 1930s.

## ПРОБЛЕМА НЕУДОВЛЕТВОРИТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНИКУМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРИОД 1932-1936 ГГ. И ПУТИ ЕЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация
В данной статье автор анализирует причины кадрового дефицита педагогических кадров в педагогических техникумах Узбекистана в период с 1932 по 1936 годы и описывает меры, принимаемые руководством республики для решения кадрового и научного дефицита специалистов.
**Ключевые слова:** Педагогические кадры, Узбекистан, педагогические техникумы, всеобщее образование, учителя начальных классов, нехватка педагогических кадров, зарплата учителей, 1930-е годы.

**Введение**. 1917 год стал переломным не только в истории России, но также и переломным в истории Центральной Азии и населяющих ее народов. Наряду с кардинальной трансформацией политической системы, социально-экономических отношений, разворачивалась и так называемая «педагогическая» революция. Однако форсированному развитию педагогического вопроса остро мешал кадровый дефицит.

**Анализ литературы.** При написании статьи были использованы не публиковавшиеся ранее архивные материалы из Национального архива Узбекистана[5]. В основном были использованы материалы фонда «Среднее специальное образование», включающие в себя планы подготовки кадров, расчеты по исчислению зарплаты, штатные контингенты, постплатежный свод госбюджета по подготовке кадров по педтехникумам и педучилищам за 1934-1937 гг., а также опубликованные источники. Говоря о научной литературе, можно выделить некоторые значимые статьи зарубежных исследователей данной проблемы. Среди них работы следующих авторов: Новичкова А. «Проблема педагогических кадров в СССР в 30-е годы XX века» [3], в которой автор изучает ситуацию с педагогическими кадрами, сложившуюся в СССР в 1930-е годы, и статья Золотарева О. В. «Советское учительство в 1930-е годы»[1], в которой автор анализирует повседневный быт и заработную плату советского учителя 1930-х годов.

**Методология исследования.** В процессе исследовательской работы использованы такие методы как: статистическо-сравнительный метод и метод системного анализа. Научная статья написана исходя из цивилизационного подхода, опираясь на принципы исторической объективности, что позволило на основе информации, полученной из исторических источников максимально раскрыть основные факторы в изучении основных вопросов исследования.

**Результаты исследования.** В начале 1925 года советское руководство декларировало задачу скорейшего и эффективного переформатирования педагогических кадров. В связи с этим предусматривалось создание широкой сети педагогических техникумов, которые должны были быть открыты во всех советских республиках с тем, чтобы к моменту полного осуществления всеобуча (1933/34 учебный год) полностью обеспечить педагогическими кадрами все школы.

Первые результаты работы по подготовке педагогических кадров были проанализированы в постановлении ЦК ВКП(б) от 21 февраля 1931 г. «О ходе всеобщего начального обучения», в котором были отмечены относительно положительные результаты работы по всеобучу, но, в то же время, констатировался ряд существенных недостатков.

Несомненно, что начавшаяся перестройка системы среднего образования дала свои результаты достаточно быстро. Так, только за период за 1931–1935 гг. в школу пришло 148 тысяч учителей [4]. Однако полностью проблема нехватки специалистов так и не была решена.

Система народного образования продолжала испытывать острый кадровый голод. Учителей не хватало в общеобразовательных школах I, II ступени. Для решения данной задачи, учителей стали готовить педтехникумы, которые также можно разделить по уровням профессионализма.

В УзССР в период с 1932 по 1936 год, передовыми педагогическими техникумами являлись: Бухарский №1., Кокандский №2., Ташкентский №3., Ташкентский №5. Бухарский и Кокандский педтехникумы. Все они в 1934 г. удостоились премирования, а 2 ташкентских №3 и №5 были премированы вторично [7].

Однако, несмотря на достигнутые успехи, система педагогических техникумов обладала целым рядом существенных недостатков, крупнейшим из которых являлся тот факт, что ни педтехникумы, ни рабфаки до конца не удовлетворяли все более и более растущий спрос на грамотных специалистов.

Недостатком прямым образом, влияющим на учебный процесс, являлось то, что учебные структуры педтехникумов и рабфаков во многих случаях при составлении расписания учебных занятий игнорировали требования рационализации учебного процесса, не учитывая необходимости чередования различных по трудности усвоения дисциплин [8].

Логичным следствием нестабильности расписания являлось отсутствие общего организационного и методического регулирования объема и характера домашних заданий, выполняемых студентами. Отсюда же проистекала неудовлетворительная подготовка многих техникумов и рабфаков республики к зачетам, непродуманность методики их проведения, недостаточно строгая оценка успеваемости студентов и преувеличение уровня их знаний.

Основными причинами этих недостатков были названы:

1) совершенно неудовлетворительное конкретное и оперативное инструктивно-методическое руководство педтехникумами и рабфаками, а внутри учебных заведений – со стороны директора и заведующего учебной частью зачастую слабая роль последних, как действительно знающих педагогическое дело руководителей.

2) Недостаточная квалификация отдельных учителей; отсутствие мероприятий по повышению квалификации преподавательских кадров техникумов и рабфаков; частая смена преподавателей и руководителей [9]. Причиной тому был невысокий уровень материально-бытовых условий учительства. Насущным также являлся вопрос заработной платы учительства.

«Вопрос об оплате труда преподавателей педтехникумов, рабфаков и педкурсов является одним из наболевших вопросов в который упирается ряд вопросов, связанных с рационализацией педагогического процесса и повышением качества учебной работы в указанных учебных заведениях.

Неудовлетворительное положение оплаты преподавательского труда в данных типах учебных заведений выражается: 1. В уравниловке – начинающий преподаватель получает такую же оплату, как и преподаватель с большим педагогическим стажем, уравниловка имеет место и в оплате труда директора и завучей. Преподаватели не получают периодических надбавок за выслугу лет. 2) Оплата преподавательского труда в техникумах и рабфаках системы НКП не только ниже, чем в ряде ведомственных техникумов и рабфаков, но и ниже, чем в средней школе» [10].

К тому же следует добавить, что и профессию учителя не окружал ореол героизма, причастности к происходившим в стране событиям, а ведь в идеологии СССР того времени активно пропагандировался образ революционера, подвижника, стахановца и на фоне всего этого образ и призвание учителя казались молодым людям весьма скромными. Все это вместе взятое вело к тому, что, во-первых, квалифицированные преподаватели неохотно шли на работу в техникумы и рабфаки. Во-вторых, к большой перегрузке ряда преподавателей с одной стороны, а с другой – к недогрузке других, так как многие преподаватели стремились заполучить больше уроков в других учебных заведениях, где оплата труда была выше, зачастую рассматривали свою работу в техникумах и рабфаках как временную, в лучшем случае как совместительство. И, несмотря на то, что в докладах директоров фигурировали бодрые показатели, на самом деле, зачастую, лучшие работники педтехникумов уходили на другие места работы, в ВУЗы или в ГорОНО [6]. И, хотя, в последующие годы вопрос о заработной плате сотрудников педагогических техникумов неоднократно обсуждался и пересматривался в сторону увеличения, все равно вопрос дефицита кадров оставался открытым.

Начавшаяся вскоре Вторая мировая война еще более углубила данный вопрос. И только в послевоенное время острота дефицита квалифицированных кадров стала снижаться. Но в 1930-х годах проблема нехватки педсостава в школах стала настолько острой, что для ускоренной подготовки учительства руководство страны, помимо открытия все новых педтехникумов, было вынуждено идти на принятие ряда чрезвычайных мер, в частности, создание профессионализированных концентров школ II ступени с педагогическим уклоном, организацией долгосрочных и краткосрочных курсов подготовки учителей, вечернего и заочного обучения в педвузах[2].

Для того, чтобы привлечь девушек и юношей на учебу в педтехникумы и педвузы был предпринят ряд мер: во-первых, повышение социального статуса учителя, улучшение материального положения и т. п., а также проведение обширной пропагандистской кампании.

Прямым следствием нехватки достаточно грамотных и квалифицированных преподавателей в педагогических техникумах того времени, особенно в 1932-1934 г. являлась то, что в 1935 г. приемные комиссии многих педагогических техникумов, для выполнения плана набора вынуждены были принять в число студентов до 67% абитуриентов, получивших на вступительных экзаменах по одной–две неудовлетворительной оценке [11].

Во-вторых, отказ или же игнорирование стабильных учебных программ, слабое во многих случаях освоение студентами учебной программы и как один из основных факторов данного явления - недостаточное внимание к прохождению педагогической практики студентами педтехникумов.

После анализа полученных данных, было заявлено о неудовлетворительной работе педагогической практики и плохой ее организации в педагогических техникумах Узбекистана.

Для срочного исправления ситуации со слабой практической подготовкой студентов педтехникумов в массовом порядке были организованы в педагогических

техникумах Узбекистана педагогических кабинетов и как следует из инструктивно-методического материала значение этих кабинетов в техникумах было очень значимо.

В методических материалах Наркомпроса УзССР указывалось следующее: «Невозможно допускать наличие педагогического техникума без педагогического кабинета. Педагогический кабинет должен стать центром всей учебной и воспитательной работы по педагогике, педологии и частным методикам» [12].

Кабинеты должны были обслуживать учебную работу по педагогике и методике, в кабинете централизовалась вся работа по организации педагогической практики, там были собраны для обработки все материалы, иллюстрировавшие работу школ.

Кроме того, именно в педагогических кабинетах хранился педагогический архив, который наглядно характеризовал содержание и методы работы в самих техникумах, также организовывал внеклассную работу по педагогике студентами.

Кроме вышеперечисленного кабинет должен был также выполнять функции педагогической библиотеки. Наряду со специальной литературой в библиотеке хранились собрания классиков как советской, так и мировой педагогики, а также дореволюционной школы.

В качестве обязательного минимума предписывалось иметь все стабильные учебники и детскую библиотеку, подобранную соответственно возрастам. А также педагогическую периодику: журналы, газеты и справочную литературу, словари. Также в кабинетах концентрировалась весь необходимый дидактический материал по курсу педагогики и методологии.

Именно в педагогических кабинетах был накоплен большой практический и методический материал о развитии поведения детей. В частности, подчеркивалось то, что кабинет выполнял и учебно-методическую роль и допускалось получение школами на время коллекций, схем, диапозитивов, препаратов, приборов и аналогичного дидактического материала, который учитель не всегда имел возможность приготовить самостоятельно.

Немаловажным является также фактор строительства самих педтехникумов и общежитий для студентов. Как было отмечено, в планах по подготовке кадров по педтехникумам и педучилищам Узбекистана за 1934 – 1937 гг.: «Проблема строительства педшколы чрезвычайно широкая. Она начинается с момента комплектования, которое в свою очередь… определяется таким фактором как дальнейшая перспектива, по окончании педтехникума, - положением учителя и кончается всей суммой вопросов организации подготовки зрелого педагога средней, массовой квалификации. И до сего времени нам приходится разрешить эти трудности и в первую голову с подбором кадров. Найти преподавателя педтехникума с высшим педагогическим образованием и с педстажем для преподавателя, например: математики, химии, ленинизма и т.д. на уйгурском, киргизском, местно-еврейском и др. местных языках не менее трудно, чем найти одаренного артиста для сцены. Не менее трудно подобрать и педагога – узбека для особо отдаленных районов Хорезма, Сурхан – Дарьи, Кашкадарьи и некоторых других районов»[13].

Однако, несмотря на все эти трудности, сеть педтехникумов продолжала расти, в том числе и в отдаленных районах Узбекистана. Строились новые здания, ремонтировались и перестраивались здания, не отвечающие требованиям педагогической школы, вместе с тем уделялось особое требование к увеличению количества педагогов, вышедших из национальных кадров и именно эти ценные национальные кадры, было призвано материально поощрять в первую очередь.

Период 1930-х гг. был переломным в истории образовательной системы Узбекистана. Утверждение сталинского партийно-государственного режима отразилось на всех отраслях народного хозяйства и на культурном строительстве, в том числе на школьном образовании как самой Российской Федерации, так и национальных республик. Главной тенденцией развития сети педагогических техникумов в 1930-е гг. стал неуклонный рост как количества педтехникумов, так и количества школ при одновременном увеличении количества учащихся. Этот процесс проходил без учета очевидной неразвитости материально-технической базы народного образования, в условиях нехватки учебников, школьных помещений, учителей. Гонка за количественными показателями в ущерб качеству образования была характерной для всего предвоенного школьного строительства и отражала партийно-государственный курс на осуществление всеобщего обучения. Вместе с тем нельзя не отметить в качестве положительного, тот факт, что последовательный курс на всемерное расширение школьной сети, на вовлечение в школы большего количества детей, что привело к быстрому и резкому увеличению грамотности в республике.

**Выводы.** Подводя итог данной статьи нами отмечены следующие факторы. Прежде всего, в связи со всеобучем и резким увеличением школ I и II ступени и усилением внимания к качеству обучения началась массовая подготовка школьных работников, обучающихся в педагогических техникумах, и вместе с тем, качество профессиональной подготовки школьного работника хоть и заметно улучшилось, но во многом все же не отвечало возросшим требованиям времени. Именно тогда были предприняты и решительные действия по изменению материального положения преподавательского состава в педтехникумах. Это произошло вследствие внимания властей к проблемам образования и улучшению финансирования педтехникумов, и, следовательно, к постепенному повышению социального статуса педагога.

**ЛИТЕРАТУРА**


1. Золотарев О. В. Советское учительство в 1930-е гг.//Интеллигенция и мир № 3, 2010.
2. Золотарев О. В. Советское учительство в 1930-е гг.//Интеллигенция и мир № 3, 2010., С. 11.
3. Новичков А. В. Проблема педагогических кадров в СССР в 30-е годы XX века. //Омский научный вестник № 2 (66), 2008
4. Новичков А. В. Проблема педагогических кадров в СССР в 30-е годы XX века. //Омский научный вестник № 2 (66), 2008, С. 15.
5. Национальный архив Узбекистана. Среднее специальное образование. Ф. 94. Оп.5. Д.1585. Л.419.
6. НА Уз. Ф. 94. Оп.5. Д.1585. Лл.29-31
7. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Лл.40-45
8. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Лл.48-49

9. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Лл.50-55
10. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Л.139
11. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Л.145
12. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Лл.244-252
13. НА Уз. Ф.94. Оп.5. Д.1585. Лл.252-254

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:930**

***Mahbuba TILAVOVA,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

*O‘zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida*

## RISING CONFLICTS BETWEEN THE RUSSIAN EMPIRE AND THE BUKHARA EMIRATE

Annotation
The rivalry between the Russian Empire and the Bukhara Emirate in 19th and early 20th-century Central Asia was marked by territorial disputes, struggles for control over strategic resources, and cultural and religious differences. This abstract explores the multifaceted nature of the conflict, highlighting the complexities of imperial ambitions and regional autonomy. It discusses how the clash of empires impacted the geopolitical landscape of Central Asia, shaping the dynamics of power and influence in the region.
**Key words:** Russian Empire, Bukhara Emirate, Central Asia. Geopolitical dynamics, Territorial disputes, Cultural differences, Religious identity, Imperial expansion.

## ROSSIYA IMPERIYASI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDA ZIDDIYATLARNING KUCHAYISHI

Annotatsiya
19-asr va 20-asr boshlarida O‘rta Osiyoda Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi raqobat hududiy nizolar, strategik resurslar ustidan nazorat o‘rnatish uchun kurashlar, madaniy va diniy tafovutlar bilan kechdi. Ushbu abstrakt mojaroning ko‘p qirrali mohiyatini o‘rganadi, imperiya ambitsiyalari va mintaqaviy avtonomiyalarning murakkabligini ta'kidlaydi. Unda imperiyalar to‘qnashuvi Markaziy Osiyoning geosiyosiy manzarasiga qanday ta’sir qilgani, mintaqadagi kuch va ta’sir dinamikasini shakllantirgani muhokama qilinadi.
**Kalit so‘zlar:** Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi, O‘rta Osiyo. Geosiyosiy dinamika, hududiy nizolar, madaniy tafovutlar, diniy o‘ziga xoslik, imperatorlik ekspansiyasi.

## РАСТУЩИЕ КОНФЛИКТЫ МЕЖДУ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ И БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ

Аннотация
В XIX и начале XX веков соперничество между Российской империей и Бухарским эмиратом в Центральной Азии было отмечено территориальными спорами, борьбой за контроль над стратегическими ресурсами, а также культурными и религиозными различиями. В этом кратком изложении исследуется многогранный характер конфликта, подчеркивая сложность имперских амбиций и региональной автономии. В нем обсуждается, как столкновение империй повлияло на геополитический ландшафт Центральной Азии и сформировало динамику власти и влияния в регионе.
**Ключевые слова:** Российская империя, Бухарский эмират, Средняя Азия. Геополитическая динамика, территориальные споры, культурные различия, религиозная идентичность, имперская экспансия.

**Kirish**. 19-asr va 20-asr boshlari O‘rta Osiyo tarixida buyuk davlatlar kuchlarining to‘qnashuvi va mintaqaning keng hududlarida hukmronlik qilish uchun kurash bilan tavsiflangan notinch davr bo‘ldi. Bu davrda yuzaga kelgan son-sanoqsiz nizolar ichida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi raqobat geosiyosiy keskinlik va madaniy qarama-qarshilikning yorqin namunasi sifatida ajralib turadi. Ushbu muqaddima mojaroning murakkabliklarini tushunish, uning ildizlarini tarixiy kontekstda izlash va bu ikki shaxs o‘rtasidagi adovatni kuchaytirgan asosiy omillarni ko‘rsatish uchun zamin yaratadi.

Madaniyatlar, etnik guruhlar va sivilizatsiyalarning boy gobeleniga ega Markaziy Osiyo azaldan savdo-sotiq, istilolar va madaniy almashinuv chorrahasi bo‘lib kelgan. 19-asrda Rossiya imperiyasi hududiy kengayish va strategik ustunlikka intilib, janubga qarab barqaror ravishda oldinga siljish bilan mintaqa imperiya ekspansiyasining markaziga aylandi. Rus qo‘shinlari O‘rta Osiyo yerlariga bostirib kirgach, mavjud kuch tuzilmalari, jumladan, Buxoro amirligi bilan muqarrar ravishda aloqaga kirishdi.

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning zamirida yer va boyliklarga bo‘lgan da’volar tufayli kelib chiqqan hududiy nizolar yotardi. Rossiya qo‘shinlari janubga qarab harakatlanar ekan, ular Amirlikning ta'sir doirasidagi strategik hududlar ustidan nazoratni o‘rnatishga harakat qilishdi. Bu agressiv ekspansionizm ularni muqarrar ravishda amirlik hukmdorlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilikka olib keldi va ularning o‘z ota-bobolari yerlari ustidan nazoratni saqlab qolishga intilishlariga olib keldi.

Qolaversa, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o‘rtasidagi to‘qnashuv nafaqat hududiy hukmronlik uchun kurash, balki madaniyatlar va mafkuralar to‘qnashuvi ham edi. Amirlik o‘zining chuqur ildiz otgan islom merosi va an’analariga ega bo‘lib, Rossiya imperiyasining asosan xristian va slavyan o‘ziga xosligidan keskin farq qilib turardi. Bu madaniy va diniy tafovut ikki kuch o‘rtasidagi ziddiyatni yanada kuchaytirib, o‘zaro ishonchsizlik va adovatni kuchaytirdi.

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyat hududiy-madaniy omillardan tashqari, amirlikning o‘zida ichki hokimiyat uchun kurash va sulolaviy siyosat tufayli ham shakllangan. Raqobat guruhlari amirlik boshqaruvini nazorat qilish uchun kurashar ekan, ular tashqi kuchlardan, jumladan, ruslardan ittifoq va yordam olishga intilib, mojaro dinamikasini yanada murakkablashtirdi.

Bunday geosiyosiy manevrlar va madaniy qarama-qarshiliklar fonida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi raqobat Markaziy Osiyoda hukmronlik uchun murakkab va uzoq davom etgan kurash sifatida namoyon

bo‘ldi. Uning merosi bugungi kungacha mintaqada aks-sado berishda davom etmoqda va bu zamonaviy geosiyosat dinamikasini shakllantirishda tarixiy raqobatning doimiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Ushbu mojaroning kelib chiqishi va dinamikasini tadqiq qilish orqali biz Markaziy Osiyoning notinch tarixidagi imperiya ambitsiyalari, mintaqaviy muxtoriyat va madaniyatlar va kuchlarning o‘zaro ta’sirining murakkabligi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

**Adabiyot sharhi**. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lib, tarixchilar, siyosatshunoslar va madaniyatshunoslar ushbu tarixiy raqobatning sabablari, dinamikasi va oqibatlari haqida turlicha qarashlarni taklif qilishgan. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu ikki shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo‘lgan omillarning murakkab o‘zaro ta'sirini aniq tushunishni ochib beradi.

Adabiyotda yuzaga keladigan asosiy mavzulardan biri 19-asr va 20-asr boshlaridagi Markaziy Osiyoning geosiyosiy kontekstidir. Adib Xolid o‘zining “Musulmon madaniyati islohoti siyosati: Markaziy Osiyodagi jadidchilik” kitobida, Yuriy Bregel “Markaziy Osiyoning tarixiy atlasi” nomli kitoblarida mintaqa tarixini batafsil tahlil qilib, imperatorlik kuchlari o‘rtasidagi raqobatni yoritib beradilar. Markaziy Osiyo davlatlari, madaniy va diniy o‘ziga xosliklarning dinamikasi. Bu asarlar Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyatlarni imperiya ekspansiyasining kengroq tendentsiyalari, hududiy nizolar va madaniy to‘qnashuvlar doirasidagi kontekstda aks ettiradi[1].

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyatlarning shakllanishida din va madaniyatning o‘rni ilmiy tadqiqotlarning yana bir muhim yo‘nalishidir. Adeeb Xolid, Marta Brill Olcott "Qozoqlar"[3] va Yuriy Bregelning tadqiqotlari Markaziy Osiyo jamiyatining diniy va madaniy jihatlariga oydinlik kiritib, islomning birlashtiruvchi kuch va tashqi kuchlarga qarshilik manbai sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi[2]. Bu ishlarda diniy o‘ziga xoslik va madaniy an’analar rus va buxorolik elitaning munosabati va harakatlariga qanday ta’sir qilgani, o‘zaro ishonchsizlik va nizolarga hissa qo‘shgani o‘rganiladi.

Bundan tashqari, olimlar Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi raqobatga iqtisodiy omillarning ta’sirini ham o‘rganib chiqdilar. Alfred J.Riberning “Rossiya mustamlakalarining 1917-yilgacha ekspansiyasi”[4], Pol Dyuksning “Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishi”[5] kabi asarlarida Rossiyaning O‘rta Osiyoga ekspansiyasi ortidagi iqtisodiy motivlar, jumladan, strategik resurslarni nazorat qilish, foydali savdo yo‘llariga kirish istagi tahlil qilinadi va mintaqaning qishloq xo‘jaligi va mineral boyliklaridan foydalanish. Ushbu tadqiqotlar iqtisodiy manfaatlar mojarolarni kuchaytirish va mintaqadagi kuch dinamikasini shakllantirish uchun geosiyosiy ambitsiyalar bilan qanday kesishganligini yoritadi.

Bundan tashqari, adabiyotda Rossiya imperiyasi bilan ziddiyatning kuchayishida Buxoro amirligidagi ichki siyosat va hokimiyat uchun kurashlar o‘rni ko‘rsatilgan. Shoshana Keller “Makka emas, Moskvaga: Sovetlarning Markaziy Osiyoda islomga qarshi yurishi, 1917-1941 yillar”[6] va Svetlana P. Ivanova “Buxoroliklar: sulolaviy, diplomatik va tijorat tarixi, 1550-1702”[7] asarida tahlil qiladi. amirlik ichidagi elita raqobati, fraksiyaviylik va sulolaviy raqobat dinamikasi, bu ichki bo‘linishlar amirlikning tashqi kuchlar bilan munosabatlariga qanday ta'sir qilganini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida kuchayib borayotgan qarama-qarshiliklarni tushunish uchun 19-asr va 20-asr boshlaridagi Markaziy Osiyoning tarixiy kontekstini o‘rganish zarur. Bu davr sezilarli geosiyosiy siljishlar, imperiya ekspansiyasi va imperiyalar to‘qnashuvi bilan ajralib turdi, bularning barchasi mintaqa dinamikasini shakllantirdi. Rossiya va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyatlarga zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo azaldan sivilizatsiyalar, madaniyatlar va savdo yo‘llarining chorrahasi bo‘lgan, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlar ilm, savdo va islom ilmlari markazlari bo‘lib xizmat qilgan. Biroq, 19-asrga kelib, mintaqa o‘zini imperator ambitsiyalari, xususan, Rossiya imperiyasi va Britaniya imperiyasining raqobatdosh ambitsiyalari o‘rtasida tutdi.

**Tahlil va natijalar.** Rossiya imperiyasi chor hukmdorlari boshchiligida O‘rta Osiyoga o‘z ta’sirini kengaytirish va issiq suv portlariga chiqishni ta’minlash maqsadida “Buyuk o‘yin” deb nomlanuvchi hududiy kengayish kampaniyasini boshladi. Ushbu ekspansionistik harakat strategik, iqtisodiy va geosiyosiy omillar, jumladan, daromadli savdo yo‘llarini nazorat qilish, qimmatli resurslarga kirish va Britaniyaning Hindistondan potentsial bosqiniga qarshi bufer zonasini yaratish istagi bilan turtki bo‘ldi.

Rossiya imperiyasi uchun O‘rta Osiyoni bosib olish nafaqat hududni kengaytirishga intilish, balki jahon miqyosida kuch va obro‘-e’tiborni namoyon etish vositasi ham edi. Rus qo‘shinlari janubga qarab harakatlanar ekan, ular O‘rta Osiyoning turli davlatlari va xonliklari, jumladan, Rossiya tajovuziga qarshilik ko‘rsatgan, o‘z muxtoriyati va mustaqilligini saqlab qolishga intilayotgan Buxoro amirligiga duch keldilar.

O‘zining boy islomiy merosi va madaniy an’analariga ega Buxoro amirligi Rossiyaning O‘rta Osiyoga ekspansiyasi yo‘lida katta to‘siq bo‘lgan. Amir tomonidan boshqariladigan va diniy ulamolar va qabila boshliqlari tarmog‘i tomonidan qo‘llab-quvvatlangan amirlik uzoq vaqt davomida islomiy ta’lim va boshqaruv markazi bo‘lib xizmat qilib, diniy hokimiyat va siyosiy hokimiyat uyg‘unligi orqali atrofdagi hududlarga ta’sir o‘tkazgan.

Lekin Buxoro amirligining mavqei qaltis edi, u shimolda Rossiya imperiyasining oldinga siljib borayotgan qo‘shinlari va janubdagi qo‘shni Afg‘onistondagi Britaniya imperiyasining ta’siri o‘rtasida qolib ketdi. Ushbu tashqi bosimlarga duch kelgan Amirlik imperiya ambitsiyalari oldida o‘z muxtoriyatini saqlab qolish va suverenitetini saqlab qolish o‘rtasida nozik muvozanatni saqlashga harakat qildi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi to‘qnashuv muqarrar edi, bu to‘qnashuv hududiy nizolar, strategik manfaatlar va madaniy tafovutlar uyg‘unligidan kelib chiqqan edi. Rossiya kuchlari Markaziy Osiyoga bostirib kirgach, ikki davlat o‘rtasidagi ziddiyat kuchayib, vaqti-vaqti bilan to‘qnashuvlarga, diplomatik manevrlarga va boshqa mintaqaviy ishtirokchilar bilan ittifoq tuzishga urinishlarga olib keldi.

**Xulosa**. 19-asr va 20-asr boshlaridagi O‘rta Osiyoning tarixiy sharoiti imperator kuchlarining to‘qnashuvi, strategik hududlar ustidan hukmronlik uchun kurash, madaniy va diniy o‘ziga xosliklarni saqlab qolish bilan tavsiflanadi. Ushbu murakkab manzara doirasida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida kuchayib borayotgan qarama-qarshiliklar mintaqa taqdirini belgilab bergan va bugungi kunda uning siyosati va jamiyatlarida aks-sado berishda davom etayotgan bir-biriga zid bo‘lgan manfaatlar va geosiyosiy raqobatlarga misol bo‘ldi.

**ADABIYOTLAR**


1. Khalid, Adeeb. "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia." University of California Press, 1998.
2. Bregel, Yuri. "An Historical Atlas of Central Asia." Brill, 2003.

3. Olcott, Martha Brill. "The Kazakhs." Hoover Press, 1987.
4. Rieber, Alfred J. "Russian Colonial Expansion to 1917." Greenwood Press, 1988.
5. Dukes, Paul. "The Russian Conquest of Central Asia." Longman, 2003.
6. Keller, Shoshana. "To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917-1941." Praeger, 2001.
7. Ivanova, Svetlana P. "The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic, and Commercial History, 1550-1702." Brill, 1998.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 364.94(575.1)

*Shuxrat TOSHTUROV,*
*NavDPI Tarix kafedrasi dotsenti v.b*
*E-mail: tosturovsuhrat@gmail.com*

*T.f.f.d., PhD X.Raxmonov taqrizi asosida*

## ISSUES OF ENSURING ENVIRONMENTAL STABILITY IN UZBEKISTAN WITHIN THE FRAMEWORK OF THE MILLENNIUM DEVELOPMENT GOALS

Annotation
This article examines the measures taken in Uzbekistan to ensure environmental stability within the framework of the UN global program "Millennium Development Goals", the achievement of which is scheduled for 2000-2015.
**Key words:** United Nations (UN), Millennium Development Goals (MDGs), Sustainable Development Goals (SDGs), UNESCO, UNDP, Earth Charter, International Fund for Saving the Aral Sea, atmospheric pollution.

## ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В РАМКАХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ ТЫСЯЧЕЛЕТИЯ

Аннотация
В данной статье рассматриваются меры, принимаемые в Узбекистане по обеспечению экологической стабильности в рамках глобальной программы ООН «Цели развития тысячелетия», достижение которых намечено на 2000-2015 годы.
**Ключевые слова:** Организация Объединенных Наций (ООН), Цели развития тысячелетия (ЦРТ), Цели устойчивого развития (ЦУР), ЮНЕСКО, ПРООН, Хартия Земли, Международный фонд спасения Арала, загрязнение атмосферы.

## MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARI DOIRASIDA O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekistonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000-2015 yillarda erishish mo‘ljallangan “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” global dasturi doirasida ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar haqida fikr yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM), Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), YUNESKO, BMTTD, yer xartiyasi, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi, atmosferaning ifloslanish.

**Kirish.** BMT tashkil topganidan buyon jahon miqyosida samarali tadbirlarni amalga oshirdi. Uning dunyoda mustamlakachilikka barham berish, yadroviy qurollanishni tartibga solish, irqchilikni tugatish, diniy va chegaraviy nizolarni kamaytirish, sog‘liqni saqlash, xalqaro madaniy xilma-xillikni rivojlantirish sohalaridagi faoliyati 1945-1991 yillarda ayniqsa samarali bo‘ldi. Biroq, XX asrning 90-yillariga kelib BMTni isloh qilish to‘g‘risidagi fikrlar yuzaga kela boshladi. Uning faoliyati samarasizligi yoki global masalalarda ayrim siyosiy kuchlar va ba’zi davlatlar ta’siriga tushishi bilan bog‘liq holda kechdi. Shunga qaramay BMTning XXI asr boshidagi yirik xalqaro miqyosdagi tadbirlaridan biri bu - dunyo hamjamiyatini birlashtirgan holda, global muammolarga yechim topishga qaratilgan dasturlarning qabul qilinishi va amalga oshirilishi bo‘ldi. Bu BMTning “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” (2000-2015 yillar) hamda “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (2015-2030 yillar) global dasturlarida o‘z ifodasini topdi. Ta’kidlash kerakki, dunyo davlatlari va jahon hamjamiyati ushbu yirik dasturlarni qabul qilish va amalga oshirishda dastlabki marotaba hamfikr bo‘lib, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatladilar. Chunki, ushbu global dasturlar nafaqat bir davlat, ayrim mintaqalar, balki, butun dunyo ahamiyatiga molik bo‘lgan hamda o‘zaro hamkorlikda hal qilishni talab etadigan muammolarni yechish va bartaraf etishni ifodalagan.

Jahonda globallashuv jarayonlari tobora avj olib, zamonaviy ilm-fan, innovatsion texnologiyalar, axborot va fikrlar xilma-xilligi rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, dunyo va insoniyat taraqqiyoti yo‘lida yangi global muammolar yuzaga kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashabbusi bilan xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlikda hal etishni talab qiladigan turli muammolar yuzasidan Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) va Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global dasturlari ilgari surildi. Mazkur dasturlarda butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni milliy va xalqaro darajada hal etish vazifalari qo‘yildi. Shu jihatdan ushbu maqsad va vazifalarda ilgari surilgan g‘oyalarni, ularni amalga oshirish borasida jahon tajribasini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berish dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asrning 90-yillariga kelib BMTni isloh qilish to‘g‘risidagi fikrlar yuzaga kela boshladi. Uning faoliyati samarasizligi yoki global masalalarda ayrim siyosiy kuchlar va ba’zi davlatlar ta’siriga tushishi bilan bog‘liq holda kechdi. Shunga qaramay BMTning XXI asr boshidagi yirik xalqaro miqyosdagi tadbirlaridan biri bu - dunyo hamjamiyatini birlashtirgan holda, global muammolarga yechim topishga qaratilgan global dasturlarning qabul qilinishi va amalga oshirilishi bo‘ldi. Ta’kidlash kerakki, dunyo davlatlari va jahon hamjamiyati MRM kabi yirik dasturni qabul qilish va amalga oshirishda dastlabki marotaba hamfikr bo‘lib, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatladi. Chunki, ushbu global dastur nafaqat bir davlat, ayrim mintaqalar, balki, butun dunyo ahamiyatiga molik bo‘lgan hamda o‘zaro hamkorlikda hal qilishni talab etadigan muammolarni yechish va bartaraf etishni ifodalagan. Dunyo rivojlanib borayotgan bo‘lsada, ochlik, kambag‘allik, yuqumli

kasalliklar, ta'lim, erta o'lim foizining yuqoriligi, ekologik muammolar, barqaror rivojlanish kabi faqatgina o'zaro hamkorlikda bartaraf etilishi kerak bo'lgan masalalar kun tartibidan olinmagan edi. Raximov M., Abdimo'minov O. kabi mutaxassislar BMTning ushbu "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" hamda "Barqaror rivojlanish maqsadlari" global dasturlari dunyo mamlakatlarining xalqaro muammolarni o'zaro hamkorlikda hal etishga qaratilgan o'ziga xos "hashari" sifatida e'tirof etishgan[1].

O'zbekiston va BMT o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, ekologik baqarorlik, aholi farovonligini oshirish kabi sohalarda keng ko'lamli hamkorlikni amalga oshirmoqda. Bu BMT tomonidan qabul qilingan "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" dasturining O'zbekistonda amalga oshirilishida namoyon bo'ldi. O'zbekistonda MRMni amalga oshirish va hayotga tadbiq etish borasida 2000 yilning o'zidayoq ushbu dasturni ratifikatsiya qildi [2] va milliy maqsadlar ishlab chiqildi. Jahonning turli hududlarida bu maqsadlarni bajarishga hali kirishilmagan bir davrda O'zbekiston bu borada samarali natijalarga erishdi va BMT MRMga erishish bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'la amalga oshirdi. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, aholining iqtisodiy farovonligini ta'minlash, samarali davlat boshqaruvi va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda qator qo'shma loyihalarni amalga oshirdi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi**. Maqolada O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalarini yoritib berishda analiz va sintez, tizimlilik, mantiqiylik, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mingyillik rivojlanish maqsadlari BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 8 sentyabrdagi 55/2-rezolyutsiyasiga [4] asosan tashkilotga a'zo 189 davlatlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, tinchliksevar, adolatli dunyo to'g'risidagi maqsadlarni umumlashtirdi. Inson huquqlari, davlat boshqaruvi va demokratiya bo'yicha majburiyatlari doirasini belgilab bergan, global, mintaqaviy, milliy miqyosda bajarilishi lozim bo'lgan asosiy maqsadlarni ifodaladi. Deklaratsiya 2015 yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni ko'zda tutuvchi universal hujjat bo'lib tarixga kirdi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarida inson xavfsizligini ta'minlashga erishish va global rivojlantirishga qaratilgan umumiy harakatlar rejasi o'z ifodasini topgan. Ushbu maqsadlardan ko'zda tutilgan yo'nalishlar asosida jahonda erishilgan muvafaqiyatlarni o'lchash va ularning monitoringini [5] o'tkazish hamda hisobotlarini eshitish joriy etildi. Bundan tashqari, Mingyillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi hisobotlar dunyo mamlakatlari tomonidan BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishlarida har 5 yilda bir marta taqdim etib borildi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari XX asrning 90-yillarda dunyoda yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olib, 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko'rsatkichdan iborat muammolarni 2015 yilga qadar hal qilish belgilandi. Ular quyidagi sakkiz global vazifani qamrab olgan: o'ta qashshoqlik va ochlikka barham berish; umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash; erkaklar hamda ayollar tengligini rag'batlantirish; bolalar o'limini kamaytirish; onalar sog'lig'ini yaxshilash; OITS/OIV, sil, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish; ekologik barqarorlikni ta'minlash va rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kengaytirish[6]. MRMga erishish global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etildi. Bu maqsad va vazifalar muvofiqligi hamda erishilishi mumkinligi nuqtai nazardan har bir davlatga alohida moslashgan bo'lishi juda muhim. O'zbekistonda MRM doirasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar belgilab olinib, ular BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib bordi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash MRMning o'ta muhim yo'nalishini tashkil etib, yettinchi maqsad sifatida qayd etilgan. MRMni amalga oshirishda BMTning Jahon Banki va YUNISEF kabi ixtisoslashgan muassasalari va O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda sanitariya, atrof-muhit masalalarida faol sherikchilik aloqalarini olib bordi [7]. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 1992 yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish dasturini yaratish 140 davlat vakillari ishtirokida kelishib olindi. Shundan so'ng 1994-1995 yillarda YUNESKO tashabbusi bilan "Er xartiyasi" loyihasi yaratishga kirishildi va 40 ta mamlakatda muhokamadan o'tkazildi. 1999 yil 30 noyabr - 1 dekabr kunlari esa yakuniy muhokamalar Toshkentda o'tkazildi va qo'llab-quvvatlandi[8]. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi BMTTD [9], Jahon Banki bilan hamkorlikda toza va xavfsiz atrof-muhitni ta'minlash masalalarida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu borada iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, atrof-muhit muhofazasi va yerning muammolari kabilar ham ustuvor, dolzarb masalalar hisoblanadi[10]. O'zbekiston tashabbusi bilan 1993 yilda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil etildi[11]. 2008 yilda Jamg'armaga BMT Bosh Assambleyasi huzurida kuzatuvchi maqomi berildi. 2014 yil oktyabrda Urganch shahrida "Orol dengizi mintaqasi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazilib, hududda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi[12].

Bu davrda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza masalalarining bevosita oqibatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va sanitariya holatining yaxshilashga e'tibor qaratildi. Raqamlarga qaralsa, 1999 yilda aholining har 100 ming nafariga 22,2 ta bakterial dizenteriya kasalligi to'g'ri kelsa, 2000 yilda bu 14,9 taga kamaydi. Salmonelleza infeksiyasi qariyib 20 foizga, ichterlama 39 foizga kamaydi. Aholi o'rtasida o'z vaqtida amalga oshirilgan immunoprofilaktika tadbirlari tufayli difteriya va qizamiq kasalliklariga chalinish kamaydi [13]. Respublikada atmosferani eng ko'p uglerod oksidi 53 foiz va oltingugurt ikki oksidi 15 foiz ifloslantiradi. Atmosferaning yuqori darajada ifloslanishi Andijon shahrida va nisbatan Qo'qon, Navoiy va Toshkent shaharlarida kuzatilgan. Bunga Orol dengizi qurigan tubidan ko'tarilayotgan chang va tuz zarrachalari hamda ishlab chiqarish korxonalari, avtomobillar sonining ko'payishi, joylarda qurilish maydonlarida olib borilayotgan jadal ishlar bilan izohlash mumkin.

**Xulosa va takliflar**. Mingyillik rivojlanish maqsadlariga jahonning barcha mintaqalari va mamlakatlari to'liq erisha olmadi. Ushbu maqsadlarga asosan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qisman erishdilar. Qashshoq va kambag'al mamlakatlarda esa Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida ko'rsatilgan muammolarga bir qadar yechim topilsada, ularga to'liq erishishning iloji yo'q. Shuningdek, ayrim rivojlangan davlatlarda ham ayrim maqsadlar doirasida ko'rsatilgan muammolar, xususan, OITS/OIVning oldini olish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabi muammolarni to'liq hal etib bo'lmaydi. Chunki, ushbu muammolar insoniyat taraqqi yoti bilan hamohang ravishda paydo bo'lib, hattoki rivojlanib bormoqda. Ayrim muammolarning paydo bo'lishi va keng taraqalishida inson omili ta'siri mavjud emas. Bu ayniqsa ekologik muammolarda ko'zga tashlanadi. Masalan, global isish, cho'llanish, tabiiy va texnogen ofatlarning yuzaga kelishi shular jumlasidandir. Shu

boisdan ham ushbu global maqsadlarga to‘liq erishishning imkoni mavjud emas. Biroq, insoniyatning umumbashariy muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etishga bo‘lgan intilishiga hamda hamfikrliligiga eng muhim qadriyat sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekiston MRM doirasida ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali atmosfera havosining ifloslanishini oldini olishda ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo‘llari chetida yashil hududlarni kengaytirish, yirik shaharlar atrofida “yashil qalqonlar” tashkil etish, yoqilg‘ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko‘paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo‘lgan veloyo‘lakchalar tashkil etish, iqtisodiyotning barcha jabhalarida yashil, ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va eng muhimi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni amaliyotga keng tadbiq etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlashga erishish tadbirlarni amalga oshirish lozim.

**ADABIYOTLAR**


1. Raximov M., Abdimo‘minov O. O‘zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari. -Toshkent: Hamkornashr. 2021. – B. 171.
2. O‘zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlari. –Toshkent: 2004. – B.4.
3. Xalq so‘zi, 2015 yil 20 may. №100 (6283) –B.1.
4. United Nations Millennium Declaration. Resolution adopted by the General Assembly. A/RES/55/2. Fifty-fifth session 18 September 2000. –P. 9.
5. Mingyillik rivojlanish maqsadlari monitoring rasmiy sayti va ma’lumotlar bazasi - https://www.mdgmonitor.org/
6. Саидов А. Цели развития тысячелетия в контексте Республика Узбекистан // Общественное мнение. Права человека. 2010. №3. – С. 16.
7. Mingyillik rivojlanish maqsadlari O‘zbekistonda. – Toshkent: BMT va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda chop etilgan. 2004. – B. 16-17.
8. Usmonov B. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi // Xalqaro munosabatlarning yangi tizimi va O‘zbekiston Respublikasi. – Toshkent: 2009. – B. 61.
9. https://www.undp.org/uz/uzbekistan (12.02.2021)
10. Raximov M., Abdimo‘minov O. O‘zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari. Toshkent: Hamkornashr. 2021 – B. 160.
11. Alixonov B. Ekologik barqarorning muhim omili / Xalq so‘zi, 2015 yil 12 avgust. №158 (6341) -B.2.
12. O‘zbekiston-BMT: tinchlik, barqarorlik va farovonlik yo‘lida hamkorlik.- “Jahon” AA./ Xalq so‘zi, 2015 yil 11 iyun. №115 (6298) –B.1.
13. O‘MA. M-110-fond, 1-ro‘yxat (davomi), 4602-yig‘ma jild, 42-varaq.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 94(575.1+470):323/327

***Umidjon USAROV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b, PhD*
*E-mail: umidjon.usarov@mail.ru,*

*Samarqand davlat universiteti professori, t.f.d. Sh.G‘affarov taqrizi asosida*

## SOME CONSIDERATIONS ON THE IRRIGATION WORKS OF TASHKENT IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY – THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotation

In this article, the sources of water in the irrigation works of the city of Tashkent and its surrounding areas in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century as well as some aspects of the irrigation system networks were explained based on the sources of different periods and data collected as a result of observations caried out related to the history of the irrigation works of the city. In addition, in the article, the role of the rivers such as Sirdarya, Chirchik, Akhangaron, Karasuv, large canals such as Bozsuv, Ankhor, Solar, Iskandar, Khonim, Kaykobus and Darkhan, Posra, Karasuv, Polvon and several other canals which had a significant role in the irrigation system of Tashkent in supplying the city with water has been revealed.

**Key words:** Tashkent, Chirchik, Chinoz, city, uyezd, irrigation, Syrdaryo, Chirchik, Akhangaron, Bozsuv, Ankhor, Solar, river, canal, ditch, tributary.

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ ОРОСИТЕЛЬНЫХ РАБОТАХ ТАШКЕНТА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье раскрыты источники воды на оросительных сооружениях города Ташкента и его окрестностей во второй половине XIX - начале XX века, а также некоторые аспекты устройства оросительных сетей были рассмотрены на основе источников разных периодов и данных, собранных в результате проведенных наблюдений, связанных с историей ирригационных работ города. Кроме того, в статье рассмотрена роль таких рек, как Сырдарья, Чирчик, Ахангарон, Карасув, крупных каналов, таких как Бозсув, Анхор, Салар, Искандар, Хоним, Кайкобус и арыков Дархан, Посра, Карасув, Полвон и ряда других, которые имели значительную роль в ирригационной системы Ташкента в снабжении города водой.

**Ключевые слова:** Ташкент, Чирчик, Чиноз, город, уезд, орошение, Сырдарья, Чирчик, Ахангарон, Бозсув, Анхор, Салар, река, канал, арык, приток.

## XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENTNING SUG‘ORISH ISHLARIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Toshkent shahri va uning atrofidagi hudularning sug‘orish ishlarida suv manbalari, sug‘orish tizimi tarmoqlarining ba’zi jihatlari turli davr manbalari va shaharning sug‘orsh ishlari tarixiga oid olib borilgan ilmiy tadqiqot ham kuzatishlar natijasida to‘plangan ma’lumotlari asosida yoritib o‘tildi. Shu bilan birga maqolada Toshkentning sug‘orish tizimida muhim ahamiyat ega Sirdaryo, Chirchiq, Oxongaron, Qorasuv kabi daryolar, Bo‘zsuv, Anxor, Solar, Iskandar, Xonim, Kaykobus kabi yirik kanallar hamda Darxon, Posra, Qorasuv, Polvon va boshqa bir necha ariqlarining shaharni suv bilan ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Toshkent, Chirchiq, Chinoz, shahar, uyezd, sug‘orish, Sirdaryo, Chirchiq, Oxongaron, Bo‘zsuv, Anxor, Solar, daryo, kanal, ariq, irmoq.

**Kirish.** Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida mustamlaka tizimini o‘rnatgandan so‘ng, o‘lkada o‘zining mustamlakachilikka asoslangan boshqaruv tizimini yanada mustahkamlash maqsadida Toshkent shahrini o‘lkadagi siyosatining markaziga aylantirdi. Imperiya hukumatining o‘lkadagi mustamlakachilik siyosatida agrar masala birinchi darajada ekanligi bois, Toshkent shahri va uning atrofidagi sug‘orish ishlariga alohida e’tibor qaratadi. Bunga asosiy sabablardan biri o‘lkadan imkon qadar ko‘proq iqtisodiy daromad olishni ko‘zlangan. Toshkent shahri bu davrda o‘zining joylashuv o‘rni, tabiati, suv manbalarga boyligi sababli iqtisodiy potensali yuqori bo‘lgan. Undan tashqari shahar bir necha asrlardan buyon alohida strategik rivojlangan hudud ham hisoblangan. Shuni yaxshi anglagan imperiya ma’muriyati vakillari Toshkentni mintaqadagi mustamlaka-chilik siyosatini ma’muriyatining markazi deb, unda alohida yangi shahar qismini ham barpo etgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Toshkent shahri va uning atrofidagi sug‘orish manbalari va tizimi tarixi o‘rganishda davr manbalari bo‘lgan arxiv xujjatlari va o‘sha davr mualliflari asarlari birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalarda Toshkentning sug‘orish manbalari va ularning tarmoqlari haqida ma’lumot berilgan. Xusasan, O‘zbekiston Milliy arxivi Turkiston general-gubernator mahkamasi (I-1-fondning–6-ro‘yxat 560-yig‘majild va I–37- fondning 1-ruyxat 349-yig‘majildlari), Turkiston o‘lkasi statistik qo‘mitasi materiallari (1876) va turli davrlarda A.I.Shaxnazarov (1908), A. I. Dobrosmislov (1912), N.N. Aleksandrov (1916), M.Y.Yunusxodjayeva (1970). I.M.Mo‘minov (1971), K.Y.Jitov (1973), A.O‘rinboyev, O.Bo‘riyev (1983), H.Ziyoyev (2000,2006), J.X.Ismoilova (2004), S.Xakimova (2023) kabi mualliflarning tadqiqot ishlari doirasida Toshkentning sug‘orish ishlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**Tadqiqot ishi umum qabul qilingan tarixiy metodlar–qiyosiy-statistik va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlaridagi Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlarning sug‘orish manbalari va tizimi aks ettiruvchi manbalar hamda tadqiqot ishlari ilmiy tahlilga tortilgan.

**Tahlil va natijalar.** Imperiya hukumati o‘z manfaati yo‘lida turkistondagi mustamlakachilikni birinchi kunlarida-noq Toshkent shahar va uning atrofidagi uyezdlar hududlaridagi irrigatsiya tarmoqlarini xolatini yaxshilash borasida bir kancha harakatlarni amalgan oshirgan. Jumladan, 1865-yil bohorida Rosssiya imperiyasi generali-leytenanti M.G.Chernyayev boshchiligida Toshkent shaharni egallab olish maqsadida amalga oshirish harbiy xujumlardan oldin Chirchiq daryosining o‘ng sohilidagi Niyozbek tug‘oni buzdirilib, shahar suvdan mahrum etilgan edi. Bu esa keyinchalik shaharning suv ta’minotn masalasida katta qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Shu bois 1868–1869-yillarda to‘g‘onni qayta tiklash buyicha katta ishlar olib borishda imperiyaning o‘lkadagi ma’sul ma’murlari, xususan, general-gubernator K.P.Kaufmanning shaxsan o‘zi ham ishtirok etgan. To‘g‘onni tiklash ishlarida juda qo‘plab mahalliy ishchilar ishtirok etgan[2]. Niyozbek to‘g‘onini qayta tiklanishi natijasida Salor daryosida hamda Shibli arig‘iga ham suv kela boshlagan. Bular barchasi Toshkent shaharining barcha qismini suv bilan ta’minlashda katta ahmiyatga ega bo‘lgan sug‘orish tarmoqlari edi.

Bu davrda Toshkent shahar va uning atrofidagi hududlarning asosiy suv bilan ta’minlovchi suv manbalari Sirdaryo, Chirchiq, Oxongaron, Qorasuv kabi daryolar va ulardan ajralib chiquvchi yirik kanallar hisoblangan. Toshkent vohasining asosiy suv manbai Chirchiq daryosi hisoblanib, u Sirdaryoning eng yirik o‘ng irmog‘idir. U Toshkent shahri va uyezdi hududlarni suv bilan ta’minlovchi asosiy daryo bo‘lib, daryodan o‘rtacha soniyasiga 60 kub sajen (1 sajen – 2,1336 metrga teng) suv oqqan. Bu daryo suvining 2/3 qismi sug‘orish ishlariga sarflangan. Shuningdek, bu davrda Toshkent shahri va uyezdi Sirdaryo viloyatning suv bilan yaxshi ta’minlangan janubi-sharqiy hududiga kirgan[1]. Toshkent vohasida Chirchiq daryosidan chiqarilgan jami 1725 km uzunlikdagi juda ko‘p katta-kichik ariqlar mavjud bo‘lgan. Ular 95372 desyatina yerni sug‘organ. Shu tariqa Chirchiq daryosi asosiy suv manbai bo‘lgan, 27294 ta xo‘jalikka xizmat qilgan[4].

1876-yildagi Turkiston o‘lkasi statistika materiallaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Sirdaryo viloyatining markazi bo‘lgan Toshkent va uning atroflaridagi hududlar suvni Chotqol tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy etagidan oqib o‘tuvchi Chirchiq daryosidan olgan va u shahardan sakkiz mil (1 mil – 1609,34 metrga teng) janubdan oqib, Chinoz yaqinida Sirdaryoga quyilgan[6].

Rus ma’muriyati Chirchiq atrofidagi joylarda 32 ming desyatina yerni sug‘oradigan suniy sug‘orish tarmoqlari qurishni va buning uchun 1800 рубл sarflashni rejalashtirdi. Ammo bu режани to‘la amalga oshirishning iloji bo‘lmay, avvaldan foydalanib kelinayotgan suv Chirchiqning ikki qirg‘og‘idan ko‘plab suv shaxobchalari turli tomonlarga taralib ketgan edi[4]. Suvning ma’lum qismi paxta yetishtirishga sarflangan. Shuningdek, Chirchiq daryosining chap qirg‘og‘idagi botqoqliklarni quritish hisobiga 20000 desyatina yerni o‘zlashtirtish rejalashtirilgan[3].

Bu davrda Toshkent hududi 18325 desiyatinaga (1 desyatina – 1,09 gektarga teng) teng bo‘lib, Toshkent shahri va atrof qishloqlarninng obodonchiligi uchun Chirchiq daryosidan kanaallar qazilgan edi[13]. Shaharni suv bilan ta’minlaydigan asosiy manba – Bo‘zsuv kanali bo‘lgan. Undan ajralib chiqadigan Salor, Shivli, Qorasuv, Gadragan, Kaykovuz kabi sug‘orish kichik kanallari tarmog‘i muhim ahamiyat kasb etib, umumiy uzunligi 210 verstni (1 verst – 1.06 kmga teng) tashkil etgan[5]. Bo‘zsuv kanali Niyozbek to‘g‘onidan Toshkent shaharining ichidan Labzak darvozadan o‘tib, 31 verst masofada Bo‘zsuv, Kaykavuz va Anhor ariqlariga tarmoqlanib, shaharni ekin ekiladigan yerlari va mahallalarini suv bilan ta’minlagandan so‘ng, shahar chekka qismida umumiy kanalga birlashib, yana Bo‘zsuv nomini oladi[2]. Shuningdek, Toshkent shahrini suv bilan ta’minlovchi Bo‘zsuv arig‘i sersuv bo‘lib, sug‘orish paytida soniyasiga o‘rtacha 6 kub sajen suv oqqan. Bu ariqning o‘zidan 12 ta katta irmoq ajralib chiqqan[1]. A.I. Dobrosmislov o‘z asarida Bo‘zsuv kanalidan suv oladigan 12 kanalni – Qorasuv, Salor, Angor (Anxor), Kaykobus, Yalang‘och, Godragan, Ivish, Qing‘irak, Darvozakent, Baytqo‘rg‘on, O‘ymovut, Yuz hamda ulardan tarmoqlangan yana bir qancha ariqlarni sanab o‘tgan[2].

Shuningdek, amerikalik sayyoh Yujin Skayler o‘z qaydlarida Toshkent shahri va uning atrofidaga sug‘orish ishlari haqida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, asarda “Toshkentning gullab-yashnashi to‘liq suv ta’minotiga bog‘liq. Toshkent Turkistonning eng suvga mo‘l joyi hamdir. Barcha obihayot qo‘shni tog‘lardan quyiga oquvchi Chirchiq daryosidan shahardan qariyb o‘n olti milcha yuqorida Niyozbekda daryoni tark etuvchi Bo‘zsuv kanali orqali olinadi. Ushbu kanal to‘rtga bo‘linib, ular ham o‘z tarmoqlari bilan shaharning istalgan qismiga suv yetkazadi”[8] – deb yozib o‘tgan.

Bu davrda Sirdaryoning boshqa irmoqlari bo‘lgan Ohangaron daryosidan taxminan soniyasiga o‘rtacha 5 kub sajen oqadigan suvning deyarli hammasi Toshkent uyezdi hududidagi sug‘orish ishlari uchun ishlatilgan[1]. Shuningdek, Toshkent vohasining Chirchiq va Ohangaron daryolaridan chiqarilgan katta-kichik 158 ta ariq mavjud bo‘lgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, XX asr boshida Toshkent uyezdi va uning atrofida sun’iy sug‘orish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bunday ariqlar boshqa uyezdlarda deyarli uchramaydi. Ariqlarning ko‘pchiligi Chirchiq daryosidan boshlangan. Chirchiq daryosi to‘lib-toshib oqqan vaqtda mahalliy aholining uzoq yillik tajribasidan foydalanilgan. Imperiya ma’murlari ham bu usullarni qo‘llab-quvvatlagan holda bunday to‘g‘onlarning qurilishiga qarshilik ko‘rsatmagan. To‘g‘onni qurishda mahalliy aholining mehnati bilan shox-shabba, xoda, g‘o‘la, sholi poyasi hamda telegraf simlaridan foydalanilgan. Natijada, bir ta’mirlanishi bilan 6-7 yilga yetadigan to‘g‘onlar yaratilgan. Bu daryo suvini bemalol ushlab turish imkonini bergan[11].

O‘lkaning boshqa hududlari singari Toshkent shahri va Toshkent uyezdi hududlarida ham paxtachilikni rivojlantirish uchun sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yishi lozimligini yaxshi angladi. Shu sababli mustamlakachi imperiya hukumati o‘lkada bir necha bor urinib ko‘rgan bo‘lsa-da, lekin bularning hammasi muvaffaqiyatsiz bo‘lib chiqdi[10]. Xususan, Toshkent shahri va uning atrofidagi 200 000 desyatinaga yaqin yerni suv bilan ta’minlash uchun injener Ulyamov loyihasi asosida Kaufman kanalini qazishga kirishdi. Ushbu kanal 1878-yilda Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdidagi Bekobod qishlog‘i yonida, Sirdaryoning chap sohilida qazilishi boshlangan edi, lekin bu loyiha natija bermagan. Kaufman kanalini faqatgina 8 verst qismigina qazilgan xolos[14].

XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrida sug‘orish ishlarini yaxshilash maqsadida, Rossiya imperiyasi hukumatining ruxsati bilan 1883-yilda Toshkent va uning atrofida sun’iy sug‘orishni rivojlantirishda imperator Nikolay I ning jiyani knyaz N.K.Romanov bir necha yirik kanallar qazdirgan. U Chirchiq daryosidan ikkita yirik kanal qazdirgan bo‘lib, birinchisi 50 verst uzunlikdagi “Iskandar” nomli kanal

bo‘lib, 4163–4513 desyatina yerni sug‘organ bo‘lsa, ikkinchisi, 65 verst uzunlikda bo‘lib, 3215 desyatina yerni suv bilan ta’minlagan[15]. Lekin bu kanallarning atrofida bir necha rus posyolkalari tashkil etilganligi sababli suvdan ko‘proq rus aholi vakillari foydalangan[3].

XIX asrning 80-90 – yillarda Rossiya imperiyasi hukumatining Turkistondagi ma’muriyati o‘lkada paxtachilikni rivojlantirish ustida bir qancha chora-tadbirlar ko‘rdi. Bu borada jaydari (mahalliy) g‘o‘zaning sifati yaxshi bo‘lmaganligi sababli Amerika (o‘sha davrda mahalliy xalq tilida “amirkon” deb yuritiladi) paxta navlarini keng joriy qilish masalasi muhokama qilina boshladi. Toshkent yaqinida paxtachilik firmasi, keyinroq esa paxta tajriba plantatsiyasi tashkil qilib, 1884-yildan boshlab Toshkent atrofida 3 ming desyatina (botmon)ga yaqin yerga Amerika paxtasi ekila boshladи[10].

Bundan tashqari Toshkent shahrining “yangi” qismi Darxon, Posra, Qorasuv, Polvon, Childo‘xtarxon va boshqa ariqlar suvidan foydalanardi. Ulardan turli ko‘chalar, bog‘lar, hovlilar, hiyobonlarga ko‘plab katta-kichik ariqlar tarmoqlanib ketardi[5]. Shuningdek, shahar suv ta’minotida Oqqo‘rg‘on arig‘i ham muhim suv manbai hisoblanardi[12].

Toshkent shaharning “yangi” kismining markaziy mintaqalari suv bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lib, bunda shahar Dumasi faoliyati katta rol uynagan, u irrigatsiya ishlariga o‘z budjetining talay qismini ajratgan. Masalan, bu maqsad uchun 1909-yilda 46973 rubl, 1914-yilda 56000 rubl harajat qilingan. Bu haqida шаҳар атрофида davlat hisobidan yo‘lga qo‘yilgan sunniy sug‘orish ishlari rivojlantirilgan hududlarda asosan rus millatiga mansub aholi uchun posyolkalar tashkil etildi. Shunga o‘xshash holat Toshkent uezdida ham ko‘zga tashlanadi[3]. Suv taqsimlashni yo‘lga ko‘yish uchun maxsus katta va kichik ariq oqsoqoli lavozimi ta’sis etilgan. Shunday qilib, suvdan foydalanishda eski mahalliy usullar asos qilib olingan[5].

Tarixchi olim X.Ziyoyevnini tadqiqotlariga ko‘ra, 1917-yilda o‘lkadagi sug‘oriladigan yerlarning maydoni suv havzalari bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: Unga ko‘ra, Sirdaryo havzasida – 245.000, Chirchiq, Keles, Kuru-Keles, Ohangaron daryolari hamzasida – 225.000 desyatina tashkil etgan[4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Toshkent shahri va uning atrofi Sirdaryo va Chirqiq daryolaridan sug‘oriladigan dehqonchilik qiladigan yerlar uchun olinadigan suv miqdori ko‘pligi bois o‘lkaning boshqa hududlariga nisbatan ekin maydonlari hajmi ko‘p bo‘lgan.

N.N. Aleksandrovning ma’lumotlariga ko‘ra, XX asr boshida Toshkent uyezdidagi 170538 desyatina sug‘oriladigan yerlarni 2507 verst uzunlikdagi 288 ta katta kichkina ariqlar suvi bilan sug‘orilgan. Shu bilan birga, Toshkent uyezdlarida sug‘orish ishlari mavjud sug‘orish inshootlari qadim zamonlardan shakllanib rivojlanib kelgan[1].

**Xulosa va takliflar.** Rossiya imperiyasi mustamlaka-chiligi davrida Toshkent shahri va uyezdi suv manbalari bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lib, mahalliy mirshikor dehqonlari mashaqqatli mehnati evaziga shahar atrofi deyarli barcha qismi suv bilan yaxshi ta’minlangan. Imperiya hukumati o‘z manfaati yo‘lida sug‘orish ishlariga e’tibor qaratishga majbur bo‘lganligi uchun mahalliy aholini bu boradagi tajribalariga suyangan. Sug‘orish ishlari uchun davlat hisobidan ajratilgan mablag‘lar esa to‘liq imperiya manfaatlari uchun xizmat qiladigan aholi uchun xizmat qilgan.

Toshkent shahri va uyezdidagi sunniy sug‘orish ishlarining barcha og‘irligi va azob-uqubatlari oddiy xalq zimmasida bo‘lgan. Imperiya hukumati o‘lkaning boshqa hududlari singa bu yerda ham sug‘orish ishoatlari hamda qurilmadarini tuzatish va ta’mirlash uchun mahalliy mehnatkash aholidan tekin ichki kuchi sifatida foydalanish-gan. Bundan tashqari o‘lkada “Sug‘orish vazifalari” (irrigatsionni povinnosti) nomli solig‘i joriy etildi va undan mahalliy aholi yanada ko‘proq jabr chekgan. Bu kabi xolatlar Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston o‘lkasi, xususan, Toshkent shahri va uyezdidagi sug‘orish tizimiga oid mustamlakachilik siyosatining ko‘rinishlaridan biri sifatida yaqqol namoyon bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR


1. Александров Н.Н. Земледелие в Сыр-Дарьинской области. – Ташкент, Часть I-2. 1916. – С. 12-14.
2. Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом и насгояшсм. Исторический очерк. – Ташкент. 1912. – С. 138-168.
3. Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси: (тарихнинг долзарб масалалари). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 124-125 б.
4. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва залм исканжасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Токент: Шарқ, 2006. – 58-67 б.
5. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шахар” кисми тарихи. – Тошкент: FAN VA TEXNOLOGIYA, 2004. – 31-32 б.
6. Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск IV. – СПб., 1876. – С. 261.
7. Социально-экономическое положение Узбекистана накануне Октября / Отв. ред. акад. АН Уз ССР К.Е.Житов. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 37-38.
8. Скайлер Южин. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. (Таржимон З.А.Саидбобоев). – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 75 б.
9. Xakimova S. O‘zbekiston hududida gidrografik tadqiqotlar tarixi (XIX-XX asr boshlari). – Farg‘ona, 2023. – 83 b.
10. Ўзбекистон ССР тарихи / И.М.Мўминов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1971. Т. II. – 57-60 б.
11. O‘zMA, I-1-fond, 6-ro‘yxat, 560-yig‘majild, 10-varaq.
12. O‘zMA. I–37-fond. 1-ruyxat. 349-yig‘majild. 23-varaq.
13. Ўринбоев А. Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида (XIX аср). – Тошкент; Фан, 1983. – 43 б.
14. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – СПб.: Типогр. В.Е. Киршбауна, 1908. – С. 106.
15. Юнусходжаева М.Ю. Из истории землевладения в дореволюционном Туркестане (На материалах хоз-ва князя Н.К. Романова). – Ташкент: Фан, 1970. – С. 37-38, 112.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:908

*Umar ERGASHEV,*
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi*
*E-mail:ergashev_u@gmail.com*

*NamMQI dotsenti, f.,f.,n., N.Shaydullayev taqrizi asosida*

## TEMIR-QAPIG‘ – SUG‘D VA TOHARISTON ORASIDAGI TARIXIY TOG‘ GUZARI

Annotatsiya
Maqolada O‘rta Osiyoning eng qadimiy tog‘ guzarlaridan biri, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy va janubiy yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lagan Darband – Temir-darvoza ming yillar davomida mintaqa xalqlari siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirganligini ilmiy asoslari keltirilgan, ushbu yo‘lning asrlar bo‘yi faoliyat ko‘rsatishi, bojxona vazifasini o‘tashi, askarlar tomonidan qo‘riqlanishi, vaqti-vaqti bilan ta’mirlab turilishi bo‘yicha ayrim istiqbolli ma’lumotlar muhokama qilingan.
**Kalit so‘zlar:** “Temir-qapig‘”, “Temir-darvoza”, “Darband-i ohanin”, “Dari-ohanin”, “Tiyen-men”, Darband, Istami yabg‘u, Istami, Tardu xoqon, Yenchu-O‘guz, Syuan Szan, “Tarix ar-rusul va-l-muluk”, Sabqari (Su-bo‘g‘ra), Kuhitang (Quyitang), Chag‘oniyon.

## ТЕМИР-КАПЫГ – ИСТОРИЧЕСКИЙ ГОРНЫЙ ХРЕБЕТ МЕЖДУ СОГДОМ И ТОХАРИСТАНОМ

Аннотация
В статье приводится научное обоснование того, что Дарбанд – железные ворота, одна из древнейших горных достопримечательностей Средней Азии, соединяющая Северное и южное направления Великого Шелкового пути, на протяжении тысячелетий оставляли глубокий след в политико-экономической и культурной жизни народов региона. обсуждались некоторые многообещающие данные о том, как дорога функционировала на протяжении веков, служила таможней, охранялась солдатами и периодически ремонтировалась.
**Ключевые слова:** “Темир-капыг”, “Железные ворота”, “Дарбанд-и оханин”, “Дари-оханин”, “Тянь-Мэн”, Дарбанд, Истами Ябгу, Истами, тарду Каган, Йенчуогуз, Сюань Сянь, "Тарих АР-русул ва-ль-мулук", Сабкари (Су-бугра), Кухитанг (Куйтанг), Чаганион.

## TEMIR-QAPIG IS A HISTORIC MOUNTAIN CAVE BETWEEN SUGHD AND TOHARISTAN

Annotation
In the article, one of the most ancient mountain beauties of Central Asia, which connected the northern and southern directions of the Great Silk Road, Darband-Iron-Gate the scientific basis for the fact that for thousands of years the peoples of the region have left a deep mark on their political and economic and cultural life has been cited, some promising data on the centuries-old operation of this road, its customs function, its guard by soldiers, its periodic maintenance have been discussed.
**Key words:** "Iron-Cage”, “Iron-Gate”, “Darband-i ohanin”, “dari-ohanin”, “Tien-men”, Darband, Istami yabgü, Istami, Tardu khoqon, Yenchuoguz, Syuan Szan, Sabqari (Su-throat), Kuhitang (Quyitang), Chaganiyon.

**Kırısh.** Turli tillarga mansub qadimiy yozma manbalarda “Temir-darvoza” deb tilga olinib, bugungi kunda Qashqa va Surxon vohalarini o‘zaro bog‘lagan Dehqonobod va Boysun tumanlari oralig‘ida joylashgan Darband mavzesi atroflarining bir qismi yaqin o‘tmishda Buxoro amirligining ma’muriy birliklaridan biri – G‘uzor bekligiga qarashli bo‘lgan[1]. Ilk o‘rta asrlarga tegishli qadimgi turk-run yozuvli O‘rxun bitiktoshlarida “Temir-qapig‘”, o‘rta asrlar forsiy manbalarida “Darband-i ohanin”, “Dari-ohanin” (Temir-darvoza), shu davrlarga oid turk-mo‘g‘ul tillarida esa “Temir-qahalg‘a” ko‘rinishlarida qayd etiladi.

Ushbu tarixiy mavzeni 630- yillarda Janubiy Sug‘d (G‘uzor va atroflari) orqali Toharioston o‘lkasi (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojiston – Shimoliy Afg‘oniston)ga o‘tgan va Hindistonga yo‘l olgan xitoy rohibi Syuan Szan o‘z tilida “Tiyen-men”, ya’ni “Temir-darvoza” ko‘rinishida keltirgan[2]. Aslida miloddan oldingi mingyilliklardan boshlangan O‘rta Osiyo va unga janubdan qo‘shni Hind o‘lkalari oralig‘idagi savdo yo‘llarini o‘zaro bog‘lab turgan ushbu tog‘ yo‘li Baqtriya o‘lkasidan Sug‘diyonaga o‘tuvchi karvonlar uchun o‘ziga xos “ko‘prik” vaziafasini bajargani qadimiy manbalardan ma’lum.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda Boysun tog‘lari bag‘rida Darband nomli qishloq Boysun shahridan 17 km g‘arbda, Sherobod daryosi qirg‘og‘ida yastanib yotibdi. Qadim Baqtriyaning shimoldagi manzillaridan biri bo‘lgan ushbu mavze qadimgi Temir-darvoza – Darbandi-ohanin tog‘ yo‘li bilan aloqadordir. Bu yer O‘rta Osiyo tarixining ko‘plab siyosiy voqeliklariga guvoh bo‘lgan. Miloddan oldingi so‘nggi mingyilliklar o‘rtalarida Eron Ahamoniylari qo‘shinlari Sug‘dga yurish qilganda ham, miloddan oldingi 332 yilda yunonistonlik Aleksandr Makedonskiy o‘z qo‘shinlari bilan O‘rta Osiyoning ichkarisiga yo‘l olganda ham asosan ana shu tog‘ yo‘lidan o‘tishgan. Miloddan oldingi IV – II asrlarda yashab o‘tgan Yunon-Baqtriya davlati aynan shu yo‘l orqali shimolga – Sug‘d va unga qo‘shni hududlarga o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta’sirini o‘tkazishga uringan. Kushon saltanati (mil.old. I – mil. III asrlar) davrida esa Darband xalqaro karvon yo‘llari uchun muhim qatnov yo‘liga aylanib, Volga – Uralbo‘yi, Xorazm, Choch, Yettisuv, Farg‘ona, Sibir – Oltoy tomonlardan janubga o‘z mahsulotlarini olib o‘tayotgan savdogarlarning asosiy qo‘nalg‘alaridan biri bo‘lgan. O‘z navbatida Eron va Hind o‘lkalaridan shimolga tomon yo‘lga chiqqan tujjorlar Kushon saltanati chegaralaridan Sug‘dga, u orqali yuqorida sanab o‘tilgan o‘lkalarga safar qilar ekan “Temir-darvoza”ga to‘xtab o‘tishgan. Bu holat u yoki bu darajada so‘nggi o‘rta asrlargacha saqlanib qolgan bo‘lib,

G‘uzor bekligiga oid yozma ma’lumotlar bundan darak berib turadi[3].

Ushbu tarixiy manzilning yanada rivojlanib, Buyuk ipak yo‘lidagi bosh manzillaridan biriga aylanishi Kushon saltanati va undan keyin O‘rta Osiyo tarix sahnasiga chiqib tushgan Xioniylar (III – IV asrlar), Eftaliylar (450-565) va Turk xoqonligi (552-744) davrlariga to‘g‘ri keladi. Buni o‘sha kezlarga tegishli o‘nlab yozma manbalardagi ma’lumotlar ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, Turk xoqonligi davrida Darbandning ahamiyati yanada ortib, bu yer nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyatga ega bojxona markaziga aylangani turli manbalarda o‘z ifodasini topgan. Ma’lumki, Turk xoqonligi kunchiqarda – O‘rxun vodiysi (Mo‘g‘uliston), Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston, markazda O‘rta Osiyo, kunbotarda Volga – Uralbo‘ylari, Shimoliy Kavkaz, Qora dengizning shimoli, janubda Shimoliy Hindiston, Kobul va Qandahor hududlarini o‘z ichiga olib, Ipak yo‘lining har ikkala tarmog‘i – “Shimoliy yo‘nalish” va “Janubiy yo‘nalish”ning katta qismi ushbu xoqonlik qo‘l ostida edi[4]. Xoqonlik Sug‘d, Tohariston va ularga qo‘shni hududlarni ham qamrab olgan bo‘lib, Darband uning asosiy bojxonalaridan biri edi. Buni Tunyuquq, Kul Tegin va Bilga xoqon bitiktoshlarida tilga olingan quyidagi ma’lumotlar tasdiqlab turibdi: «(Ajdodlarim davrida) to‘rt tomon butunlay dushman ekan. Lashkar tortib to‘rt jihatdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar. Boshi borni yukuntirgan, tizzasi borni cho‘kallatganlar. Oldinga (sharqqa) Qadirqan yish (Xingan)ga, orqaga (g‘arbga) Temir-qapig‘ (Toxariston)gacha manzil qildirgan. Ikkalasining orasida tashkilotsiz (betartib) yashagan Ko‘k turklarni tartibga solib, shu tariqa hukm surar ekan»[5].

560- yillarda Turk xoqonligi tarkibiga o‘tgan Darband xoqonlikning kunbotardagi qanoti – G‘arbiy Turk xoqonligi (568-740) tarkibiga kirib, bu yerda xoqonlikning asoschilaridan biri bo‘lmish Istami yabg‘u avlodlari hukm surgan. Istami va uning o‘g‘li Tardu xoqon (576-603) davrida G‘arbiy xoqonlik hududi janubi-g‘arbga qarata kengaytirilgan bir paytda, bu yer xoqonlikning eng chekka va muhim ahamiyatga molik chegara hududlaridan hisoblangan. Shu sababli Kul Tegin bitiktoshida ota-bobolarining o‘z xalqini g‘arbda Temir Qapiqqacha yerlashtirganiga alohida urg‘u beriladi. Ushbu tog‘ guzarining shunga o‘xshash boshqa go‘zarlardan farqli o‘laroq, yozma manbalarda alohida tilga olinishiga sabab esa, qadim zamonlardayoq Hindiston va Erondan chiqib, Markaziy Osiyoning turli o‘lkalariga yo‘l oluvchi savdo karvonlari aynan shu manzilda to‘xtashar va mazkur guzardan o‘tishayotganida ulardan boj olinardi. Ayniqsa, o‘sha paytda mazkur go‘zarda tog‘ qoyalariga biriktirilgan darvoza bo‘lganligi diqqatni o‘ziga tortadi. G‘arbiy turk xoqoni ruxsati bilan Sharqiy Turkiston – Yettisuv (Issiqko‘l – Taroz) – Choch – Ustrushona – Sug‘d – Tohariston – Kobul orqali Hindistonga yo‘l olgan xitoy rohibi Syuan Szan va uning yo‘ldoshlari Sug‘dda Kesh (Shahrisabz)ga uchrab, undan tog‘ yo‘li orqali Tuxolo (Tohariston)ga yetib kelganini o‘zi yozib qoldirgan satrlarda quyidagicha ko‘rsatib o‘tgan: “Tiye-men (Temir-darvoza)ning o‘ng va so‘l ikki tomoni toqqa tutashgan. Tog‘ benihoya yuksak va tik qoyalardan iborat. Tor bir go‘zar bo‘lishiga qaramay (bu yerdan) o‘tish ancha qiyin va tahlikali. (Kechit)ning ikki tomonidagi devor kabi qoya ham temir rangidadir. (Bu yerga) taxtadan qilingan darvoza joylashtirilgan va (bu darvozalar) temir qismlar bilan bir-biriga jipslashtirilib, mustahkamlangandir. Darvozalarning tepasida anchagina qo‘ng‘iroqchalar osilgan. (Bu yer) oshib o‘tish qiyin va juda yaxshi qo‘riqlangani uchun ushbu go‘zar shunday nomlangan”[6]. Arab istilosiga uchragan Sug‘d va Toharistonga xoqonlik tomonidan 710- yillarda amalga oshirilgan harbiy harakatlar bayon qilinar ekan, «Sug‘daq xalqini tartibga olayin deya, Yenchu-O‘guz (Sirdaryo)ni kechib o‘tib, Temir-qapig‘gacha safarga chiqdik» mazmundagi ma’lumot[7] ham bu yerning deyarli 150 yil davomida Turk xoqonligi uchun siyosiy va iqtisodiy ahamiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** Turli tillarga mansub qadimiy yozma manbalarda “Temir-darvoza” deb tilga olinib, bugungi kunda Qashqa va Surxon vohalarini o‘zaro bog‘lagan Dehqonobod va Boysun tumanlari oralig‘ida joylashgan Darband mavzesi atroflarining bir qismi yaqin o‘tmishda Buxoro amirligining ma’muriy birliklaridan biri - G‘uzor bekligiga qarashli bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarga tegishli qadimgi turk-run yozuvli O‘rxun bitiktoshlarida “Temir-qapig‘”, o‘rta asrlar forsiy manbalarida “Darband-i ohanin”, “Dari-ohanin” (Temir-darvoza), shu davrlarga oid turk-mo‘g‘ul tillarida esa “Temir-qahalg‘a” ko‘rinishlarida qayd etiladi.

Ushbu tarixiy mavzeni 630- yillarda Janubiy Sug‘d (G‘uzor va atroflari) orqali Tohariston o‘lkasi (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojiston – Shimoliy Afg‘oniston)ga o‘tgan va Hindistonga yo‘l olgan xitoy rohibi Syuan Szan o‘z tilida “Tiyen-men”, ya’ni “Temir-darvoza” ko‘rinishida keltirgan.

Bugungi kunda Boysun tog‘lari bag‘rida Darband nomli qishloq Boysun shahridan 17 km g‘arbda, Sherobod daryosi qirg‘og‘ida yastanib yotibdi. Qadim Baqtriyaning shimoldagi manzillaridan biri bo‘lgan ushbu mavze qadimgi Temir-darvoza – Darbandi-ohanin tog‘ yo‘li bilan aloqadordir. Bu yer O‘rta Osiyo tarixining ko‘plab siyosiy voqeliklariga guvoh bo‘lgan. Miloddan oldingi so‘nggi mingyilliklar o‘rtalarida Eron Ahamoniylari qo‘shinlari Sug‘dga yurish qilganda ham, miloddan oldingi 332 yilda yunonistonlik Aleksandr Makedonskiy o‘z qo‘shinlari bilan O‘rta Osiyoning ichkarisiga yo‘l olganda ham asosan ana shu tog‘ yo‘lidan o‘tishgan. Miloddan oldingi IV – II asrlarda yashab o‘tgan Yunon-Baqtriya davlati aynan shu yo‘l orqali shimolga – Sug‘d va unga qo‘shni hududlarga o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta’sirini o‘tkazishga uringan. Kushon saltanati (mil.old. I – mil. III asrlar) davrida esa Darband xalqaro karvon yo‘llari uchun muhim qatnov yo‘liga aylanib, Volga – Uralbo‘yi, Xorazm, Choch, Yettisuv, Farg‘ona, Sibir – Oltoy tomonlardan janubga o‘z mahsulotlarini olib o‘tayotgan savdogarlarning asosiy qo‘nalg‘alaridan biri bo‘lgan. O‘z navbatida Eron va Hind o‘lkalaridan shimolga tomon yo‘lga chiqqan tujjorlar Kushon saltanati chegaralaridan Sug‘dga, u orqali yuqorida sanab o‘tilgan o‘lkalarga safar qilar ekan “Temir-darvoza”ga to‘xtab o‘tishgan. Bu holat u yoki bu darajada so‘nggi o‘rta asrlargacha saqlanib qolgan bo‘lib, G‘uzor bekligiga oid yozma ma’lumotlar bundan darak berib turadi.

**Muhokama.** Bundan ko‘rinadiki, xitoy rohibi bu yerning mahalliy tillarda qanday ma’noda qo‘llanilganidan, uning xitoychada qanday ma’no berishidan yaxshigina xabardor bo‘lgan. Shu bilan birga, u bu yerning nega shunday atalishini bu yerda temirdan yasalgan yuksak darvoza borligi orqali tushuntirishga harakat qilgan. Tog‘ go‘zariga bunday darvozaning o‘rnatilishi o‘z-o‘zidan bo‘lmay, balki bu yer vaqti-vaqti bilan yopib qo‘yiladigan, go‘zardan o‘tuvchi savdo karvonlari boj to‘lovlarini qilgandan keyin ularning o‘tishiga ruxsat berilgan. Aslida bu yer davlat nazoratidagi, askarlar tomonidan qo‘riqlanadigan joy bo‘lib, har bir boshqaruvchi sulola karvonlardan boj olishdan katta foyda ko‘rganlar. Karvonlardan boj undirish esa savdogarlarning shunchaki mamlakat hududidan o‘tgani uchun to‘lovi bo‘lib qolmay, bojxonani qo‘riqlovchilar chet el karvonlarining yo‘llardagi xavfsizligini ta’minlashni ham o‘z zimmalariga olganlar. Syuan Szan Darbanddan o‘tgan paytlarda ham, undan deyarli 100 yil keyin qadimgi turk bitiktoshlari yozilgan chog‘larda

ham bu yer o‘zining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotmagan edi.

O‘sha kezlarda xoqonlik Sug‘d va Toharistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita boshqaruvni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bu hududga yaqin Samarqandda turkiy-sug‘diy, Naxshabda turkiy, Keshda sug‘diy va Toharistondan turkiy Yabg‘ular kabi boshqaruvchilar hukm surar edi. Bunga xitoy rohibi yozib qoldirgan ma’lumotlar guvohlik beradi. Rohib va hamrohlari Tun yabg‘u-xoqon tomonidan alohida ahamiyat berilgan Tohariston o‘lkasiga yetib kelishadi. Rohib Tuxoristonni ta’riflar ekan, bu o‘lkaning 27 katta-kichik hukmdorliklardan tashkil topganini va Turk xoqonligiga bo‘ysunishini qayd qilib, Tun yabg‘u-xoqon bu yerlarning umumiy boshqaruvchisi sifatida o‘g‘li Tardu shadni tayinlaganiga urg‘u beradi[8]. Rohib Tuxoriston tuprog‘iga qadam qo‘ygach, Chiyeganna (Chag‘oniyon), Tami (Termiz) va boshqa Tohariston hukmdorliklaridan o‘tib, Tardu shadning qarorgohi Xo (Qunduz) shahriga yetib keladi. Garchi na Syuan Szan va na qadimgi turk bitiktoshlarida qayd etilmagan bo‘lsa-da, Turk xoqonligi boshqaruvi chog‘ida G‘uzorni turkiy sulola boshqargan bo‘lib, Abu Ja’far at-Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (Payg‘ambarlar va hukmdorlar tarixi) nomli asarida (IX asr) keltirilishicha, Xuzor (G‘uzor) boshqaruvchisi Sabqari (Su-bo‘g‘ra) nomli hukmdor bo‘lgan[9]. Ayrim tadqiqotchilar uning ismini qadimgi turkcha “su” (qo‘shin) va “bo‘g‘ra” (erkak tuya) so‘zlaridan yasalgan deb qaraydilar. Chamasi, Turk xoqonligi 560- yillarda Eftaliylarni yengib, o‘zining janubiy chegaralarining Sug‘dning eng chekka hukmdorligi G‘uzorga yoki Darband tevaraklarida belgilagach, bu yerda o‘z noiblarini boshqaruvga tayinlagan bo‘lsalar kerak.

G‘uzor bekligining Darbanddan boshqa ham bir necha qatnov yo‘llari mavjud bo‘lib, ularning bir qismi tog‘ go‘zarlari, bir qismi esa tekisliklardan o‘tgan. Beklik aholisini va karvonlarni Qarshi, Chiroqchi, Yakkabog‘, Shahrisabz tomonlarga olib boruvchi yo‘llar asosan tekisliklarda joylashgan bo‘lsa, muhim yo‘llardan biri beklikka janubi-g‘arbdan qo‘shni Kerki, Kelif, Kuhitang yo‘nalishlarining ayrimlari tekislik, ayrimlari esa tog‘ orqali amalga oshirilgan. G‘uzorning janubiy yo‘nalishida esa Darband o‘zining qadimgi ahamiyatini saqlab qolgan holda xalqaro qatnov vazifasini bajarishda davom etgan.

**Xulosa.** Xullas, O‘rta Osiyoning eng qadimiy tog‘ go‘zarlaridan biri bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy va janubiy yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lagan, ushbu yo‘nalishlar orasidagi savdo ichki savdo yo‘llari uchun o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajargan Darband – Temir-darvoza ming yillar davomida mintaqa xalqlari siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan. Ushbu tog‘ yo‘lining shimoliy uchida G‘uzor hukmdorligi – mulkligi, janubiy uchida esa Chag‘oniyon (Denov) hukmdorliklari joylashib, ularning har ikkalasi ushbu yo‘lning asrlar bo‘yi faoliyat ko‘rsatishi, bojxona vazifasini o‘tashi, askarlar tomonidan qo‘riqlanishi, vaqti-vaqti bilan ta’mirlab turilishi va hokazolarni bajargan bo‘lishlari kerak.

## ADABİYOTLAR


1. Ilhomov Z.A. Tarixiy geografiya (O‘zbek xonliklari tarixiy geografiyasi). – Toshkent, 2020. – B. 19, 21.
2. Тугушева Л. Ю. Уйгурская версия биографии Сюань-Цзана. – М., 1991;
3. Эрназаров А.Х. Ғузор беклигининг тарихий – географик шарҳи // Марказий Осиё тарихи ва маданияти. №1, 2023. – Б. 506-507.
4. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б. 308-311.
5. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 103.
6. Бобоёров Ғ. Тун ябғу-хоқон. – Тошкент: Abu-konsalt, 2011. – Б. 35.
7. Tekin T. Orhon Yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk. – İstanbul: Yıldız Yayınları, 2003. – S. 49.
8. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. – S. 138-139.
9. Камол Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М., 1970. – С. 40.